

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**



# **GEOGRAFIYA O'QITISH METODIKASI**

**Geografiya ta'limining didaktik asoslari**

**MODULI BO'YICHA  
O'QUV-USLUBIY MAJMUUA**



**TOSHKENT-2022**



**Mazkur o'quv-uslubiy majmua Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv reja va dastur asosida tayyorlandi.**

**Tuzuvchilar:** **Sh.Avazov** - Nizomiy nomidagi TDPU "Botanika" kafedrasida p.f.n.professor.

**F.Saydamatov** - Nizomiy nomidagi TDPU "Geografiya va uni o'qitish metodikasi" kafedrasida katta o'qituvchisi.

**E.Sobirov** - Nizomiy nomidagi TDPU "Geografiya va uni o'qitish metodikasi" kafedrasida 3-bosqich doktoranti.

**Taqrizchilar:** **N.R.Alimqulov** - Nizomiy nomidagi TDPU "Geografiya va uni o'qitish metodikasi" kafedrasida mudiri, g.f.n., dotsent.

**Xorijiy ekspert:** PhD doktor Frank Laper - Fransiya (Parij).  
Ponter de Parij №10 universiteti.

**O'quv-uslubiy majmua TDPU Kengashining 2020 yil 27 avgustdagi 1/3.6-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.**



## MUNDARIJA

<b>I. ISHCHI DASTUR .....</b>	<b>4</b>
<b>II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI.....</b>	<b>12</b>
<b>III. NAZARIY MATERIALLAR.....</b>	<b>25</b>
<b>IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI .....</b>	<b>104</b>
<b>V. KEYSLAR BANKI .....</b>	<b>123</b>
<b>VI. GLOSSARIY.....</b>	<b>130</b>
<b>VII. FOYDALANILAGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI .....</b>	<b>133</b>



## I. ISHCHI DASTUR

### KIRISH

Dastur O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son va 2020 yil 29 oktyabrdagi "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli Farmonlari, 2020 yil 27 fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-sonli Qarori, 2020 yil 30 sentyabrdagi O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi "O'qituvchi va murabbiylar yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir" nomli nutqi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-sonli Qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lim muassasalari texnologiya ta'limi yo'nalishida faoliyat olib borayotgan pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, texnologiya ta'limini rivojlantirish strategiyalariga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilimlarni o'zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish kompetensiyalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

#### **Modulning maqsadi va vazifalari**

"Geografiya ta'limining didaktik asoslari" modulining **maqsadi**: oliy ta'lim muassasalari geografiya ta'limi yo'nalishida faoliyat olib borayotgan pedagog kadrlarining qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonida geografik ta'lim mazmunini takomillashtirish, geografiya ta'limini tashkil etishga oid tadqiqotlarning xususiyatlari, rivojlanish tendensiyalari, geografiya ta'limining uzluksiz ta'lim tizimidagi uzviyligining ahamiyati, O'zbekistonda geografiya fani o'qituvchilarini tayyorlash muammolariga oid yangi bilimlar, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishdan iborat.

Modulning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

- "Geografiya o'qitish metodikasi" yo'nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;



- pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;
- mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali tatbiq etilishini ta'minlash;
- mutaxassislik fanlar sohasidagi o'qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalarini o'zlashtirish;

“Geografiya o'qitish metodikasi” yo'nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o'zaro integratsiyasini ta'minlash.

### **Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

#### **Tinglovchi:**

- ilmiy-geografik bilimlarning o'ziga xos xususiyatlari, ob'ekti, tuzilmasi, differentsiatsiya va integratsiya masalalari, hamda geografik tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlarini;
- qadimgi davrda va o'rta asrlarda geografiya, yangi va eng yangi davrda geografiyaning rivojlanishini;
- O'zbekiston hududidagi geografik tadqiqotlarni;
- amaliy geografiyaning mohiyati, geografik baholash va prognozlash hamda insoniyatning global muammolarini;
- geoekologiyaning shakllanishi, rivojlanish tarixi, ob'ekti, predmeti va vazifalarini;
- geoekologiyaning nazariy va metodologik asoslarini;
- yer ekosferasi – murakkab global geoekotizimligini;
- global o'zgarishlar va insoniyat strategiyasi, geoekologiya va atrof-muhit muhofazasi, Orol dengizi va Orolbo'yi muammosi, o'zgaruvchan iqlim sharoitidagi geoekologik muammolarni;
- didaktika – geografiya ta'limining pedagogik nazariyasi sifatida ekanligini;
- didaktika va geografiya ta'limi metodikasining ob'ekti, predmeti, vazifalari va asosiy kategoriyalarini;
- geografiya ta'limining xilma-xil modellari, qonuniyatlari va tamoyillarini;
- kasbiy sohasidagi pedagogik tadqiqotlarning o'ziga xos xususiyatlari, ularni tashkil etish va o'tkazishdagi yondashuvlarni;
- tadqiqot natijalarini tahlil qiluvchi axborot tizimlari va dasturlarni ***bilishi*** kerak.

#### **Tinglovchi:**

- geografiyadagi yangi va eng yangi metodlardan foydalanish;
- geografiya ta'limi mazmunini tanlash, shakllantirish va loyihalash;





• geografiya ta'limi mazmunini belgilovchi me'yoriy hujjatlar (DTS, o'quv rejasi, fan dasturi va o'quv adabiyotlari) tayyorlash;

• geografiya ta'limini innovatsion asosda tashkil etish;

• geografiya ta'limi jarayonini tashkil qilish va boshqarish vositalaridan foydalanish;

• geografiya ta'limi sifati va monitoringi yuritish;

• geografiya ta'limida pedagogik nazoratni amalga oshirish;

• geografiya ta'limida o'zlashtirishni nazorat qilish va baholash;

• pedagogik tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish, pedagogik tadqiqotlarda statistik metodlar va ulardan foydalanish;

• tanlanmalar va gipotezalarni shakllantirish;

• elektron jadvallar va statistika dasturi yordamida korrelyatsion tahlilni o'tkazish *ko'nikmalariga* ega bo'lishi zarur.

#### **Tinglovchi:**

• ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion muhitni yaratish;

• oliy ta'limda geografiya fanlarini o'qitishda lokal, xususiy metodik darajadagi texnologiyalardan foydalanish;

• geografiya fanlarini o'qitishning pedagogik texnologiyalarga asoslangan innovatsion muhitini loyihalashtirish;

• shaxs geografik madaniyatining belgilarini yaratish;

• geografiya ta'limi mazmuni va geografik bilish jarayoni geografik madaniyatni shakllantirish;

• geografik madaniyatning tuzilmaviy-tarkibiy qismlari (geografik tafakkur, geografik til, geografik bilish metodlari, dunyoning geografik manzarasi) ni takomillashtirish;

• pedagogik tadqiqotlar natijalari tahlil qilishdagi zamonaviy yondashuvlar, metodlar va vositalardan foydalanish;

• pedagogik tadqiqotlarda statistik metodlardan o'z tadqiqotlarida foydalanish;

• tadqiqot natijalarini tahlil qiluvchi axborot tizimlari va dasturlar yordamida statistik va korrelyatsion tahlilni o'tkazish *malakalariga* ega bo'lishi zarur.

#### **Tinglovchi:**

• hududiy geografik tafakkur va uning mahalliy, milliy, mintaqaviy, global darajalariga oid tadqiqotlar olib borish;

• geografik taqqoslash, umumlashtirish va geografik mavhumlashtirish.

• geografiya tili (geografik raqamlar; geografik xronologik sanalar; geografik joy nomlari; geografik kartalar tili; geografik til shakllari: ovozli-og'zaki va ovozsiz-yozma)dan o'quv jarayonida foydalanish;



- geografiyadan metodik ishlanmalar tayyorlash;
- talabalarning mustaqil ta'limi va ijodiy izlanishlarini tashkil etish;
- bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini orttirishda vitagen tajribalardan foydalanish;
- talabalarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni nazorat qilish va baholash;
- pedagogik tadqiqotlarda statistik metodlarni o'z tadqiqotlarida qo'llash;
- tadqiqot natijalarini tahlil qiluvchi axborot tizimlari va dasturlarga statistik funksiyalarini kiritish va natijalar tahlilini o'tkazish **kompetensiyasiga** ega bo'lishi lozim.

### **Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar**

“Geografiya ta'limi” yo'nalishi bo'yicha mashg'ulotlar nazariy va amaliy shakllarda olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida o'qitishning innovatsion va axborot- kommunikatsiya texnologiyalari hamda interfaol ta'lim metodlari qo'llanilishi nazarda tutilgan: ya'ni,

- nazariy mashg'ulotlarda taqdimotlar, mavzuga oid filmlar hamda kompyuter texnologiyalarini joriy etish;

- amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, va boshqa interfaol ta'lim metodlarini qo'llash nazarda tutiladi.

### **Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi**

“Zamonaviy geografiya fani va geoekologiyaning nazariy va amaliy muammolari” moduli mazmuni o'quv rejadagi “Kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish”, “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish”, “Pedagogning kasbiy professionalligini oshirish” va “Geografiya fanini o'qitishning innovatsion muhitini loyihalash” o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda pedagoglarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

### **Modulning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi**

Asosiy qismda (ma'ruza) modulning mavzulari mantiqiy ketma- ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tezislar orqali ochib beriladi. Bunda mavzu bo'yicha tinglovchilarga yetkazilishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar to'la qamrab olinishi kerak.

Asosiy qism sifatiga qo'yiladigan talab mavzularning dolzarbligi, ularning ish beruvchilar talablari va ishlab chiqarish ehtiyojlariga mosligi, mamlakatimizda bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy va demokratik o'zgarishlar, iqtisodiyotni erkinlashtirish,



iqtisodiy-huquqiy va boshqa sohalaridagi islohotlarning ustuvor masalalarini qamrab olishi hamda fan va texnologiyalarning so'ngi yutuqlari e'tiborga olinishi tavsiya etiladi.

**Modulning oliy ta'limdagi o'rni**

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar oliy ta'lim muassasalari geografiya ta'limi yo'nalishida faoliyat olib borayotgan pedagog kadrlarining qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonida geografik ta'lim mazmunini takomillashtirish, geografiya ta'limini tashkil etishga oid tadqiqotlarning xususiyatlari, rivojlanish tendensiyalari, uzluksiz ta'lim tizimidagi uzviyligining ahamiyati, O'zbekistonda geografiya fani o'qituvchilarini tayyorlash muammolarini o'rganishga ega bo'ladilar.

**Modul bo'yicha soatlar taqsimoti**

№	Modul mavzulari	Jami auditoriya soati	Jumladan	
			nazariy	amaliy
1.	Geografiya fanining paydo bo'lishi, rivojlanish tarixi va fan sifatida shakllanishi.	2	2	
2.	Geografik madaniyat va geografik ma'rifat: tuzilmaviy- tarkibiy qismlari, mazmuni va o'zaro bog'liqligi.	2	2	
3.	Didaktikada zamonaviy geografiya darsiga bo'lgan talablar va didaktik o'yinli texnologiyalarning geografiya fanlarini o'qitishdagi o'rni.	4	4	
4.	Geografiya fanlarini o'qitishda pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalari hamda xususiy metodikalar.	4	2	2
5.	Geografiya fanlarini o'qitishda innovatsion texnologiyalarga asoslangan ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini loyihalash va pedagogik faoliyatda qo'llash.	2		2





6.	Geografiya ta'limida tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy yo'nalishlar. Geografiya fanlarini o'qitishda an'anaviy, kartografik, geografik-tarixiy, geoekologik va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish.	2		2
7.	Geografiyani o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyasi.	2		2
8.	Geografiya fanlarini o'qitishda talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish.	2		2
9.	Geografiya fanlarini o'qitishda talabalarning bilimlarini ob'ektiv baholash mexanizmlarini, reyting tizimida qo'llashga qaratilgan didaktik vositalar: standart va nostandart o'quv va test topshiriqlari majmuasini ishlab chiqish.	2		2
10.	Geografiyani o'qitish jarayonida didaktik o'yinli darslardan foydalanish yo'llari.	2		2
11.	Geografiyani o'qitishda modulli darslardan foydalanish yo'llari.	2		2
<b>Jami</b>		<b>26</b>	<b>10</b>	<b>16</b>

## NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

### **1-mavzu: Geografiya fanining paydo bo'lishi, rivojlanish tarixi va fan sifatida shakllanishi.**

Geografiya fanining paydo bo'lishi, rivojlanish tarixi va fan sifatida shakllanishini tahlil qilish.

### **2-mavzu. Geografik madaniyat va geografik ma'rifat: tuzilmaviy- tarkibiy qismlari, mazmuni va o'zaro bog'liqligi.**

O'quvchilarda geografik madaniyat va geografik ma'rifatning tuzilmaviy- tarkibiy qismlari, mazmuni va o'zaro bog'liqligi o'rganish.

### **3-mavzu: Didaktikada zamonaviy geografiya darsiga bo'lgan talablar va didaktik o'yinli texnologiyalarning geografiya fanlarini o'qitishdagi o'rni.**

Geografiya darslarida zamonaviy didaktikaga bo'lgan talablar va didaktik o'yinli texnologiyalarning geografiya fanlarini o'qitishdagi o'rni va rolini tahlil qilish.



**4-mavzu: Didaktikada zamonaviy geografiya darsiga bo'lgan talablar va didaktik o'yinli texnologiyalarning geografiya fanlarini o'qitishdagi o'rni.**

Geografiya darslarida zamonaviy didaktikaga bo'lgan talablar va didaktik o'yinli texnologiyalarning geografiya fanlarini o'qitishdagi o'rni va rolini tahlil qilish.

**5-mavzu: Geografiya fanlarini o'qitishda pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalari hamda xususiy metodikalar.**

Geografiya fanlarini o'qitishda pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalari hamda xususiy metodikalarni qo'llash usullari.

**AMALIY MASHG'ULOT MAZMUNI**

**1-Amaliy mashg'ulot: Geografiya fanlarini o'qitishda pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalari hamda xususiy metodikalar.**

**(2 soat)**

Geografiya fanlarini o'qitishda pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalari hamda xususiy metodikalarni qo'llash usullari amaliy bajarish.

**2-Amaliy mashg'ulot: Geografiya fanlarini o'qitishda innovatsion texnologiyalarga asoslangan ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini loyihalash va pedagogik faoliyatda qo'llash.**

**(2 soat).**

Geografiya fanlarini o'qitishda innovatsion texnologiyalarga asoslangan ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini loyihalash va pedagogik faoliyatda qo'llash imkoniyatlarini tahlil qilish.

**3-Amaliy mashg'ulot: Geografiya ta'limida tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy yo'nalishlar. Geografiya fanlarini o'qitishda an'anaviy, kartografik, geografik-tarixiy, geoeologik va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish. (2 soat).**

Geografiya ta'limida tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy yo'nalishlar. Geografiya fanlarini o'qitishda an'anaviy, kartografik, geografik-tarixiy, geoeologik va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullarini o'rganish.

**4-Amaliy mashg'ulot: Geografiyani o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyasi. (2 soat).**

Geografiya fanlarini o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyasining o'rni va rolini tahlil qilish va imkoniyatlaridan keng foydalanish .



**5-Amaliy mashg'ulot: Geografiya fanlarini o'qitishda talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish. (2 soat).**

Geografiya fanlarini o'qitishda talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish usullari va samaradorligini tahlil qilish.

**6-Amaliy mashg'ulot: Geografiya fanlarini o'qitishda talabalarning bilimlarini ob'ektiv baholash mexanizmlarini, reyting tizimida qo'llashga qaratilgan didaktik vositalar: standart va nostandart o'quv va test topshiriqlari majmuasini ishlab chiqish. (2 soat).**

Geografiya fanlarini o'qitishda talabalarning bilimlarini ob'ektiv baholash mexanizmlarini, reyting tizimida qo'llashga qaratilgan didaktik vositalar: standart va nostandart o'quv va test topshiriqlarini tuzish usulari va qo'llanishini tahlil qilish.

**7-Amaliy mashg'ulot: Geografiyani o'qitish jarayonida didaktik o'yinli darslardan foydalanish yo'llari. (4 soat).**

Geografiyani o'qitish jarayonida didaktik o'yinli darslardan foydalanish yo'llarini tahlil qilish

**O'QITISH SHAKLLARI**

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rilayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).



## II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI

1. **“Aqliy hujum” metodi** - biror muammo bo'yicha ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va og'zaki shakllari mavjud. Og'zaki shaklida ta'lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta'lim oluvchilarning har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. Ta'lim oluvchilar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta'lim oluvchilar o'z javoblarini qog'oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida javob-larni ma'lum belgilar bo'yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ush-bu metod to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va noston-dart fikrlashga o'rgatadi.

“Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda ta'lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo'ladi, shu jumladan ta'lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta'lim oluvchilar o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta'lim oluvchilarda turli g'oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta'lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

“Aqliy hujum” metodi ta'lim beruvchi tomonidan qo'yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo'yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.

2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog'lash maqsad qilib qo'yilganda –yangi mavzuga o'tish qismida amalga oshiriladi.

3. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo'yilganda-mavzudan so'ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.


### **“Aqliy hujum” metodini qo'llashdagi asosiy qoidalar:**

1. Bildirilgan fikr-g'oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.

2. Bildirilgan har qanday fikr-g'oyalar, ular hatto to'g'ri bo'lmasa ham inobatga olinadi.

3. Har bir ta'lim oluvchi qatnashishi shart.

Quyida “Aqliy hujum” metodining tuzilmasi keltirilgan.



### **“Aqliy hujum” metodining tuzilmasi**

#### **“Aqliy hujum” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Ta'lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo'yicha o'z javoblarini (fikr, g'oya va mulohaza) bildirishlarini so'raladi;
2. Ta'lim oluvchilar savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildi-rishadi;
3. Ta'lim oluvchilarning fikr-g'oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli qog'ozlarga yoki doskaga) to'planadi;
4. Fikr-g'oyalar ma'lum belgilar bo'yicha guruhlanadi;
5. Yuqorida qo'yilgan savolga aniq va to'g'ri javob tanlab olinadi.

#### **“Aqliy hujum” metodining afzalliklari:**

- natijalar baholanmasligi ta'lim oluvchilarda turli fikr-g'oyalarning shakllanishiga olib keladi;
- ta'lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;
- fikr-g'oyalar vizuallashtirilib boriladi;
- ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini tekshirib ko'rish imkoniyati mavjud;
- ta'lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg'otadi.

#### **“Aqliy hujum” metodining kamchiliklari:**

- ta'lim beruvchi tomonidan savolni to'g'ri qo'ya olmaslik;
- ta'lim beruvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.






**2. “Kichik guruhlarda ishlash” metodi** - ta'lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlariga ajratgan holda o'quv materialini o'rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan dars-dagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo'llanilganda ta'lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo'lishga, bir-biri-dan o'rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo'ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo'llanilganda ta'lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo'la-di. Chunki ta'lim beruvchi bir vaqtning o'zida barcha ta'lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Quyida “Kichik guruhlarda ish-lash” metodining tuzilmasi keltirilgan.

**“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagi-lardan iborat:**

1. Faoliyat yo'nalishi aniqlanadi. Mavzu bo'yicha bir-biriga bog'liq bo'lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta'lim oluvchilar guruhlariga 3-6 kishidan bo'linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta'lim beruvchi tomonidan aniq ko'rsatmalar beriladi va yo'nal-tirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.





### **“Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi**

#### **«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:**

- o‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqtni tejash imkoniyati mavjud;
- barcha ta’lim oluvchilar jalb etiladi;
- o‘z-o‘zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

#### **«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:**


- ba’zi kichik guruhlarda kuchsiz ta’lim oluvchilar bo‘lganligi sababli kuchli ta’lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha ta’lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo‘ladi;
- guruhlararo o‘zaro salbiy raqobatlar paydo bo‘lib qolishi mumkin;
- guruh ichida o‘zaro nizo paydo bo‘lishi mumkin.

**3. “Davra suhbat” metodi** – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta’lim oluvchilar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir.

“Davra suhbat” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shakli-da joylashtirish kerak. Bu har bir ta’lim oluvchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida ta’lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta’lim oluvchilardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir ta’lim oluvchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan ta’lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.


Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylash-tirilib, har bir ta’lim oluvchiga konvert qog‘ozi beriladi. Har bir ta’lim oluvchi konvert ustiga ma’lum bir mavzu bo‘yicha o‘z savolini beradi,

“Javob varaqasi”ning biriga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi.



### Davra stolining tuzilmasi

Shundan so'ng konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluv-chiga uzatadi. Konvertni olgan ta'lim oluvchi o'z javobini "Javoblar vara-qasi"ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo'yadi va yonidagi ta'lim oluv-chiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo'ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig'ib olinib, tahlil qilinadi. Quyida "Davra suhbat" metodining tuzilmasi keltirilgan:



### "Davra suhbat" metodining tuzilmasi



“Davra suhbatı” metodining *bosqichlari* quyidagılardan iborat:

1. Mashg‘ulot mavzusi e‘lon qilinadi.

2. Ta‘lim beruvchi ta‘lim oluvchılarnı mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi bilan tanishtiradi.

3. Har bir ta‘lim oluvchıga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha ta‘lim oluvchi bo‘lsa, shunchadan “Javoblar varaqalari”ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo‘yiladi. Ta‘lim oluvchi konvertga va “Javoblar varaqalari”ga o‘z ismi-sharifini yozadi.

4. Ta‘lim oluvchi konvert ustıga mavzu bo‘yicha o‘z savolini yozadi va “Javoblar varaqasi”ga o‘z javobini yozib, konvert ichıga solib qo‘yadi.

5. Konvertga savol yozgan ta‘lim oluvchi konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi ta‘lim oluvchıga uzatadi.

6. Konvertni olgan ta‘lim oluvchi konvert ustıdagi savolga “Javoblar varaqalari”dan birıga javob yozadi va konvert ichıga solib qo‘yadi hamda yonidagi ta‘lim oluvchıga uzatadi.

7. Konvert davra stoli bo‘ylab aylanib, yana savol yozgan ta‘lim oluvchining o‘zıga qaytib keladi. Savol yozgan ta‘lim oluvchi konvertdagi “Javoblar varaqalari”ni baholaydi.

8. Barcha konvertlar yig‘ib olinadi va tahlil qilinadi.

Ushbu metod orqali ta‘lim oluvchılar berilgan mavzu bo‘yicha o‘zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladılar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta‘lim oluvchılarnı muayyan mavzu bo‘yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta‘lim oluvchılar o‘zlari bergan savollarıga guruhdagi boshqa ta‘lim oluvchılar bergan javoblarını baholashlari va ta‘lim beruvchi ham ta‘lim oluvchılarnı ob‘ektiv baholashi mumkin.

#### **“Davra suhbatı” metodining afzalliklari:**

- o‘tilgan materialining yaxshi esda qolishıga yordam beradi;
- barcha ta‘lim oluvchılar ishtirok etadılar;
- har bir ta‘lim oluvchi o‘zining baholanishi mas‘uliyatını his etadi;
- o‘z fikrini erkin ifoda etish uchun imkoniyat yaratiladi.

#### **“Davra suhbatı” metodining kamchiliklari:**

- ko‘p vaqt talab etiladi;
- ta‘lim beruvchining o‘zi ham rivojlangan fikrlash qobiliyatıga ega bo‘lishi talab etiladi;
- ta‘lim oluvchılarning bilim darajasıga mos va qizıqarli bo‘lgan mavzu tanlash talab etiladi.




**4. “Rolli o‘yin” metodi** - ta'lim oluvchilar tomonidan hayotiy vazi-yatning har xil shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko‘rsatib beruv-chi metoddir.

Rolli o‘yinlarning ishbob o‘yinlardan farqli tomoni baholashning olib borilmasligidadir. Shu bilan birga “Rolli o‘yin” metodida ta'lim oluvchilar ta'lim beruvchi tomonidan ishlab chiqilgan ssenariydagi rollarni ijro etish bilan kifoyalanishsa, “Ishbob o‘yin” metodida rol ijro etuvchilar ma'lum vaziyatda qanday vazifalarni bajarish lozimligini mustaqil ravishda o‘zlari hal etadilar.

Rolli o‘yinda ham ishbob o‘yin kabi muammoni yechish bo‘yicha ishtirokchilarning birgalikda faol ish olib borishlari yo‘lga qo‘yilgan. Rolli o‘yinlar ta'lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakl-lantiradi.

“Rolli o‘yin” metodida ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilar haqida oldindan ma'lumotga ega bo‘lishi lozim. Chunki rollarni o‘ynashda har bir ta'lim oluvchining individual xarakteri, xulq-atvori muhim ahamiyat kasb etadi. Tanlangan mavzular ta'lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasiga mos kelishi kerak. Rolli o‘yinlar o‘quv jarayonida ta'lim oluvchilarda motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi. Quyida “Rolli o‘yin” metodi-ning tuzilmasi keltirilgan.



### **Rolli o‘yin” metodining tuzilmasi**

**“Rolli o‘yin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Ta'lim beruvchi mavzu bo‘yicha o‘yinning maqsad va natijalarini belgilaydi hamda rolli o‘yin ssenariysini ishlab chiqadi.
2. O‘yinning maqsad va vazifalari tushuntiriladi.
3. O‘yinning maqsadidan kelib chiqib, rollarni taqsimlaydi.
4. Ta'lim oluvchilar o‘z rollarini ijro etadilar. Boshqa ta'lim oluvchilar ularni kuzatib turadilar.





5. O'yin yakunida ta'lim oluvchilardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi. Kuzatuvchi bo'lgan ta'lim oluvchilar o'z yakuniy mulohazalarini bildiradilar va o'yinga xulosa qilinadi.

Ushbu metodni qo'llash uchun ssenariy ta'lim beruvchi tomonidan ishlab chiqiladi. Ba'zi hollarda ta'lim oluvchilarni ham ssenariy ishlab chiqishga jalb etish mumkin. Bu ta'lim oluvchilarning motivatsiyasini va ijodiy izlanuvchanligini oshirishga yordam beradi. Ssenariy maxsus fan bo'yicha o'tilayotgan mavzuga mos ravishda, hayotda yuz beradigan ba'zi bir holatlarni yoritishi kerak. Ta'lim oluvchilar ushbu rolli o'yin ko'rinishi-dan so'ng o'z fikr-mulohazalarini bildirib, kerakli xulosa chiqarishlari lozim.

#### **“Rolli o'yin” metodining afzallik tomonlari:**

- o'quv jarayonida ta'lim oluvchilarda motivatsiya (qiziqish)ni shakllantirishga yordam beradi;
- ta'lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllanti-radi;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olishni o'rgatadi;
- ta'lim oluvchilarda berilgan vaziyatni tahlil qilish malakasi shakllanadi.

#### **“Rolli o'yin” metodining kamchilik tomonlari:**

- ko'p vaqt talab etiladi;
- ta'lim beruvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi;
- ta'lim oluvchilarning o'yinga tayyorgarligi turlicha bo'lishi mum-kin;
- barcha ta'lim oluvchilarga rollar taqsimlanmay qolishi mumkin.

**5. “Bahs-munozara” metodi** - biror mavzu bo'yicha ta'lim oluvchilar bilan o'zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o'tkaziladigan o'qitish metodi-dir.


Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo'llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini ta'lim oluvchilar-ning biriga topshirishi yoki ta'lim beruvchining o'zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir ta'lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayot-ganda ta'lim oluvchilar orasida paydo bo'ladigan nizolarni darhol barta-raf etishga harakat qilish kerak.

“Bahs-munozara” metodini o'tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

- barcha ta'lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;
- “o'ng qo'l” qoidasiga (qo'lini ko'tarib, ruhsat olgandan so'ng so'z-lashga) rioya qilish;
- fikr-g'oyalarni tinglash madaniyati;
- bildirilgan fikr-g'oyalarning takrorlanmasligi;
- bir-birlariga o'zaro hurmat.



Quyida “Bahs-munozara” metodini o‘tkazish tuzilmasi berilgan.



### “Bahs-munozara” metodining tuzilmasi

“Bahs-munozara” metodining *bosqichlari* quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi munozara mavzusini tanlaydi va shunga doir sa-vollar ishlab chiqadi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammo bo‘yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi.
3. Ta’lim beruvchi berilgan savolga bildirilgan javoblarni, ya’ni turli g‘oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun ta’lim oluvchilardan birini kotib etib tayinlaydi. Bu bosqichda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga o‘z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi.
4. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilar bilan birgalikda bildirilgan fikr va g‘oyalarni guruhlariga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.
5. Tahlil natijasida qo‘yilgan muammoning eng maqbul yechimi tanlanadi.

### “Bahs-munozara” metodining afzalliklari:

- ta’lim oluvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi;
- ta’lim oluvchilar o‘z fikrining to‘g‘riligini isbotlashga harakat qilishiga imkoniyat yaratiladi;
- ta’lim oluvchilarda tinglash va tahlil qilish qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi.

### “Bahs-munozara” metodining kamchiliklari:

- ta’lim beruvchidan yuksak boshqarish mahoratini talab etadi;
- ta’lim oluvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo‘lgan mavzu tanlash talab etiladi.




6. **“Muammoli vaziyat” metodi** - ta'lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkab-ligi ta'lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo'yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo'lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, ta'lim oluvchilarning qiziqishlari so'nishiga, o'zla-riga bo'lgan ishonchlarining yo'qolishiga olib keladi. «Muammoli vaziyat» metodi qo'llanilganda ta'lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammo-ning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o'rganadilar. Quyida “Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi keltirilgan (rasmga qarang).

“Muammoli vaziyat” metodining *bosqichlari* quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.



**“Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi**

2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.

3. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni kichik guruhlarga ajratadi.



4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o'rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.

5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to'g'risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.

6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo'llarini ishlab chiqadilar.

7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo'yicha taqdimot qiladilar va o'z variantlarini taklif etadilar.

8. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta'lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo'llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

#### **“Muammoli vaziyat” metodining afzalliklari:**

- ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllan-tiradi;
- ta'lim oluvchilar muammoning sabab, oqibat va yechimlarni topish-ni o'rganadilar;
- ta'lim oluvchilarning bilim va qobiliyatlarini baholash uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;
- ta'lim oluvchilar fikr va natijalarni tahlil qilishni o'rganadilar.


#### **“Muammoli vaziyat” metodining kamchiliklari:**

- ta'lim oluvchilarda yuqori motivatsiya talab etiladi;
- qo'yilgan muammo ta'lim oluvchilarning bilim darajasiga mos kelishi kerak;
- ko'p vaqt talab etiladi.

7. **“Loyiha” metodi** - bu ta'lim oluvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo'yicha axborot yig'ish, tadqiqot o'tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda ta'lim oluvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar. Loyiha ishlab chiqish yakka tartibda yoki guruh bo'lishi mumkin, lekin har bir loyiha o'quv guruhining birgalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir. Bu jarayonda ta'lim oluvchining vazifa-si belgilangan vaqt ichida yangi mahsulotni ishlab chiqish yoki boshqa bir topshiriqning yechimini topishdan iborat. Ta'lim oluvchilar nuqtai-nazardan topshiriq murakkab bo'lishi va u ta'lim oluvchilardan mavjud bilim-larini boshqa vaziyatlarda qo'llay olish-ni talab qiladigan topshiriq bo'lishi kerak.

Loyiha o'rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiiq etishi, ta'lim oluvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirish, tash-killashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo'lishi kerak.

Quyidagi chizmada “Loyiha” metodining bosqichlari keltirilgan:



### “Loyiha” metodining bosqichlari

“Loyiha” metodining *bosqichlari* quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi loyiha ishi bo'yicha topshiriqlarni ishlab chiqadi. Ta'lim oluvchilar mustaqil ravishda darslik, chizmalar, tarqatma material-lar asosida topshiriqqa oid ma'lumotlar yig'adilar.

2. Ta'lim oluvchilar mustaqil ravishda ish rejasini ishlab chiqadilar. Ish rejasida ta'lim oluvchilar ish bosqichlarini, ularga ajratilgan vaqt va texnologik ketma-ketligini, material, asbob-uskunalarni rejalash-tirishlari lozim.

3. Kichik guruhlar ish rejalarini taqdimot qiladilar. Ta'lim oluvchilar ish rejasiga asosan topshiriqni bajarish bo'yicha qaror qabul qiladilar. Ta'lim oluvchilar ta'lim beruvchi bilan birgalikda qabul qilingan qarorlar bo'yicha erishiladigan natijalarni muhokama qilishadi. Bunda har xil qarorlar taqqoslanib, eng maqbul variant tanlab olinadi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilar bilan birgalikda “Baholash varaqasi”ni ishlab chiqadi.

4. Ta'lim oluvchilar topshiriqni ish rejasi asosida mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Ular individual yoki kichik guruhlarda ish-lashlari mumkin.

5. Ta'lim oluvchilar ish natijalarini o'z-lari tekshiradilar. Bundan tashqari kichik guruhlar bir-birlarining ish natijalarini tekshirish-ga ham jalb etiladilar. Tekshiruv natijalarini “Baholash varaqasi” da qayd etiladi. Ta'lim oluvchi yoki kichik guruhlar hisobot beradilar. Ish yakuni quyidagi shakllarning birida hisobot qilinadi: og'zaki





hisobot; materiallarni namoyish qilish orqali hisobot; loyiha ko'rinishidagi yozma hisobot.

6. Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar ish jarayonini va natija-larni birgalikda yakuniy suhbat davomida tahlil qilishadi. O'quv amaliyoti mashg'ulotlarida erishilgan ko'rsatkichlarni me'yoriy ko'rsatkichlar bilan taqqoslaydi. Agarda me'yoriy ko'rsatkichlarga erisha olinmagan bo'lsa, uning sabablari aniqlanadi.

Ta'lim beruvchi "Loyiha" metodini qo'llashi uchun topshiriqlarni ishlab chiqishi, loyiha ishini dars rejasiga kiritishi, topshiriqni ta'lim oluvchilarning imkoniyatlariga moslashtirib, ularni loyiha ishi bilan tanishtirishi, loyihalash jarayonini kuzatib turishi va topshiriqni mustaqil bajara olishlarini ta'minlanishi lozim.



### III. NAZARIY MATERIALLAR

#### 1-mavzu: Geografiya fanining paydo bo'lishi, rivojlanish tarixi va fan sifatida shakllanishi

##### Reja:

1. Geografiya fanining paydo bo'lishi va rivojlanishi.
2. Geografiya ta'limi va metodikasining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari.
3. Rossiya va Turkistonda maktab geografiyasi hamda geografiya ta'limi metodikasining rivojlanish bosqichlari.
4. Geografiya ta'limi metodikasining predmeti, vazifalari va zamonaviy muammolari.

#### 1. Geografiya fanining paydo bo'lishi va rivojlanishi

**Geografiya – eng qadimgi fan.** Uning qadimiyligi, ta'bir joiz bo'lsa, odamzod va insoniyatning paydo bo'lishi bilan bog'langan.

Shu asosda olimlar faqat *Homo erectus* turidan 180 ming yil oldin «kroman'on odam», ya'ni *Homo sapiens* ajdodlari paydo bo'lgan, deb hisob-laydi. Bu ajdodlar 164 ming yil oldin asosan mollyuskalar, 90 ming yil oldin baliqlar bilan oziqlangan. Ulardan (82-75 ming yil oldin) «hozirgi odam», ya'ni *Homo sapiens sapiens* (tik yuradigan, yuz mushaklari ma'noli ha-rakat qiladigan, mehnat qilish va gapirish qobiliyatiga ega bo'lgan, go'sht is-te'mol qiladigan aqlli odam) paydo bo'lgan. Aqlli odamlar 60-15 ming yil oldin Afrika, Osiyo, Yevropa, Avstraliya va Amerika qit'alarida tarqalgan.

Mana shu dalilning o'zi eng qadimgi ajdodlarimiz qay bir darajada “**geografiya**”dan xabardor bo'lganligini anglatadi. Ya'ni, ajdodlarimizning atrof-muhit haqidagi tasavvurlarga tabiiy muhtojligi ular da qulay va no-qulay *yashash joylari*, yaqin va uzoq *hududlar* haqidagi tushunchalarni kelti-rib chiqargan va keyinchalik hayotiy tajribada aniqlangan *hududiy chegaralar* doirasi makon va vaqtda uzluksiz kengayib borgan. Demak, qulay va noqulay yashash joylari haqidagi tasavvurlar, ularning ahamiyati insoniyat o'tmishi-da qachonlardir qabul qilingan. Eng muhimi, ajdodlarimizda omon yashab qo-lishning *tarixiy-geografik tajribasi* asta-sekin to'planib borgan.

Boshqacha aytganda, dastlabki odamdan to hozirgi odamgacha bo'lgan evo-lyusiya yo'li o'ta murakkab bo'lib, asosan uch bosqichni o'z ichiga olgan:

- 1) *arxantroplar* – eng qadimgi odamlar;
- 2) *paleoantroplar* – qadimgi odamlar;
- 3) *neoantroplar* – hozirgi odamlar.



Geografiya tarixi bilan shug'ullanadigan olimlar tomonidan **geogra-fiya fanining shakllanish va rivojlanish tarixi** shartli ravishda bir necha davrlarga ajratilgan:

1. **Qadimgi Sharq geografiyasi** - mil. avv. II ming yillikda Qadimgi Misrda Afrika markaziga, O'rta yer dengizi va Qizil dengiz bo'ylab ekspedi-siyalar uyushtirilgan, Quyoshga, Oyga va yulduzlarga qarab mo'ljal olingan, davriy tabiiy hodisalar taqvimini tuzilgan va mussonlar aniqlangan.

Qadimgi Xitoyda mil. avv. IX-VIII asrlarda ilk geografik xaritalar yaratilgan va mil. avv. III asrda Xitoyning "hududiy atlas" tuzilgan, kom-pas va masofa o'lchash asboblari ixtiro qilingan.

Qadimgi Xorazmda mil. avv. VII asrda bitilgan «Avesto»da tabiatdagi barcha unsurlar o'zaro bog'liqligi, muntazam o'zgarib turishi, Quyosh (olov), yer, suv va havoning tabiatda, inson hayotida tutgan o'rni, ularning muqaddas ne'mat ekanligi, o'simlik va hayvonot dunyosi, ularni muhofaza qilish, dehqonchilik va chorvachilik, tozalik va sog'liq, ko'kalamzorlashtirish, atrof-mu-hitga mas'uliyatli munosabatda bo'lish, umuman, inson bilan tabiat o'rtasi-dagi o'zaro aloqadorlikning mazmun-mohiyati (qonun-qoidalari) asoslab be-rilgan.

Qadimgi Hindistonda mil. avv. VI-V asrlarda bitilgan «Maxabxara-ta» va «Ramayana» kabi eposlarda hayvonlarning yashash joyi, hayot tarzi va odamlar ular bilan o'zaro munosabatlari aks ettirilgan va sh.k. Qisqa qilib aytganda, bu davrda *o'lkashunoslik* bilimlari jadallik bilan to'plangan.

2. **Antik O'rta yer dengizi geografiyasi** - Qadimgi Yunonistonda **Fa-les** (mil. avv. 640/624 - 548/545) Yerning sharsimonligini taxmin qildi, **Anaksimandr** ( mil. avv. [611](#) - [546](#)) Yer xaritasini chizdi, **Gekatiy** (mil. avv. 550 - 490) «Er tavsifi» asarida tabiat va atrof olam haqida tushunchalar berdi, **Empedokl** (mil. avv. 490 - 430) olov, havo, suv va yerni tabiatning aso-siy unsurlari sifatida ajratib ko'rsatdi, o'simliklar bilan muhit o'rtasi-dagi munosabatlarni o'rgandi, **Platon** (mil. avv. 429 - 347) o'simlik, hayvon va odam, ularning yashash sharoiti va xususiyatlarini aniqladi, **Aristotel** (mil. avv. 384 - 322) «Hayvonlar tarixi» asarida hayot sharoitlariga bog'liq holda hayvonot tasnifini yaratdi, Yerning shar shaklida ekanligini isbot-ladi, **Feofrast** (yoki Teofrast) (mil. avv. 370-288) «O'simliklar haqida tad-qiqot»ida 500 ga yaqin o'simlik turlari va ularning hududiy uyushmalarini tavsifladi, **Gipparx** (mil. avv. 190 - 120) gradus to'rini asosladi, **Era-tosfen** (mil. avv. 276 - 194) Yer shari aylanasini o'lchadi, Dunyo xaritasini tuzdi va "**geografiya**" terminini fanga kiritdi, **Krates** (mil. avv. II asr - 145) globus yasadi.

Mil. avv. II asrda "Buyuk ipak yo'li" ochildi va I asrda **Strabon** (mil. avv. 64/63 - mil. 23/24 ) mashhur "Geografiya" (17 tomlik) kitobini yozdi.

Qadimgi Rimda **Pliniy** (mil. avv. 79-23) «Tabiat tarixi» asarida zoo-logiya, botanika va biogeografiyaga oid bilimlarni umumlashtirdi va sh.k.



Umuman aytganda, bu davrda ijtimoiy-tarixiy tajribaning yashash joylariga taalluqli qismi *geografiya* deb nomlangan, geografik bilimlar jamiyat haqidagi bilimlarning ajralmas qismiga aylana boshlagan.

**3. O'rta asrlar geografiyasi** - fanlar taraqqiyotida uzoq davom qilgan turg'unlikdan keyin *arablar* Sharqda VII-VIII asrlarda yaqin va uzoq hudud-larga tinimsiz sayyohatlar uyushtirdi, Priney yarim oroli va Madagaskar oroli orqali Janubiy Osiyo bo'ylab Xitoyga dengiz sayohatlari amalga oshirildi, "Buyuk ipak yo'li" sayohatlar markaziga aylandi.

Movaraunnahrda buyuk allomalar yetishib chiqdi: **Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy** (783-850) "Er surati" kitobini yozdi, unda geografik ob'ekt-lar haqida qimmatli ma'lumotlar keltirdi, kuzatish va tajriba-sinov me-todiga asos soldi, shu asosida bilim olish va olingan bilimlarni amalda qo'llashning ahamiyatini ko'rsatib berdi: «sezgi» orqali bilish - qisman bi-lish, «mantiqiy» bilish – haqiqiy bilish». **Axmad Farg'oniy** (797-865) as-trolyabiya asbobini yaratdi, uning astronomiya darsligi bir necha asrlar davomida Yevropa mamlakatlarida asosiy qo'llanma sifatida o'qitildi, Nil daryosi misolida suv sarfini o'lchaydigan "nilomer" qurilmasini yasadi. **Abu Rayhon Beruniy** (973-1048) "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston", "Astronomiya va yulduzlar to'g'risida", "Minerologiya" kabi 150 dan ortiq asarlar yozdi, Yer o'lchamlarini hisobladi, Shimoliy yarim shar globusini yasadi, Amerika materigi mavjudligini nazariy bashorat qildi, Yer yuzasi, ya'ni hududlar juda uzoq davom qilgan tabiiy-tarixiy taraqqiyot mahsuli ekanligini qayd etib, joyning geografik kengligi va uzoqligini aniqlash usulini yaratdi, hududlarning geologik tarixi, tog'lar va tekislik-lar, ma'danlar va foydali qazilmalar, tog' jinslari va ularning yemirili-shi (nurashi), Orol dengizi va uning paydo bo'lishi, o'simlik va hayvonot olami, o'lik va tirik tabiat, odam va atrof-muhit, ularning o'zaro birligi va aloqadorligi haqidagi muhim qonuniyatlarni aniqladi. **Abu Ali ibn Sino** (980-1037) «Tadbir ul-manzil» («Turar joyning tuzilishi»), «Kitob ush-shifo» («Shifo kitobi»), «Kitob al-qonun fit-tibb» («Tib qonunlari») kabi tabiatshunoslik va tibbiyotga oid asarlar yaratdi, o'lkaga oid qiziqarli geografik ma'lumotlar to'pladi, uning asarlari XII asrdan boshlab Yevropa-da lotin va boshqa tillarga tarjima etildi va juda mashhur bo'ldi, hatto buyuk botanik olim K. Linney (1707-1778) uning sharafiga bir o'simlikni «Avitsennia» deb atadi. **Mahmud Koshg'ariy** (1030–1127) "Devonu lug'atit turk" kitobida yuzlab shahar, qishloq va o'lka nomlari, daryo, tog', yaylov, vodi, dara, yo'l, dovon, ko'l, soy kabi geografik atamalarni, turli qabila, urug' va elatlarni, shuningdek yulduzlar, sayyora va fasllarni tilga oldi, markazida Mavaraunnahr joylashgan Dunyo xaritasini tuzdi.

Qisqa qilib aytganda, bu davrda geografik bilimlarning to'planishi, yangi hududlarning kashf etilishi davom qildi, shu bilan birga, aksariyat fan tarmoqlari nomida o'zgarishlar, turli nomlanishlar sodir bo'lib turdi, biroq geografiyada



“logorafiya” (so‘z-belgili tavsiflash)” va “kartografiya”-ga (rasm-shaklli tavsiflash) ajralishga kuchli urinish bo‘lsa-da, u Buyuk geo-grafik kashfiyotlar davrining o‘rtalariga qadar o‘zgarmadi.

**4. Buyuk geografik kashfiyotlar davri** - XV-XVII asrlar Yer haqidagi bilimlarning rivojlanishi, yangi geografik ob'ektlar va qonuniyatlarning ochilishi bilan tavsiflanib, **Zahiriddin Muhammad Bobur** (1483-1550) “Boburnoma” asarini yozdi, unda Farg‘ona vodiysi va yondosh muzofotlar – hu-dudlardagi tog‘, tekislik, daryo, ko‘l, dengiz, o‘simlik va hayvonot dunyosi, iq-lim va aholi turmush tarzi bayon qilindi.

Rus sayyohi **Afanasiy Nikitin** (XV asr-1475) “Uch dengiz osha sayohat” kitobida Kaspiy, Arabiston va Qora dengiz bo‘ylab, Kavkaz, Eron, Hindis-ton va Qrimga uyushtirgan sayohati haqida hikoya qildi, nemis **Donis** geogra-fik atlas nashr qildi (1484 y.), **Xristofor Kolumb** (1451-1506) o‘zi bil-magan holda Hindistonda bo‘ldim deb, Amerikani yevropaliklar uchun kashf etdi (1492 y.). Shundan keyin Yevropadan Amerikaga “buyuk migratsiya” davri boshlandi.

**Vaska da Gama** (1460-1524) Afrikaning janubi orqali Hindistonga borishning dengiz yo‘lini ochdi (1497 y.), italiyalik **Amerigo Vespuchchi** (1454-1512) Braziliya sohillarini o‘rganib, bu quruqlik Hindiston emas, balki alohida materik, ya’ni Yangi dunyo (Amerika) ekanligini isbotladi (1501 y.), polyak **Yan Stobnichka** (? - 1530) Dunyo xaritasini G‘arbiy va Shar-qiy yarim sharga ajratdi (1512 y.), ispaniyalik **Nunes de Balboa** (1475-1519) Panama bo‘ynidan suzib o‘tdi (1513 y.), **Fernan Magellan** (1480-1521) Dunyo okeani bo‘ylab sayohat uyushtirib, Yerning shar shaklda ekanligini amal-da birinchi bo‘lib isbotladi (1519-1522 yy.), gollandiyalik **Gerard Merka-tor** (1512-1594) geografik atlas nashr qildi (1595 y.) va sh.k.

Qisqa qilib aytganda, bu davrda Yer haqidagi bilimlar rivojiga den-giz sayyohlari katta hissa qo‘shdi: Dunyo okeani bo‘ylab sayohat amalga oshiril-di, Amerika qit’asi ochildi va geografiya bilimlarning alohida sohasi si-fatida shakllana boshladi, chunki dengizda suzish va savdo-sotiqni rivoj-lantiruvchi kishilar hamda harbiylar, demakki, davlat hukmdorlari uchun geografiya eng zaruriy fanga aylandi.

**5. Ekspeditsiyalar davri** - XVII—XVIII asrlarda yangi yerlar va yo‘llar-ni ochish maqsadida katta ekspeditsiyalar tashkil etilishi bilan tavsiflana-di. Xususan, gollandiyalik **Villem Yanszon** (1570-1632) Avstraliyani kashf qildi (1605 y.), gollandiyalik **Abel Tasman** (1603-1659) Yangi Zelandiya, Tonga, Fiji va Tasman orollarini ochdi (1640-1644 yy.), niderlandiyalik **Bernard Vareniy** (1622-1650) birinchi bo‘lib “Umumiy geografiya” darsli-gini yozdi, rossiyalik **S.N. Dejnev** (1605-1673) Bering bo‘g‘ozidan suzib o‘tdi (1648 y.), rossiyalik **I.I. Bering** (1681-1741) va **A.I. Chirikov** (1703-1748) Shimoli-sharqiy Amerikani kashf qildi (1741 y.), **Jejms Kuk** (1728-1779) Dunyo okeanini o‘rganish uchun uch marta dunyo bo‘ylab ekspeditsiya uyushtirdi va Gavayi, Katta Marjon qoyalarini kashf etdi. Shuningdek,





Rossiyada **M.V. Lo-monosov** (1711-1765) rahbarligida Geografiya departamenti tashkil etildi va sh.k.

Qisqa qilib aytganda, bu davrda Yevropada geografiya universitet fa-niga aylandi, biroq dunyoviy maktablarda, gimnaziya va bilim yurtlarida o'quv fani sifatida keyinroq paydo bo'ldi. Jumladan, Moskva universite-tida geografiya fani 1757 yilda o'qitila boshlandi. Qizig'i shundaki, na Yev-ropada, na Rossiyada geografiya fani bo'yicha olimlar va o'qituvchilar maxsus tayyorlangan emas. Deyarli barcha universitetlarda geografiya *mutaxassislik* sifatida emas, balki *o'quv fani* sifatida paydo bo'lgan.

**6. XIX asr - XX asr boshidagi ilmiy ekspeditsiyalar va nazariy kash-fiyotlar** geografiyaning fan sifatida shakllanishi va rivojlanishida eng muhim davr bo'ldi. Xususan, rus tabiatshunosi, geograf **S. Krasheninnikov** (1711-1755) va rus tabiatshunosi, sayyoh **I. Lepyoxin** (1740-1802) asarlarida geografik ob'ekt, hodisa va jarayonlarga ilk bor ekologik yondashuv o'z aksi-ni topdi: o'simlik va hayvonlar ayrim hududiy guruhlarga ajratilib, ular-ning bir-biri hamda atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlari o'rganildi, hayvon va odam organizmiga tashqi muhit, iqlim va oziqlanish kabi omil-larning ta'siri ochib berildi.

Nemis geografi **Aleksandr fon Gumbold** (1769-1859) Amerika va Yev-rosiyoning aksariyat hududlari, xususan, Rossiyada tadqiqotlar olib borib, "Olam", "Tabiat manzaralari", "Markaziy Osiyo" kabi asarlar yozdi, o'simlik va hayvonlarning geografik tarqalishidagi zonallik va balandlik mintaqa-lanishi qonuniyatlarini ochdi, «O'simliklar ekologik geografiyasi», «Ta-biiy geografiya» va «Landshaftshunoslik» fanlarini birinchi bo'lib asosla-di va fanga «landshaft» terminini kiritdi.

Nemis geografi **Karl Ritter** (1779-1859) "Tabiatga nisbatan yer bili-mi va insoniyat tarixi" asarini yozib, unda tabiatning aholi (xalqlar) hayo-tiga ta'siri va jamiyatning tabiiy sharoitlarga moslashishi masalalarini ochib berdi, fransuz geografi **Elize Reklyu** (1830-1905) "Er va odamlar" asarida Yer sharining to'liq geografik tavsifini bayon qildi.

Rus tadqiqotchi sayyohlari **F.F. Bellinsgauzen** (1778-1852) va **M.P. Lazarev** (1788-1851) dunyo bo'ylab dengiz safarlarini uyushtirib (1819-1821 yy.), Antarktida materigini kashf qildi (1820 y.). 1845 yilda tuzilgan "Rus geografiya jamiyati" tashabbuskorlaridan biri **F.P. Litke** (1797-1882) ke-mada dunyo bo'ylab sayohatni amalga oshirdi (1826-1828 yy.), rus geografi **A. Middendorf** (1815-1984) Sibir va Taymirni tadqiq qildi (1842-1845 yy.), rus geografi **P.A. Kropotkin** (1842-1921) Sibirni o'rgandi (1863 y.).

Rus geograflari **P.P. Semyonov-Tyan-Shanskiy** (1827-1914) va **N.A. Se-versov** (1827-1885) Tyan-Shan tog' tizmalari va Turkistonda iqlim, tuproq va o'simliklarning tik zonalligi hamda qor chegarasi balandligini aniqla-di (1856-1857 yy.), rus geografi **A.P. Fedchenko** (1844-1873) O'rta Osiyoni tadqiq qildi (1869-1871 yy.). **N.M.**





**Prjevalskiy** (1839-1888) Markaziy Osiyo va Primore o'lkasiga to'rt marta ekspeditsiya uyushtirib, Kunlun tog' tizmasi, Shimoliy Tibet tizmasi, Lobnor va Kukunor ko'llari havzalari, Sariq daryo (Xuanxe) manshaini o'rgandi, yangi hayvonlarni (yovvoyi tuya, ot va boshqa sut emizuvchilar) aniqladi (1870-1888 yy.). Rus etnografi, sayyoh **N.N. Mikluxo-Maklay** (1846-1888) Janubi-sharqiy Osiyo, Avstraliya va Okea-niyaning yerli xalqlari va tabiatini o'rgandi (1871-1887 yy.), rus geografi **A.I. Voeykov** (1842-1916) iqlimni chuqur o'rganib, qishloq xo'jaligi meteorologiyasiga asos soldi, rus tuproqshunosi **V.V. Dokuchaev** (1846-1903) tuproqshunoslik va tuproqlar geografiyasi ilmiy maktabini yaratdi.

Daniyalik botanik **E. Varming** (1841-1924) «O'simliklar ekologik geo-grafiyasi» asarida (1895) birinchi marta o'simliklarga nisbatan «ekologiya» terminini qo'lladi, «hayotiy shakl» tushunchasini fanga kiritdi, nemis bota-nigi **A. Shimper** (1856-1901) «Fiziologiyaga asoslagan o'simliklar geogra-fiyasi» asarida (1898) ekologik fiziologiya asosida o'simliklarning geogra-fik tarqalishini asosladi, amerikalik ekolog **V. Shelford** (1877-1968) chi-damlilik qonunini (1911) ochib, biogeografiyaga «biom» tushunchasini ki-ritdi.

Rus zoologi **G. Kojevnikov** (1866-1933) rus botanigi **I. Borodin** (1847-1930) bilan birgalikda qo'riqlanadigan joylar, ularning dahlsizlik tamoyillarini ishlab chiqdi va tabiatni muhofaza qilish harakatiga asos soldi (1912 y.), rus tabiatshunosi, geolog **V. Vernadskiy** (1863-1945) bio-sfera haqidagi ta'limotni yaratdi (1926 y.).

Nemis geografi **K. Troll** (1899-1975) yangi yo'nalish – «Landshaftlar ekologiyasi»ga asos soldi (1939), rus geobotanigi **V. Sukachev** (1880-1967) «biogeotsenoz» tushunchasiga ta'rif berib (1940 y.), biogeotsenologiya fanini ilmiy asosladi (1942 y.), rus geobotanigi **L. Ramenskiy** (1884-1953) geogra-fik landshaftlar morfologiyasi haqidagi ta'limotni yaratdi va sh.k.

Qisqa qilib aytganda, bu davrda yangi yerlar ochilishi bilan birga chu-qur tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy geografik tadqiqotlar o'tkazildi. Nati-jada, V.P. Maksakovskiy ta'biricha, geografiya fanlarining “to'rt qavatli binosi”, ya'ni yaxlit tizimi vujudga kelgan:

“**1-qavat**” – geografiyaning nazariy mohiyatini tashkil etuvchi fanlar: geografiya tarixi; nazariy geografiya;

“**2-qavat**” – geografiyaning asosi, ya'ni “tanasi”ni tashkil etuvchi fan-lar: tabiiy geografik fanlar (tabiiy geografiya); ijtimoiy-iqtisodiy geo-grafik fanlar (ijtimoiy-iqtisodiy geografiya); xaritagrafiya; mintaqashu-noslik (mamlakatshunoslik);

“**3-qavat**” – geografiyaning tabaqalanishi, bo'linishi natijasida pay-do bo'lgan fanlar: umumiy tabiiy geografiya; mintaqaviy tabiiy geografiya; tabiiy geografik fanlar tarmog'i (geomorfologiya, iqlimshunoslik, gidro-logiya, okeanologiya, glyatsiologiya, geokriologiya, tuproqlar geografiyasi, bio-geografiya); iqtisodiy geografiya; ijtimoiy geografiya; ijtimoiy-iqtisodiy geografiya (odam geografiyasi); ijtimoiy-iqtisodiy



geografik fanlar tarmog'i (aholi geografiyasi, sanoat geografiyasi, qishloq xo'jaligi geografiyasi, transport geografiyasi, tabiiy resurslar geografiyasi, rekratsiya geografiyasi); geografik xaritagrafiya tarmoqlari (geologik xaritagrafiya, tup-roq xaritagrafiyasi, geobotanik xaritagrafiya, landshaft xaritagrafiyasi, ekologik xaritagrafiya, iqtisodiy xaritagrafiya, ijtimoiy xaritagrafiya); informatsion mintaqashunoslik; xususiy ilmiy mintaqashunoslik; mintaqashunoslik tarmoqlari (tabiiy geografik mintaqashunoslik, ijtimoiy geo-grafik mintaqashunoslik, majmuiy mintaqashunoslik, siyosiy-geografik mintaqashunoslik, tarixiy-geografik mintaqashunoslik, harbiy-geografik mintaqashunoslik, demografik mintaqashunoslik, etnik-konfessional mintaqashunoslik, tibbiy-geografik mintaqashunoslik);

**"4-qavat"** – geografiyaning boshqa fanlar bilan chegaradosh yoki tutashgan joyida paydo bo'lgan fanlar: siyosiy geografiya; elektoral geografiya; tarixiy geografiya; harbiy geografiya; etnogeografiya; madaniyat geografiyasi; tibbiy geografiya; geokimyoy; geofizika; geoekologiya; toponomika; o'lkashunoslik.

## 2. Geografiya ta'limi va metodikasining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari

Maktab geografiyasi, geografiya ta'limi va metodikasining rivojlanish tendensiyalarini tarixiy-pedagogik tahlil qilish o'tmishdagi tajribalarini umumlashtirishga, tanqidiy baholashga va kelgusi taraqqiyot istiqbollari bashorat qilishga imkon beradi. Shu nuqtai nazardan geografiya ta'limi va metodikasining shakllanish va rivojlanish tarixini geografiya fanining rivojlanish tendensiyalari bo'yicha shartli ravishda quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

**1-bosqich** – Eng qadimgi davr, Qadimgi Sharq va Antik dunyoda geografik bilimlarning to'planishi va geografiya ta'limining paydo bo'lishi (eng qadimgi davr – mil. avv. V asr);

**2-bosqich** - O'rta asrlarda geografiya ta'limining rivojlanishi (VIII-XIV asrlar);

**3-bosqich** - Buyuk geografik kashfiyotlar davrida geografiya ta'limining rivojlanishi va maktab geografiyasining shakllanishi (XV-XVII asrlar);

**4-bosqich** – Ilmiy ekspeditsiyalar va nazariy kashfiyotlar davrida geografiya ta'limi va maktab geografiyasining rivojlanishi (XVIII asr - XX asrning boshi);

**5-bosqich** – Sho'ro (sovet) tuzumi davrida maktab geografiyasi va geografiya ta'limi va metodikasining rivojlanishi (XX asrning boshi va oxiri);

**6-bosqich** – Mustaqil O'zbekistonda maktab geografiyasi, geografiya ta'limi va metodikasining rivojlanishi (XX asr oxiri – XXI asr boshi).

**Eng qadimgi davr, Qadimgi Sharq va Antik dunyoda geografik bilimlarning to'planishi va geografiya ta'limining paydo bo'lishi**, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, ibtidoiy jamoa davrida yashash joyini o'rganish ("ibtidoiy o'lkashunoslik"), shuningdek Qadimgi Sharq (miloddan avvalgi IV-I ming



yilliklardagi Qadimgi Misr, Mesopotamiya, Bobil, Ossuriya, Mi-diya, Fors, Hindiston, Xitoy) va Antik dunyoda (miloddan avvalgi I ming yillikda O'rta yer dengizi sohillarida shakllangan quldorlik davlatlari – qadimgi yunon va rimliklar) dastlabki *geografik bilimlarning* paydo bo'-lishi va avlod-dan-avlodga o'tkazilishi bilan bog'liq bo'lgan.

**Arxantroplar** – odamzodning ilk Homo habilis turiga mansub *zinjan-trop* (2,5-1 mln. yil oldin yashagan afrikalik), Homo erectus turiga mansub *fergantrop* (1,2 mln yil oldin yashagan farg'onalik), *pitekantrop* (700 ming yil oldin yashagan yavalik) va *sinantrop* (400 ming yil oldin yashagan pekinlik) va *geydelberg odam* (700-250 ming yil oldin yashagan yevropalik) odam evolyusiyasining birinchi bosqichi vakillari bo'lib, ular dunyoning tur-li hududlarida hayot kechirganlar.

**Paleoantroplar** – odam evolyusiyasining ikkinchi bosqichi vakillari bo'lib, Homo erectus odamdan Homo sapiens odamga o'tish davrida yashagan ki-shilar guruhidir. Boshqacha aytganda, paleoantroplar *gominoidlar* evolyu-siyasi yakunlangan, ya'ni Homo sapiens tur sifatida shakllangan davrgacha – mil. avv. 40-35 ming yillikka qadar yashagan Homo erectus va Homo neander-thalensis odamlardir. Paleoantroplar bundan 250-40 ming yil oldin Yevropa, Osiyo va Afrikada hayot kechirgan.

**Neoantroplar** – odam evolyusiyasi oxirgi bosqichida shimoli-sharqiy Afrika, G'arbiy va O'rta Osiyo hududlarida yashagan «ilg'or» paleoantroplar-dan 80-40 ming yil oldin (ayrim manbalarga ko'ra, 180-130 ming yil oldin) kelib chiqqan *aqli kromanon odam* – **Homo sapiens** turi va uning hozirgi avlodlaridir. Kromanon odamlarning nutqi yaxshi rivojlangan, ular g'or, yerto'la va chaylalarda yashagan, keyinchalik uy-joy qurishni o'rgangan, hayvon-larni ovlashda murakkab qurollar va usullardan foydalangan, uy hayvonla-rini (it, qo'y va sh.k.) asragan, tasviriy san'atni bilgan (toshlarga ov manza-ralari, hayvonlar va odamlar tasvirini ishlagan). Kromanon odamlar *yovvo-yi o'simliklar va hayvonlarni xonakilashtirib, odam evolyusiyasidagi eng katta yutuqqa erishgan. Bunga qadar qadimgi odamlar oziq-ovqat va kiyim-kechak topishda tabiatga butunlay qaram edi.*

Geografiya tarixidan ma'lumki, **Qadimgi Sharqda**, xususan, Mesopota-miya (Bobil) va Xitoyda dastlabki *geografik bilimlar* shakllangan: odam-ning xo'jalik faoliyati, xalqlarning turi hududlarga ko'chib joylashishi, ular o'rtasidagi to'xtovsiz urushlar – atrofdagi olam haqidagi bilimlar kengayishiga yordam bergan ilk omillar bo'lgan. Dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanish insoniyatni tabiiy hodisalar davriyligi bilan to'qnash-tirdi, masalan, sun'iy sug'orish zaruriyati daryolarning toshish davrlariga qarab belgilandi. Dastlabki *taqvimning* paydo bo'lish sababi ham aynan shu bilan shartlangan, ya'ni Mesopotamiyada birinchi bo'lib aylana - graduslarga, yil - 12 oyga, kun - 24 soatga bo'lingan. Odamlar o'zlari yashab turgan joyni aniqlashni, dunyo bo'ylab sayohatlarni davom ettirishni osonlashtirish uchun



qoyalarga o'yilgan va loytaxta xaritalar yaratganlar, ulardan amaliy faoli-yatda keng foydalangan.

Qadimgi Xorazmda mil. avv. VII asrda bitilgan «Avesto»da atrof-mu-hitning tarkibiy qismlari: olov, yer, suv va havo muqaddas hisoblangan, ularni ifloslantirish katta gunoh sanalgan, hatto murdalarni yerga ko'mish man qilingan. Misrliklar vaqtni va Nil daryosining toshishini yulduzlarga qarab aniqlash usulini kashf qilgan va mil. avv. V-IV asrlarda Afrika mar-kazidagi ko'llar, O'rta yer dengizi va Qizil dengiz bo'ylab ekspeditsiyalar tashkil qilgan. Finikiyaliklar Quyosh, Oy va yulduzlarga qarab mo'ljal olgan holda kemalarda Atlantika okeaniga chiqib, Kanar orollarini kashf etgan va Afrika materigini uch yilda aylanib chiqqan. *Xarappa* (Hind) *siviliza-siyasi vakillari* (Hozirgi Pokiston hududida) *mussonlarni aniqlagan. Qa-dimgi hindlarning muqaddas kitoblarida okeanlar, daryolar, tog'lar kabi geografik ob'ektlar o'z aksini topgan va h.k.*

Yozuvning ixtiro qilinishi - *shumer* xalqining olamshumul yutuqlari-dan biri bo'ldi. Shumerliklar insoniyat tarixida birinchi bo'lib, mil. avv. IV ming yillikda *piktografik yozuv* usulini ixtiro qildi. Va, nihoyat, aq-liy va jismoniy mehnat alohida faoliyat turi sifatida e'tirof qilinishi tufayli jamiyatda *muallimlik* (*o'qituvchilik*) kasbi paydo bo'ldi. Keyinchalik, qadimgi xitoyliklar Shan sulolasi davrida (mil. avv. II ming yillik o'rtalarida) o'ziga xos, mustaqil yozuv tizimi – *ieroglif yozuvini* yaratdi va ilk maktablar: *syau* va *syuy* paydo bo'ldi. Bu yozuv bir necha o'n ming belgi – ierogliflardan iborat bo'lgan.

Yozuvning paydo bo'lishi va taraqqiy etishi *ma'rifat* vujudga keli-shining asosiy omili sifatida insoniyat sivilizatsiyasiga ulkan ta'sir ko'r-satgan. Demak, *ta'lim-tarbiya* ijtimoiy faoliyatning alohida turi sifati-da aynan “Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi”da paydo bo'lgan. Bu davrda yozma o'l-kashunoslik bilimlarining to'planishi, ularning avlod-dan-avlodga o'tkazi-lishi tufayli *geografik ta'lim* unsurlari shakllana boshlagan. Natijada o'lkashunoslik ildam rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratilgan. Ayniq-sa, xaritalarning yaratilishi geografiya ilmi va ta'limining vujudga keli-shida eng muhim omil va insoniyatning aqliy taraqqiyotida eng muhim qadam bo'lgan.

**Antik dunyoda** geografik bilimlarning to'planishi va geografiya ta'limining paydo bo'lishi Qadimgi Yunonistonning mashhur mutafakkirlari bilan bog'liq bo'lgan. Ular qadimgi yunon aholisi tomonidan to'plangan geo-grafik bilimlarni umumlashtirgan va ko'paytirgan. Yunon olimlari atrof-dagi olamning paydo bo'lishi va tuzilishi haqidagi nazariyani yaratishga, o'z-lariga ma'lum bo'lgan mamlakatlarni chizma ko'rinishida tasvirlashga hara-kat qilganlar. Bunday izlanishlar natijasi Yerning shar shaklida ekanligi haqida tasavvur va uning ilmiy isboti (Aristotel, Fales), xaritalar va joy plani yaratilishi, geografik koordinatalarning aniqlanishi, parallel va





meridian tushunchalari, xaritagrafik proeksiyalarning muaomalaga kiri-tilishi hisoblanadi.

Geografik ma'lumotlar birinchi marta **Gerodot** tomonidan "To'qqiz kitobdagi tarix" asarida keltirilgan. Gerodot bu asarida O'rta yer dengizi mamlakatlarini ta'riflab, Yerning juda katta o'lchamga egaligi bilan bog'liq noma'lum hududlarga urg'u beradi. **Klavdiy Ptolomeyning** 8 jildli "Geografiya"sida 8000 dan ortiq geografik nomlar va deyarli 400 nuqtaning koordinatalari, shuningdek xaritalarni chizish usullari haqida ma'lumotlar berilgan. **Eratosfen Kirenskiy** Yerning aylanasini o'lchab, hajmini aniqlagan. **Strabon** 17-jildli "Geografiyasi"da dunyoning o'sha paytda yunonlarga ma'lum bo'lgan barcha qismlari haqida ma'lumotlar keltirgan bo'lib, u mamlakatshunoslik, geomorfologiya, paleogeografiya asoschisi sifatida nom qozongan. **Aristotel** ishlarida gidrologiya, meteorologiya, okeanologiya asoslari bayon qilingan va geografiya fanining tarmoqlari ko'rsatilgan. U Oy va Quyosh tutilishini kuzatib, Yer shar shaklida bo'lishi kerak, degan xulo-saga kelgan. Qadimgi yunonlar (Gerodot, Pifey) Kichik Osiyo, Bolqon yarim oroli, Sharqiy Yevropa tekisligi, Yevropa shimoli va Britaniya hududlarini kezib chiqqan mashhur sayyosatchilar sifatida ham tanilgan.

Umuman aytganda, bu davrda atrof-muhitning yashash joylariga taalluqli qismi *geografiya* deb nomlangan, geografik bilimlar jamiyat haqidagi bilimlarning ajralmas qismiga aylana boshlagan.

Ilmiy geografiya rivojlanib borgan sari geografiya ta'limining maz-muni kengayib, uning metodlari, vositalari va tashkiliy shakllarining xilma-xilligi ortib bordi. Xususan, VIII-IX asrlardan boshlab *arab xali-faligi* hududlarida islom dinini targ'ib qilish va boshqaruv ishiga layoqat-li odamlarni tayyorlashga katta ehtiyojlar paydo bo'lgan. Shu munosabat bi-lan xalifalikka qarashli Damashq, Bag'dod, Basra, Marv, Buxoro, Samarqand, Kat, Gurganj va Xivadan tortib to Andalusiyagacha bo'lgan shaharlarda ko'p-lab *madrasalar* tashkil etildi.

IX-X asrlarda Samarqandda 17 ta madrasa, shu jumladan, eng qadimiy Raboti G'oziyon madrasasi (Ulug'bek madrasasi 1424 yilda qurilgan), Buxoro-da Forjak madrasasi, Xorazmda Kat va Gurganj madrasalari faoliyat ko'r-satdi. 988 yilda Misrda Al-Azhar madrasai oliyasi (universiteti), 1004 yilda Xorazmda «Dor-ul hikmat val maorif» yoki «Majlisi ulamo» nomli yirik ilmiy markaz, dunyoga mashhur ilm-ma'rifat maskani – Ma'mun akade-miyasi faoliyat ko'rsata boshladi va ularda ilohiyot, falsafa, tarix, adabiyot, riyoziyot, falakiyot, handasa, mantiq, tibbiyot fanlari qatorida *jug'rofiya* ham o'rganildi. Yevropa mamlakatlarida universitetlar deyarli bir asr ke-yin, ya'ni, 1088 yilda Italiyada Bolonya universiteti, 1117 yilda Buyuk Britaniyada Oksford universiteti, 1180 yilda Fransiyada Sorbonna univer-siteti, 1218 yilda Ispaniyada Salamonka universiteti va nihoyat, 1636 yil-da AQShda Garvard kabi



universitetlar tashkil etilganki, ularda ham di-niy va dunyoviy fanlar qatori *tabiiyot, geografiya* ilmlari o'rganilgan.

X asrlardan boshlab asosan "**Turkiston**" deb yuritilgan O'rta Osiyoda-gi deyarli barcha shahar, qishloq va ovullarda *maktabxonalar* bo'lgan. "Tur-kiston" so'zi "turklar yurti (eli, o'lkasi, mamlakati)" degan ma'noni angla-tib, turk qavmlari, ya'ni hozirgi o'zbek, qoraqalpoq, turkman, qozok, qirg'iz, uyg'ur va boshqa turkiy millat va elatlarning ona Vatanidir. Turkiston Yev-rosiyo materigi yoki Osiyo qit'asida "Markaziy Osiyo" deb ataluvchi juda kat-ta hudud tarkibiga kirgan, uning g'arbi - "O'rta Osiyo" deb ataluvchi qismida joylashgan bo'lib, Xazar (Kasbiy) dengizi, Idil (Volga), Joyiq (O'rol) da-ryosidan Oltoy, Tangri tog'i (Tyan-Shan), Pomir tog' tizmalarining shimo-li-sharqiy qismiga qadar, Qozog'iston shimolidagi Turg'ay platosi, Ayirtov, Yettikapadan (Semipalatinskdan) to Xurosonga, ya'ni Kopetdog' va Hindiqush tizmalariga qadar davom etgan katta hududdir.

Manbalarga ko'ra, Turkiston hududidagi eng katta muzofotlaridan bi-ri - Buxoroda birinchi maktab 714 yilda Kutayba ibn Muslim tomonidan Buxoro arkidagi *zardushtiylar* ehromi o'rnida bunyod etildi. Dunyoga mashhur mutafakkirimiz **Abu Ali Ibn Sino** bolalarni maktabda o'qitish zarur, deb hisoblaydi va ta'limda quyidagi talablarga rioya etish kerakligini ta'kid-lagan: bolaga bilim berishda ularni birdaniga kitobga band qilib qo'yimas-lik; ta'limda yengildan murakkabga tomon harakatlanish; mashqlar bolalar-ning yoshiga mos bo'lishi; jamoa bo'lib o'qitish (o'qish); ta'limda bolalarning qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish; ta'limni jismoniy mashqlar bi-lan birgalikda qo'shib olib borish va sh.k.

Bu davrda Movarounnahr va Xorazmda yirik olimlar tarbiyalangan. Masalan, Ko'hna Urganch va Xiva madrasalarida tahsil olgan allomalar ora-sidan Sharqda ma'lum va mashhur bo'lgan Muhammad al-Xorazmiy, Abu Ray-hon Beruniy, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Abu Bakr al-Xorazmiy, Umar az-Zamaxshariy, Umar al-Chag'miniy, Shayx Najmiddin Kubro, Shayx Faxriddin ar-Roziy kabi mashhur qomusiy olim va mutafakkirlar yetishib chiqqanki, ularning asarlarida u yoki bu darajada *geografik* masalalar talqin etilgan.

XIII asr boshlaridagi mo'g'ullar bosqini, ularning Movarounnahr va Xorazmda bir yarim asrlik hukmronligi barcha sohalar kabi ta'lim-tarbiyaga ham katta salbiy ta'sir ko'rsatdi. Biroq *Temuriylar davrida* (XIV asrning ikkinchi yarmi - XV asr) Samarqandda astronomiya, tibbiyot, riyoziyot, falsafa, tarix kabi fanlar jadal rivojlandi, Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi, Qozizoda Rumiy kabi ko'plab olimlar yetishib chiqdi. **Mirzo Ulug'bek** zamonida ilm-fan yana yuksak cho'qqilarga ko'tarildi, tabiiy va aniq fanlar, jumladan, tibbiyot, matematika, *falakiyot, xaritashunoslik* chuqur rivojlandi, rasadxona qu-rildi va *jug'rofiya* muammolarini ham o'z ichiga olgan "Ziji jadidi Kura-goniy" asari yozilib, astronomiya maktabiga asos solindi.





*Temuriylar davridan* keyin asrlar davomida yagona xududda, bitta iq-tisodiy-madaniy makonda yashab kelgan xalq ikki davlatga bo'linib ketdi: 1511 yilda Xiva xonligi va 1557 yilda Buxoro xonligi vujudga keldi (Bu-xoro amirligidan 1710 yilda Qo'qon xonligi ajralib chiqqan va 1842 yilda yana amirlikka qo'shib olingan). Bu xonliklarning siyosiy-iqtisodiy, ijti-moiy-madaniy hayoti ko'p jihatdan bir-biriga o'xshasa-da, lekin o'ziga xos jihatlari ham bo'lgan. Masalan, Xorazmda XVI asr oxiri - XVII asr boshlarida masjid va madrasalar qurilishi, ta'lim-tarbiya sohasida jonlanish-lar kuzatilgan. Xivadagi Arab Muhammadxon, Sherg'ozixon, Olloqulixon, Muhammad Rahimxon soniy madrasalari *madrasai oliya* (universitet) maqomiga ega bo'ldi va ularning dovrug'i Buxoro, Samarqand, Qo'qon va Sharqning boshqa muzofotlarida ham ma'lum, mashhur edi. Xiva madrasalaridan Max-tumquli, Ajiniyoz, Berdaq, Ravnaq, Munis, Ogahiy, Komil Xorazmiy, Bayo-niy, Tabibiy va sh.k. o'z davrining yetuk allomalari yetishib chiqdi, biroq maktab va madrasalarda atrof-muhit va jamiyatga oid tushunchalar berilsa-da, dunyoviy ilmlar, shu jumladan, *jo'g'rofiya* alohida o'quv fani sifatida o'rganilmagan. Qisqasi, XVII asrdan boshlab Turkistondagi maktab va madrasalar jahon taraqqiyotidan deyarli uzila boshlagan.

*Yevropa maktablarida* esa XVII asr boshlarida fanga asoslangan dunyo-viy ta'lim tizimini ishlab chiqishga harakatlar boshlandi. Bu borada che-xiyalik mashhur pedagog **Ya.A.Komenskiy** (1592-1670) ishlari diqqatga sazovar bo'ldi. U dastlabki ta'lim "standart"larini, ya'ni sinf-dars tizimi, o'quv fanlari, darsliklar, o'quv yili, o'qituvchiga qo'yilgan talablar va shu kabilarni ishlab chiqdi, ta'limning tabiatga muvofiqligi tamoyilini ilgari surdi, "Buyuk didaktika" (1657 y.) asari, shuningdek tabiat va inson haqidagi ilmiy bilimlar majmuidan iborat *geografik* mazmundagi "Rasmlar-da ko'ringan olam" (1658 y.) o'quv kitobini yozdi va maktab dasturiga alohida "*geografiya*" o'quv fanini kiritdi.

XVII asr o'rtalariga qadar G'arbiy Yevropa maktablarida geografiya alohida fan sifatida o'rganilmagan, geografik ma'lumotlar odatda *davlatshu-noslik* kurslari mazmunida berilgan. Geografiyani o'qitish XVII asrning ikkinchi yarmida, ayniqsa XVIII asrning birinchi yarmida keng joriy etildi.

Rossiyada XVIII asr boshlarida kapitalizmning rivojlanishi munosabati bilan *geografik bilimlarga* ega bo'lgan kishilarga ehtiyoj paydo bo'ldi. *Siyosiy geografik* ma'lumotlar o'rganiladigan dunyoviy Matematika va navi-gatsiya fanlari maktablari vujudga keldi (1701 y.), Moskvada 1703 yilda *matematik geografiya* ma'lumotlari o'rganiladigan E.Glyuka gimnaziyasi ochildi. Keyinchalik geografiya mustaqil fan sifatida o'qitildi. Yangi maktablar tez ko'paydi, o'quv va boshqa kitoblar chop etildi. Geografiya tarix bilan birga o'rganildi. Dastlabki darsliklar tarjima bo'lgan va ular geografiya fanining rivojlanish darajasini aks ettirmagan.



### 3. Rossiya va Turkistonda maktab geografiyasi hamda geografiya ta'limi metodikasining rivojlanish bosqichlari

Rossiyada maktab geografiyasi ta'limi G'arbiy Yevropaga nisbatan kech boshlandi. Shu sababli dastlabki geografiya darsliklari tarjima qilingan. Birinchi tarjima qilingan darslik 1710 yilda «Geografiya, ili Kratkoe zemnogo kruga opisaniye» / «Geografiya yoki Yer aylanasining qisqa tavsifi» nomi bilan nashr etildi. Bu darslik juda oddiy bo'lib, unda gradus to'ri, ba'zi statistik hamda tabiiy geografiyaga oid ozgina ma'lumotlar bo'lgan.

Rossiyada XVIII asrning birinchi yarmi geografiya fanining jadal ri-vojlaniishi bilan ajralib turdi. Bu **M.V. Lomonosov** tuzgan *geografiya de-partamenti* faoliyati bilan bog'liq edi. **I.K. Kirillov** tomonidan Rossiya-ning birinchi geografik atlas va boshqa ko'p sonli xaritalar nashr qilin-di. Geografiya bo'yicha rus tilida yozilgan birinchi darslikni tayyorlash im-koni vujudga keldi va u 1742 yilda "Geografiya uchun qo'llanma" nomi osti-da nashr qilindi. **V.F. Zuev** (1754-1794) bir necha o'n yillardan keyin, ya'ni 1786 yilda «Tabiat tarixining ko'rinishi» (Nachertanie yestestvennoy istorii) nomli darslik nashr qilib, unda tabiatni o'rganish izchilligi: qazil-malar dunyosi (jonsiz tabiat), o'simliklar dunyosi (botanika), hayvonot dunyo-si (zoologiya) ko'rsatib berildi. Bu darslik keyinchalik *tabiiyot* o'quv fani-ga asos bo'ldi va ta'limda *o'lkashunoslik* tamoyilining o'rnini belgilab berdi..

Rossiyada XVIII asrning ikkinchi yarmida tovar ishlab chiqarish ko'paydi va yirik manufakturalar, pomeshchik xo'jaliklari paydo bo'ldi, bozor va sav-do rivojlandi. Ko'p sonli savodli odamlar kerak bo'ldi. Shu sababli omma-viy maktablar – *xalq bilim yurtlari* ochildi. Kichik (ikki yillik boshlan-g'ich) va bosh xalq bilim yurtlari (besh yillik) vujudga keldi. Bosh halq bilim yurtlarining yuqori sinflarida: 3-sinfda - umumiy geografiya, 4-sinfda - *Rossiya geografiyasi* o'rganildi. Metodik tavsiyalari berilgan yangi darsliklar nashr qilindi va doskaga *yozuvsiz xaritalar* chizildi: o'quvchilar-dan biri darslikdagi matnni o'qiydi, ikkinchisi esa o'qituvchining ko'rsat-masi bo'yicha doskadagi yozuvsiz xaritada tegishli ob'ektlarni belgilaydi. Maktablarda geografiya darsligi shu tarzda o'rganilgan. O'qituvchi darslik matnini qo'shimcha ma'lumotlar bilan to'ldirgan va tushuntirgan. Umumiy geografiyani o'rganish uchun *kichik atlas* ham nashr qilingan.

XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida *iqtisodiy geografik* ma'lumot-lar va *statistikaga* katta e'tibor berildi. Bunga 1845 yilda tashkil etil-gan Rus Geografiya jamiyati katta ta'sir ko'rsatdi va turli ko'lamli *umum-geografik, statistik tadqiqotlar* amalga oshirildi. Hatto maktablarga ham *statistika* kursi kiritildi va mazkur kurs uchun K.A. Arsenevning "Rossiya davlati statistikasiga chizg'ilar" darsligi nashr etildi. Buni *iq-tisodiy geografiya ta'limining* boshlanishi sifatida izohlash mumkin.

1828 yilda joriy etilgan yetti yillik *gimnaziyalarning* 3-7-sinflari-da haftasiga 14 soat geografiya o'qitilgan. Geografiya kursi 3-sinfda *mate-matik geografiya* va Yer



haqidagi asosiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan *umu-miy geografiyani* o'rganish bilan boshlangan, 4-sinfda *umumiy geografiyani* o'rganish davom ettirilgan – *ayrim mamlakatlar* tavsifi o'rganilgan, 5-sinfda – *Rossiya geografiyasi* o'qitilgan, 6-7-sinflarda – “*Umumiy va Rossiya statistikasi*” (iqtisodiy geografiya) o'rganilgan. Keyinchalik gimnaziya-larning o'quv rejasidan statistika chiqarib tashlangan.

Maktablarda geografiyaning o'qitilishi o'qituvchilar tayyorlashni taqo-zo qildi. XIX asr boshida Peterburgdagi Bosh pedagogika institutida geo-grafiya va tarix o'qituvchilarini tayyorlash uchun *geografiya va statistika* kafedrasi tashkil etildi. Kafedrani professor **Ye.F. Zyablovskiy** boshqar-gan. U universitetda o'qitiladigan “*Rossiya geografiyasi*” o'quv kursini bi-rinchi bo'lib ishlab chiqqan. Biroq XIX asr oxirida bu tizim buzilgan: sta-tistika kursi bekor qilinib, geografiyani o'rganishga ajratilgan soat qis-qartirilgan.

Maktablardagi geografiya darslari asosan o'quv materialini yodlashga asoslangan hamda quyi sinflarda **I. Geym**, o'rta sinflarda **A. Obodovskiy** darsliklari bo'yicha o'qitilgan, biroq ular qiyin, tushunarsiz yozilganligi uchun **V.G. Belinskiy** (1811-1848), **N.A. Dobrolyubov** (1836-1861) kabi mash-hur adiblar tomonidan qattiq tanqidga uchradi.

O'sha paytda **N.V. Gogol** (1809-1852) geograf bo'lmasa ham gimnaziyada geografiyadan dars berdi va geografiyaning o'quv fani sifatida ma'rifiy-tarbiyaviy ahamiyatini yanada oshirish uchun quyidagi metodik g'oyalarni il-gari surdi:

- 1) geografiyani o'quvchilarning yosh xususiyatlariga muvofiq o'qitish;
- 2) geografik materiallar bayonini xarita bilan bog'lash;
- 3) geografik ob'ektlarni nafaqat xaritada ko'rsatish, balki ularni tavsiflash;
- 4) materialni bayon etishda tabiat va aholi faoliyati o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga e'tiborni qaratish;
- 5) o'qituvchi doimo bayon etish usulida ishlashi kerak va sh.k.

Rossiyada krepostnoy huquq bekor qilinganidan keyin xalq ta'limi jiddiy masalaga aylandi. Rus pedagogikasi va ta'lim metodikasining il-miy asoslarini yaratgan **K.D. Ushinskiy** (1823-1871) faoliyati shu vaqtga to'g'ri keldi. U maktablardagi quruq yodlashga qarshi chiqib, rivojlantiruvchi ta'lim g'oyasini ilgari surdi. K.D. Ushinskiy Germaniya, Shveysariya va shu kabi davlatlarda asosan o'z mamlakati geografiyasi o'qitilishi tahlil qilib, Rossiya maktablarida geografiya ta'limi ayanchli ahvolda ekanligini qayd et-di. Shuningdek, u Rossiya geografiya jamiyati geografiya fanlari taraqqiyoti uchun ko'p ishlarni amalga oshirganligi, ammo maktab geografiyasi uchun amal-da hech nima qilmaganligi, hatto qanoatlansa bo'ladigan birorta darslik ham yo'qligini ta'kidlaydi.

K.D. Ushinskiyning fikricha, Vatan geografiyasini bilmaslik jamiyat-ga faqat zarar keltiradi, ta'limdagi qoloqlik kambag'allikka olib keladi va shu sababli rus



maktabida rus tili, rus tarixi va **geografiya** asosiy o'quv fanlari bo'lishi va boshqa barcha fanlar ular atrofida guruhlanishi kerak.

K.D. Ushinskiy g'oyalarini geografiya o'qituvchisi D.D. Semyonov amaliyotga joriy etdi. O'sha paytda o'quvchilarning sinfdan tashqariga chiqishi nooda-tiy bo'lgan, biroq u geografiya o'qitishni Peterburg atrofini o'rganishdan boshlaydi. D.D. Semyonovning o'zi vatanshunoslik tamoyiliga asoslanib, geo-grafiya bo'yicha quyidagi o'quv qo'llanmalarni tayyorlaydi: quyi sinflar uchun – “Geografiya darslari”, yuqori sinflar uchun – “Vatanshunoslik”. Shu bilan birga, u geografiya ta'limining ilk metodikasini, ya'ni “O'qituvchilar uchun pedagogik eslatmalar” kitobini yozdi (1864 y.) va unda geografiya o'qitish me-todlari, “Vatanshunoslik” kursining tuzilishi va undan foydalanish meto-dikasi haqida fikr yuritadi.

Kuzatishlar, tajribalar va ekskursiyalardan foydalangan holda bosh-lang'ich sinflarda **tabiiyot** kursini o'qitish tizimini **A.Ya. Gerd** (1841-1888) asoslab berdi va u jonsiz tabiatni o'rganish metodikasini ishlab chiq-di. U «Tabiatshunoslik qisqa kursi» nomli darslik, shuningdek «Er, havo, suv» nomli o'quv qo'llanma va ularni o'qitishga oid «Boshlang'ich maktabda ko'rgazmali darslar» nomli metodik qo'llanma yozdi (1883 y.). Bu kitob uzoq yillar davomida jonsiz tabiatni o'rganish bo'yicha asosiy qo'llanma bo'lib xizmat qildi.

Moskva universitetida geografiya kafedrasini tashkil etilgan (1804 y.) bo'lsa-da, geograf mutaxassis tayyorlovchi geografiya fakulteti oradan 80 yil o'tib (1884 y.) rus geografi **D.N.Anuchin** (1843-1923) tomonidan tashkil etildi va u Rossiyada birinchi geografiya professori bo'ldi.

Rossiyada maktab geografiyasining bundan keyingi taraqqiyoti, yuqori-da ta'kidlaganimizdek, Moskva universitetida professor **D.N. Anuchin** boshqargan geografiya kafedrasini va fakultetini ochilishi bilan bog'liq bo'ldi. D.N.Anuchin - rus oliy geografiya ta'limi asoschisi.

XX asr boshlarida aksariyat maktablarning 1-sinfida – “Boshlang'ich geografiya” (umumiy tabiiy geografik bilimlar), 2-sinfida – “Noevropa mamlakatlari geografiyasi”, 3-sinfida – “Evropa geografiyasi”, 4-sinfida – “Rossiya geografiyasi”, 5-6-sinflarda – “Rossiya tijorat geografiyasi va du-nyoning yirik davlatlari” (ba'zan bu kurs “Qiyosiy geografiya”, “Vatanshu-noslik” deb ham nomlangan) o'qitildi. 1915 yilda yangi o'quv rejasi va das-turlariga muvofiq geografiya darslari soni haftasiga 16 soatni tashkil qildi, biroq ular faqat Sankt-Peterburg va Moskva gimnaziyalarida joriy etilgan. Bu davrda peterburglik o'qituvchi G.I. Ivanov va professor E.F. Lesgaftning darsliklari, shuningdek E.Yu. Petri va V.P. Budanovning xo-rijiy va Rossiya maktablarida geografiya o'qitish tajribalari aks etgan me-todik asarlari chop etildi. Ular sovet davrida ham qayta nashr etilgan.

XVIII asr o'rtalaridan Rusiya va Xitoy “iskanjasi”ga tushgan **Turkis-ton** muzofotining shimoli-g'arbiy va sharqiy qismlari ular tomonidan ish-g'ol etila





boshlandi. 1865 yilga qadar O'rol daryosidan Orol-Balxash-Issiq-ko'l atroflari va Toshkentga yaqin hududlar ruslar tomonidan ishg'ol etilib "Turkiston viloyati", sharqiy Turkiston esa xitoyliklar tomonidan ishg'ol etilib, "Chinjand" viloyati tashkil etilgan.

Bu davrda, ya'ni XIX asr boshlarida *Turkistonda* ta'lim ikki bosqich-dan iborat bo'lgan: quyi bosqich – boshlang'ich *maktab*; yuqori bosqich – *madra-sa*. Ushbu ta'lim muassasalari ayrim shaxslar mablag'lari va vaqf mulklari hisobiga faoliyat ko'rsatdi. "Maktab" (arabcha "kataba") so'zi yozishga o'rgati-ladigan joy ma'nosini anglatadi. Maktab ko'pincha bitta sinf xonasidan iborat bo'lganligi uchun ko'pincha "maktabxona" deyilgan. Bolalar bo'yra yoki gilam (to'shak, sholcha) ustida o'tirishgan. Islom qoidalariga muvofiq o'g'il va qiz bolalar alohida o'qitilgan. O'g'il bolalar asosan masjid va madrasa-lar qoshidagi yoki xususiy maktabxonalarda masjid imomi, muazzini yoki madrasani tugatgan kishilar – *muallimlar* tomonidan, qiz bolalar esa *otin ayollar* tomonidan ularning uylarida yoki xususiy maktabxonalarda o'qitilgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshida to'liq Rossiya mustamlakasiga aylangan Turkiston o'lkasida "rus-tuzem" maktablari tashkil qilinib, bu maktablar-ning 3-, 4-sinflarida haftasiga 4 soat geografiya darsi nemis olimi A.Gey-kiyning "Er xususidagi ilmdan olingan so'zlar" kitobi asosida o'qitildi. Bu davrda rus mustamlakasidan qutulish, o'z milliy davlatini tuzish va xalqqa ziyo tarqatish borasida *jadidchilik* harakati va maktablari yuzaga keldi. Bu maktablar xalq orasida «usuli savtiya», ya'ni «tovush usul» nomi bilan shuhrat qozondi. "Jadid" arabcha so'z bo'lib, "yangi" degan ma'noni bil-diradi. Jadidchilik harakatining asoschisi qrimlik Ismoilbek Gasprali (1851-1914) bo'lgan. Ismoilbek g'oyalarini qabul qilgan yangilik tarafdorla-ri «jadidlar», uning g'oyalari esa «jadidchilik» nomini olgan.

Buxoroda 1893-1895 yillardan boshlab jadid maktablari ochilishiga tayyorgarlik boshlangan. Andijonda Shamsuddin domla (1899 y.), Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov (1900 y.), Samarqandda Abduqodir Shakuriy (1900 y.), Qo'qonda Salohiddin domla (1901 y.) birinchi bo'lib, jadid makta-bini ochdilar. Jadidchilik xarakatining yirik namoyandalari maktablar uchun darsliklar ham yaratdi. Manbalarga ko'ra, 1908 yilda Buxoroda Nizom Sobitovning «Muzaffariya» nomli yangi usul maktabida tatar va mahalliy bolalar yosh xususiyatlariga qarab sinflarga ajratilgan, bir kunda 5 soat dars o'tilgan, har bir darsdan so'ng 10 daqiqalik tanaffus joriy etilgan. Bolalar *jo'g'rofiya* darslarida ko'rsatmali qurollar, globus va xaritalardan foydalanib o'qitilgan.

Shu bilan birga, yangi usul maktablariga qarshi kuchlar ham bo'ldi va ular bolalarning partalarda o'tirib, arifmetika, *tabiatshunoslik*, *geogra-fiya* kabi fanlarni o'rganishini "musulmonchilikka zid" deb hisobladilar, bu fanlarning o'qitilishini qoraladilar. Shunga qaramay, jadid maktabla-ri jadal rivojlanib, *tabiatshunoslik* (qattiq



jismlar, gaz va havo, issiq va sovuq, hatto mineralogiya va anatomiya, kimyo va fizika asoslariga oid bi-limlar) va **geografiya asoslari** o'qitilgan. Bu davrda yangi usul maktablari uchun geografiya bo'yicha bir qator darslik va qo'llanmalar, xaritalar nashr etildi. Maxmudxo'ja Behbudiyning "Qisqacha umumiy geografiya" (1902 y.) va "Aholi geografiyasiga kirish" (1909 y.), Fotih Karimning "Geografiya" (1909 y.), A. Kruber, S. Grigorev, A. Barkov, S. Chefranovning "Boshlanma jo'g'rofiya" (1913 y., rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan), Munavvar Qori Abdurashidxon o'g'lining "Er yuzi" (1915 y.) kabi darslik va qo'llanmalar, shuningdek Hoji Yusuf Hay'atiy (1842-1924) tomonidan 1890-yillarda yasalgan bir necha geografik globuslar va "Turkiston va unga qo'shni mamla-katlar kartasi" (1905 y.) shular sirasiga kiradi.

**Rossiyada sovet (sho'ro) hokimiyati davrida** maktab geografiyasi o'ziga xos tarzda rivojlandi. 1917 yilgi Oktyabr inqilobi sotsialistik ta'lim tizimini rivojlantirish uchun sharoitlar yaratdi va maktab ta'limining maqsadi, vazifalari tubdan o'zgardi. 1918 yilda "Yagona mehnat maktabi to'g'risida" nizom va deklaratsiya e'lon qilindi. Ular sotsialistik ta'lim tizimi tamoyillarini qonuniy belgilab berdi. Jumladan, boshlang'ich va o'rta maktablarda **tabiiyot** asosiy o'quv predmetlaridan biriga aylandi. Bunda V.A. Gerdning tabiiyotni boshlang'ich maktabda alohida o'quv fani sifatida o'qitish zarurligi haqidagi g'oyaga tayanildi. Xususan, 1919 yilda **tabiiyot** bo'yicha namunaviy dastur tuzildi va tasdiqlandi. Unda ekskursiya va amaliy ishlarga katta e'tibor berildi. 1923 yilda boshlang'ich sinflar uchun *kom-pleks dasturlar* joriy etildi va barcha o'quv materiallari "Tabiat", "Mehnat", "Jamiyat" degan bo'limlarga ajratilib o'qitish boshlandi.

**Sovet hokimiyati davrida O'zbekistonda** ham tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Oktyabr inqilobi ta'sirida 1917 yil noyabrda Qo'qonda o'lkadagi ilk demokratik davlat – Turkiston muxtoriyati tuzildi, ammo 1918 yilning 18 fevralida bolsheviklar tomonidan yo'q qilindi. Shu yilda RSFSR tarkibida Turkiston Muxtor Sovet Respublikasi, 1920 yilda Xorazm va Buxoro Xalq Sovet Respublikalari tuzildi. 1923 yilda Xorazm, 1924 yilda Buxoro Xalq Sovet Sotsialistik Respublikalari tashkil topdi. 1925 yilda O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi (O'zSSR) tashkil etilishi munosabati bilan Turkiston ASSR, XXSSR va BXSSR tugatildi.

1917 yilda Turkistonda rus-tuzem va boshqa turdagi maktablarni milliy maktablarga almashtirish boshlandi. Milliy maktablar quyi, o'rta va yuqori bosqichlarga bo'lindi. Boshlang'ich ta'lim majburiy, bepul va olti yillik qilib belgilandi. Bu maktablarda islom ta'limoti asoslari, ona tili, rus tili, arifmetika, tarix, *tabiatshunoslik*, *geografiya* (umumiy va rus geografiyasi) o'rganildi.

**O'zbek sovet maktablari** 1918 yildan tashkil etila boshlandi. Bu maktablar o'quv rejasi va dasturlar asosida ishladi. O'zbek va rus tili, arifmetika, *geografiya*, *tabiatshunoslik*, mehnat, ashula, gimnastika kabi fanlar o'rganildi. Maktablar uchun o'qituvchilar tayyorlash qisqa muddatli kurslar orqali yo'lga qo'yildi. Samarqand va





Toshkentda maktab o'qituvchilarini tayyorlash kurslari ochildi. 1918 yilda Toshkentda musulmon o'qituvchilar instituti ish boshladi, ayni paytda maktablar dindan ajratildi (islom asoslarini o'rganish ta'qiqlandi). Maktablarda mehnat va kasb ta'limiga e'tibor qaratila boshlandi. Shuningdek, Toshkentda Turkiston xalq universiteti va Turkiston sharq universiteti tashkil etildi, ularda Turkiston, Afg'oniston va Hindiston geografiyasi o'rganildi. 1919 yilda sovet maktabi uchun o'zbek tilida dastlabki "Boshlang'ich geografiya", geografiya, tarix fan-lari uchun "Turkiston", T.N. Qori-Niyoziyning "Tabiatning parchasi" (ta-biatshunoslik uchun) kabi qo'llanmalar chop etildi, shuningdek maktablarda o'quv-metodik ishlar sekin-asta yo'lga qo'yila boshlandi.

Xorazmda yangi tipdagi boshlang'ich umumta'lim maktablari 1920 yildan tashkil etildi. Bu davrda Xorazmda mavjud bo'lgan 1500 ga yaqin eski maktab va 130 ta madrasaning o'quv dasturlariga o'zgartirishlar kiritilib, dunyoviy fanlar, shu jumladan, *jo'g'rofiya* o'qitildi. Biroq o'qituvchilar tay-yorlash kursini bitirib chiqqan muallimlar bolalarni faqat o'qish va yozishga o'rgata olgan, xolos. Shu bois geografiya o'qituvchilariga katta ehtiyoj bo'lgan. 1921 yilda Xivada xalq universiteti, 1923 yilda pedagogika texnikumi ochildi. Oliy ma'lumotli pedagog kadrlarga ehtiyoj kattaligi tufayli xo-razmlik o'quvchi-yoshlar Toshkent, Moskva, Qozon, Orenburg kabi shaharlarga o'qishga yuborildi. Buxoroda ham yangi tipdagi maktablar 1920 yilda tashkil etildi. 1921 yilda A. Fitrat tashabbusi bilan 50 nafar buxorolik Germa-niyaga o'qishga yuborildi, biroq ularning taqdiri fojiali yakunlandi. 1922 yilda Buxoro dorilfununi va ikkita o'qituvchilar instituti tashkil etildi.

1920 yilda Toshkentda xalq maorifi instituti, ta'lim rus tilida olib borilgan Oliy pedagogika instituti hamda Turkiston xalq universiteti negizida Turkiston davlat universiteti (keyinchalik O'rta Osiyo, Tosh-kent davlat universiteti, hozirgi O'zMU) tashkil etilib, unda dastlabki "Turkiston geografiyasi" kafedrası faoliyat ko'rsata boshladi. 1920 yillar-ning ikkinchi yarmidan Turkiston, shu jumladan, O'zbekiston tabiiy boylik-lari, iqlim va tuproq xususiyatlari, hayvonot va o'simlik dunyosi keng o'rga-nila boshlandi. Biroq 1924 yildan "Turkiston" so'zi muomaladan chiqari-lib, "O'rta Osiyo" termini keng iste'molga kirdi. Bu davrda O'zbekistonda D. Kashkarov (1878-1941) va Ye. Korovin (1891-1963) O'rta Osiyo davlat uni-versiteti (hozirgi O'zMU) bazasida **ekologiya-geografiya** ilmiy maktabini yaratdi. D. Kashkarov tabiatni muhofaza qilish, qo'riqxonalar tashkil etish (1930 y.) va Turkiston o'lkasida sayg'oqlarni qirilib ketishdan himoya qi-lish kabi tashabbuslar (1931 y.) bilan chiqdi. D. Kashkarov va Ye. Korovin to-monidan «Muhit va uyushma» (1933 y.), «Cho'l hayoti: ekologiya va cho'lni o'zlash-tirishga kirish» (1936 y.) kabi ilk mahalliy darslik va ilmiy asarlar chop etildi. Bu o'zgarishlar asosan geografiya ilmini rivojlantirish va geogra-fiya o'qituvchilarini sifatli tayyorlashga yo'naltirilgan edi.



Geografiya bo'yicha o'quv dasturlarini ishlab chiqish 1921 yildan boshlandi. D.N. Anuchin boshchiligidagi komissiya uchinchi sinfdan to'qqizinchi sinfgacha maktab geografiyasi kurslarining qu-yidagi izchil tizimini taklif qildi:

1) 3-4-sinflarda "Vatanshunoslik", ya'ni o'z qishlog'i, shahri, uyezdi, guberniyasini o'rganish va mamlakat turli qismlari tabiatining manzaralari va odamlari hayotini umumlashtira olish ko'nikmasini shakllantirish nazar-da tutildi;

2) 5-8-sinflarda dunyo qit'alari va mamlakat tabiiy geografiyasini, shuningdek Rossiya va dunyoning eng muhim mamlakatlari iqtisodiy geografiyasini o'qitish rejalashtirildi:

3) 9-sinfda Yer sayyorasi astronomik va meteorologik bilimlar bilan birgalikda o'rganish joriy etildi.

Geografiya bo'yicha yangi o'quv dasturida nafaqat dars soatlari, balki kurs hajmi ham ko'paydi, ta'limda izohlash-tushuntirishga asosiy e'tibor qaratildi. Biroq namuna sifatida tavsiya etilgan ushbu dasturni bajarish majburiy bo'lmaganligi uchun bir necha poytaxt maktablarida joriy etilgan, xolos. Ommaviy maktablarda esa geografiya mahalliy xalq ta'limi organlari tomonidan tuzilgan dasturlar asosida o'qitilgan.

1923-24 yillarda ta'limning **kompleks** tizimi joriy etildi. Bu GUS / DIK (Davlat ilmiy kengashi) dasturlari deb nomlandi. Boshlang'ich maktab-da alohida o'quv fanlaridan dars berish bekor qilindi, o'rta maktabda o'quv fanlarining mustaqilligi yo'qoldi. Maktab ta'limi uchta katta majmuiy mavzu: "Tabiat", "Mehnat" va "Jamiyat"ga ajratildi. 3-4-sinflarning geo-grafik materiallari *majmuiy mavzularga*, 5-9-sinflarning geografik materiallari esa mos ravishda *tabiatshunoslik* va *jamiyatshunoslik* kurslariga kiritildi. Geografiya alohida o'quv fani sifatida tugatildi (olib tashlandi) va ta'limning bunday tizimi natijasida o'quvchilar barcha o'quv fanlari, shu jumladan, *geografiya* bo'yicha ham tizimlashgan bilimlarga ega bo'lmay qoldi. Bu sovet maktabi ta'limidagi eng muvaffaqiyatsiz tajriba bo'ldi. Shu sababli geografiya 1927 yilda 5-7-sinflarda, 1932 yilda 8-sinf-da mustaqil o'quv fani sifatida qayta tiklandi. Bu davrda O'zbekistonda A.Geykinning "Tabiiy jo'g'rofiya" (1925 y., xorijiy tildan tarjima), N. Ba-lashevning "O'zbekiston va unga qo'shni jumhuriyatlar va viloyatlar" (1925 y.), G.I. Ivanovning "Boshlang'ich jo'g'rofiya" (1927 y., rus tilidan qayta ishlangan tarjima) kabi qo'llanmalar nashr etildi. 1927-1929 yillarda birinchi bosqich maktablar uchun o'lkashunoslik darsliklari: «Yosh turkistonlik», «Bizning o'lka», «Tabiiyot bo'yicha o'qish kitobi» va boshqa mahalliy qo'llanmalar nashr qilindi.

1927 yilda Samarqand oliy pedagogika instituti (keyinchalik Samarqand davlat pedagogika instituti) tashkil etilib, unda tabiatshunoslik fa-kulteti faoliyat ko'rsata boshladi. Aynan shu yili maktab ta'limida **geo-grafiya** alohida o'quv fani sifatida qayta



joriy etildi. Geografiya alohida fan sifatida o'qitilishiga qaramay, maktab o'quvchilari kerakli geografik ma'lumotlarga ega bo'lmagan.

O'zbekistonda 1928 yilda eski usul mak-tablari butkul tugatildi va majburiy boshlang'ich, yetti yillik (to'liqsiz o'rta) va o'rta maktablar faoliyatini yo'lga qo'yishga kirishildi.

Maktab geografiyasi taraqqiyotidagi yangi bosqich 1934 yilda boshlan-di. "Boshlang'ich va o'rta maktablarda geografiya o'qitilishi to'g'risida" qaror qabul qilinib, maktab o'quv rejasida geografiyaning tutgan o'rni tubdan o'z-gardi. Shu vaqtdan boshlab geografiyaning o'quv fani sifatidagi mazmunini takomillashtirish davri boshlandi.

Qarorga muvofiq, geografiyani o'rganish 3-9 sinflarda joriy etildi va yangi geografiya dasturi ishlab chiqildi. Boshlang'ich maktablarning oldiga o'quvchilarni geografiyani tizimli o'rganishga tayyorlash va xaritani yaxshi o'zlashtirish vazifasi qo'yildi. Xususan, boshlang'ich maktabning geografiya kursi tabiiy geografiya bo'yicha boshlang'ich ma'lumotlarni o'z joyi misoli-da (3-sinfda) va mamlakat mintaqalari bo'yicha tabiat va kishilar hayotining tavsifini (4-sinfda) o'z ichiga oldi. Yetti yillik maktabning 5-7 sinflari-da tabiiy geografiya (5-sinfda – umumiy tabiiy geografiya, 5-sinfda – dunyo qit'alari geografiyasi, 7-sinfda – SSSR tabiiy geografiyasi) o'rganildi, biroq aksariyat o'quvchilar 7-yillik ta'lim bilan cheklanganligi sababli 6- va 7-sinflar geografiyasiga SSSR va eng muhim chet mamlakatlarning aholi-si va xo'jaligi haqidagi ba'zi ma'lumotlar qo'shimcha kiritildi. SSSR va eng muhim chet mamlakatlar iqtisodiy geografiyasi kurslari yuqori, ya'ni 8-9 sinflarga ko'chirildi. Demak, 5-sinfda - tabiiy geografiya boshlang'ich kur-sini, 6-sinfda - dunyo qit'alari va eng muhim davlatlar geografiyasini, 7-sinfda - SSSR tabiiy geografiyasini, 8-sinfda SSSR iqtisodiy geografiya-sini, 9-sinfda - kapitalistik mamlakatlar (keyinchalik chet mamlakatlar) iqtisodiy geografiyasini o'rganish joriy etilgan. Eng muhimi shundaki, bu kurslar qisman o'zgarishlar bilan SSSRning keyingi barcha yillarida saq-lanib qolgan.

Eng muhimi, yuqorida ta'kidlangan qaror ijrosi natijasida O'zbe-kiston maktablari geografiyadan ilmiy va metodik jihatidan yaxshi ishlan-gan o'quv dasturlariga ega bo'ldilar. O'zbek maktablarining barcha sinflari uchun birinchi marta ona tilida geografiya darsliklari yaratildi, ularga rangli xaritalar ilova qilindi. Bu davrda davlat universitetlari va ins-titutlari, o'qituvchilar institutlari va kechki pedagogika institutlarida geografiya fakultetlari ochilib, geografiya o'qituvchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash yo'lga qo'yildi, ko'plab o'quv-metodik qo'llanmalar tayyorlan-di va rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilindi. Bu borada Samarqand dav-lat universitetida 1934 yilda tashkil etilgan "Umumiy tabiiy geogra-fiya" kafedrasi, 1935 yilda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutida tashkil etilgan "Geografiya" kafedrasi (mudiri M. Bektemirov) muhim o'rin tutdi. Mazkur kafedrada S.



Saidrasulov, A. Obizov, M. Qoriev, I. Mirboboev kabi pedagoglar faoliyat ko'rsatdi. Ilk bor A. Obizov tomo-nidan o'rta maktab o'quvchilari uchun "O'zbekiston geografiyasi" darsligi nashr qilindi. Shuningdek, O'rta Osiyo davlat universitetida 1935 yilda tashkil etilgan "Tabiiy geografiya" (mudiri N.L.Korjenevskiy) va 1940 yilda tashkil etilgan "Iqtisodiy geografiya" (mudiri A.G.Kuznesov) kafed-ralari ham geograf o'qituvchilar tayyorlashga salmoqli hissa qo'shdilar. Shu bilan birga, mahalliy geograf olimlar (N.D.Dolimov va boshq.) ham geo-grafiya ilmi va ta'limiga o'z hissasini qo'sha boshladi.

**Ikkinchi jahon urushi** geografiya talimiga ham o'z ta'sirini ko'rsat-di: aksariyat geografiya o'qituvchilari frontga jo'natildi, oliy o'quv yurtla-rida geograflar tayyorlash izdan chiqdi, darslik va qo'llanmalar, daftarlar yetishmay qoldi va sh.k.

**Urushdan keyingi yillarda** maorif tizimi qayta tiklanib, umumiy o'rta ta'limga bosqichma-bosqich o'tish boshlandi, ta'lim mazmuni, shu jumla-dan, *geografiya ta'limi* mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish boshlandi. Bunda 1944 yilda tashkil etilgan RSFSR (keyinchalik SSSR) Pedagogika fanlari akademiyasi va uning ilmiy-tadqiqot institutlaridan birida mak-tab geografiyasi bo'yicha bosh ilmiy muassasa – **geografiya ta'limi labora-toriyasi** tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etdi: o'quv dasturlarining tayyorlanishi va darsliklarning yozilishi muvofiqlashtirildi, geografiya ta'limi metodikaning ilmiy masalalarini ishlab chiqish boshlandi. Xusu-san, 1946 yilda N.N. Baranskiy muallifligida "Iqtisodiy geografiyani o'qitish bo'yicha ocherklar" nomli iqtisodiy geografiya ta'limining birinchi metodikasi nashr etildi.

1948 yildan boshlab boshlang'ich sinflarda *tabiiyot* ta'limi tizimi o'zgardi: 1-3-sinflarda *tabiatshunoslik* materiallari izohli o'qish dars-larida, *tabiiyot* esa o'quv fani sifatida 4-sinfda o'rganila boshlandi.

1953-1954 o'quv yilidan boshlab maktab geografiyasi dasturlariga ama-liy mashg'ulotlarni o'tkazish majburiy tarzda kiritilgan edi. atoriyasi har qachongidan katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Maktabda geografiya kursi sinflar bo'yicha quyidagicha taqsimlandi:

- 5-sinf – Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi;
- 6-sinf va 7-sinfning birinchi yarim yilligi – Dunyo qit'alari va eng muhim davlatlar geografiyasi;
- 7-sinfning ikkinchi yarim yilligi va 8-sinf – SSSR geografiyasi (tabiiy geografiya, iqtisodiy geografiya elementlari bilan birga);
- 10-sinf – Chet mamlakatlar iqtisodiy geografiyasi;
- 11-sinf – SSSR iqtisodiy geografiyasi.

1964 yilda 11-sinflar tugatildi va shu munosabat bilan SSSR iqti-sodiy geografiyasi maktab geografiya kursi tarkibidan chiqarildi.





Bu davrda barcha ittifoqdosh respublikalardagi pedagogika ilmiy tek-shirish institutlarida *Geografiya sektorlari va laboratoriyalari* tashkil etildi. Ularda maktab geografiyasiga oid ilmiy-metodik tadqiqotlar amal-ga oshirildi. Bu borada O'zbekistan pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot ins-titutining Geografiya laboratoriyasida **P. Musaev** rahbarligida bir guruh ilmiy xodimlar tomonidan geografiya ta'limi nazariyasi va metodikasining dolzarb masalalari, xususan, milliy maktab va qishloq maktablarida geo-grafiya ta'limi muammolari turli jihatdan o'rganila boshlandi.

Geografiya o'qituvchilarini tayyorlanida, shuningdek maktablar va oliy o'quv yurtlari uchun darslik, qo'llanma va boshqa o'quv-metodik adabiyotlarni yaratishda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti (hozirgi Toshkent davlat pedagogika universiteti), shuningdek Samarqand, Buxoro, Xorazm, Farg'ona, Nukus va sh.k. davlat pedagogika institutlarining geogra-fiya fakultetlari salmoqli hissa qo'shdi. Bu borada O. Mo'minov, P. Musa-yev, R. Qurbonniyozov, M. Nabixonov, T. Abullaeva, M. Asomov kabi qator me-todist-olimlar geografiya ta'limi jonkuyarlariga aylandi va ular tomoni-dan o'z yechimini kutayotgan dolzarb muammolar bo'yicha qator ilmiy-metodik ishlar bajarildi. Quyida o'zbek metodist-olimlari va ularning eng muhim ishlari haqida qisqa ma'lumotlar keltirildi:

Umuman olganda, o'tgan asrning 60-80-yillarda Z. Akramov, H. Hasa-nov, N. Dolimov, T. Tajimov, T. Raimov, A. Xisomov, M. Umarov, K. Abir-qulov, M. Valixonov, J. Matmuratov, M. Xalimov, A. Hasanov, M. Qora-xonov, Sh. Zokirov, R. Raximbekov, L. Alibekov, S. Nishonov, A. Saidov, M. Rasulov, P. G'ulomov, O. Ota-Mirzaev, S. Saidkarimov, A. Saidaxmedov, J. Xoliqov, B. Kamolov, I. Alimuxamedov, A. Rafiqov, T. Mirzaliev, G. Par-daeV, T. Allaberganov, T. Egamberdiev, A. Sagatov, A. Rasulov, A. Qayumov, S. Sirlibaeva, Yu. Sul-tonov, I. Abdug'aniev, A. Soliev, G. Asanov, A. Abul-qosimov, M. Mamatqulov, B. Baxriddinov, I. Nazarov, P. Baratov, I. Safa-rov, F. Hikmatov, A. Egamberdiev, Sh. Xoliqulov kabi ko'plab iqtidorli o'zbek geograf olimlari tomonidan O'zbekiston tabiati, aholisi va xo'jali-gini o'rganish, tahlil qilish, tabiatdan foydalanish va uning muhofazasini tashkil etish va xaritashunoslik bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar olib bo-rildi.

O'zbekiston uzluksiz ta'lim tizimida *o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi* deb nomlangan yangi ta'-lim turi, ya'ni *akademik litsey* va *kasb-hunar kollejlari* tashkil etilib, ularda ham geografiya fanini o'qitish yo'lga qo'yildi.

Mustaqil O'zbekistonning umumta'lim maktablarida geografiya ta'li-mi sinflar bo'yicha quyidagicha taqsimlandi:

- 5-sinf – Tabiiyot;
- 6-sinf - Materiklar va okeanlar geografiyasi;
- 7-sinf – Turkiston tabiiy geografiyasi (1-yarim yillikda), O'zbe-kiston tabiiy geografiyasi» (2-yarim yillikda);



- 8-sinf – O‘zbekiston iqtisodiy geografiyasi;
- 9-sinf – Jahonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi.

Har bir sinf yakunida o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nik-ma va malakalar tabiiyot va geografiya kurslari bo‘yicha ishlab chiqilgan o‘quv dasturlarida o‘z aksini topdi. 2000-2001 o‘quv yilidan 7-sinfdagi “Turkis-ton tabiiy geografiyasi” kursi “O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasi” nomi bilan o‘qitila boshlandi.

Bu davrda maktab *tabiiyot* va *geografiya* kursi sinflar bo‘yicha quyi-dagicha taqsimlandi:

- 1-sinf – Atrofimizdagi olam;
- 2-sinf –Atrofimizdagi olam;
- 3-sinf –Tabiatshunoslik;
- 4-sinf – Tabiatshunoslik;
- 5-sinf – Tabiiy geografiya boshlang‘ich kursi;
- 6-sinf - Materiklar va okeanlar geografiyasi;
- 7-sinf – Turkiston (O‘rta Osiyo) tabiiy geografiyasi (1-yarim yil-likda), O‘zbekiston tabiiy geografiyasi (2-yarim yillikda);
- 8-sinf – O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi;
- 9-sinf – Jahonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi.

Geografiya ta’limi samaradorligi oshirish maqsadida xorijiy va ma-halliy ilg‘or tajribalar o‘rganilib, bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Xususan, mustaqillik yillarida geografiya ta’limining pedagogik asoslari va metodikasi bo‘yicha **Sh. Avazov** (qishloq maktablari yuqori sinf o‘quvchilarini o‘lkashunoslik faoliyati jarayonida ekologik tar-biyalash), **U. Safarov** (geografiya ta’limida kompyuterlardan foydalanish metodikasi), **A. Haitov** (maktab tabiiy geografiya ta’limida geoekologik bilimlar tizimini o‘qitishning metodik asoslari), **Z. Gaipova** (tabiiy geo-grafiya boshlangich kursida mahalliy ko‘rgazma vositalaridan foydalanish-ning uslubiy asoslari), **M. Abdurahmonov** (tabiiy geografiya ta’limida di-daktik o‘yinlardan foydalanish metodikasi), **S. Matsaidova** (maktab o‘quv-chilarida tabiiy geografik matnlar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllan-tirish), **H. Nikadambaeva** (O‘zbekiston tabiiy geografiyasini o‘qitishda kom-pyuter texnologiyalaridan foydalanish metodikasi), **F. Jumanova** (geogra-fiya ta’limida kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarining ekologik madaniyatni shakllantirish) va boshqalar tomonidan tadqiqot ishlari bajarildi.

2000-2010-yillarda umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari uchun P. G‘ulomov, A. Soliev, A. Abdulqosimov, P. Baratov, R. Qurbonniyozov, X. Vahobov, P. Musaev, J. Musaev, A. Bahromov, M. Mamat-qulov, A. Qayumov, Sh. Azimov, I. Safarov, A. Xasanov, A. Soatov, B. Egamov, N. Sabitova,





M. Tillaboeva va shu kabi mualliflar tomonidan yangilangan darslik va o'quv qo'llanmalar chop etildi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kiruvchilar uchun geografiyadan ma'lumotnoma va test savollari ishlab chiqildi (R. Qurbonniyozov va boshq.). Bir qator viloyatlarning, xususan, Farg'ona (I. Abdug'aniev), Surxondaryo (A. Ro'ziev) Buxoro (I. Nazarov), Xorazm (R. Qurbonniyozov) tabiiy va iqtisodiy geografiyasi yaratildi.

Jahon va Yevropadagi rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimidagi ijobiy tajribalarni milliy ta'lim tizimiga joriy etish maqsadida 2014-2015 o'quv yilidan boshlab maktab o'quvchilarida tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha tajriba-sinov ishlari boshlandi va 2017 yil 6 aprelda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" 187-son qarori bilan tabiiyot va geografiya o'quv fani bo'yicha ta'lim oluvchilar tayyorgarligining zarur va yetarlicha darajasi hamda ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan malaka talablari, ya'ni geografik kompetensiyalar tuzilmasi va ko'lami tasdiqlandi. Shu munosabat bilan geografiya ta'limi bo'yicha yangi o'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalari, shuningdek metodik adabiyotlar yaratishga kirishildi.

#### **1.4. Geografiya ta'limi metodikasining predmeti, vazifalari va zamonaviy muammolari**

**YuNESKO**ning XXI asr ma'rifati bo'yicha tavsiyalarida geografiya falsafa, tarix va chet tillari bilan birga bilimning to'rtta tayanch umumin-soniy sohalari qatoriga kiritilgan. Bu e'tirof geografiya fani va geografiya ta'limining milliy va umumbashariy ahamiyatga egaligidan dalolat beradi.

**Geografiya ta'limi** – ta'lim oluvchilarning geografik bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga, ijodiy kuchi va ichki imkoniyatlarini rivojlantirishga, dunyoqarashlik qadriyatlarini va mustaqil o'qib bilim ort-tirish qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan pedagogik jarayondir. Pedagogik (didaktik) amaliyotda mazkur ilmiy tasavvurning amalga oshishi *geografiya ta'limi metodikasi* vositasida ro'yobga chiqariladi.

**Metodika** – bu qandaydir ishni maqsadga muvofiq bajarish usullari to'plamidir. Metodika asosida *metod* yotadi. "Method" so'zi "usul", "yo'l" degan ma'noni, "methodike" – biror faoliyatni tashkil qilish yoki tadqiq etish usuli, qo'yilgan masalani yechish yo'li, boshqacha aytganda, masala yechimining aniq, oddiy qoidalarini anglatadi. Shunday ekan, *ta'lim metodikasi* didaktik jarayonning asosi sifatida namoyon bo'ladi.

Odamning sivilizatsiya va madaniyat olamiga kirishi to'plangan bilimlar va hayotiy tajribaning bir avloddan boshqasiga o'tkazilishi vositasida amalga oshadi.



Avlodlar izchilligi va odamni ijtimoiylashtirish amali-yotining yuzaga kelish va davom etish tartibi *ma'rifiy tizim* hisoblanadi.

**Ma'rifat** – ijtimoiy hodisa va jarayon. Ma'rifat – jamiyatdagi *qadriyat*, *ijtimoiy ong* va *shaxs* tuzilmalarini o'z ichiga qamrab olgan alo-hida, o'ziga xos tizim, ya'ni ijtimoiy hayotning muhim sohalaridan biri. Ma'rifat - insoniyatni dunyoviy qadriyatlar, fan-texnika yutuqlari bilan tanishtiradi va odamlar o'rtasidagi o'zaro muloqot muhiti hisoblanadi. Har qanday jamiyatning aqliy-ma'naviy va madaniy-axloqiy salohiyati ma'ri-fatga bevosita bog'liq bo'ladi. Har qanday shaxs yoki jamiyatning ma'naviyati, mafkurasi va madaniyati – ma'rifatdan boshlanadi. Demak, ma'rifat – ma'-lum bir shaxs va jamiyat rivojining umumiy shaklidir.

Ilmiy umumlashmani ifodalovchi asosiy pedagogik tushunchalar *peda-gogik kategoriyalar* deb ataladi. “*Ma'rifat*”, “*ta'lim*”, “*tarbiya*” tushunchalari asosiy pedagogik kategoriyalar sirasiga kiradi. Shuningdek, pedago-gika fanida “*shaxsning shakllanishi*”, “*shaxsning rivojlanishi*” kabi umum-ilmiy kategoriyalarga tayanib ham ish ko'riladiki, ular shaxs kamolotini tavsiflovchi tushunchalar sifatida qarab chiqiladi.

**Didaktika** (yunoncha διδακτικός «o'git, pand-nasihat qiluvchi») – peda-gogika va ma'rifat nazariyasi va amaliyotining *ta'limga* oid muammolarini o'rganuvchi alohida bo'limi bo'lib, bilim, ko'nikma va malakalar o'zlashtiri-lishi va e'tiqodlar shakllanishi haqidagi qonuniyatlarni, shuningdek ma'-rifat mazmunining hajmi va tuzilmasini aniqlaydi. Boshqacha aytganda, “**didaktika**” termini “**o'qitish**”, “**o'rgatish**” ma'nosini anglatib, **ta'lim ja-rayoni, uning mazmuni, qonuniyatlari va tamoyillari, metodlari va vositala-ri hamda tashkiliy shakllarini ilmiy asoslab beruvchi ta'lim nazariyasi**. Buyuk mutafakkirlarimiz: Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy asarlarida ta'lim, ya'ni o'qitish va o'qishga oid sharqona di-daktik qarashlar, ya'ni bilimlarni o'zlashtirish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, shuningdek turli xil o'quv mashg'ulotlarining ta'limiy va tarbiyaviy imkoniyatlarini ochib berilgan.

**Didaktika termini birinchi marta nemis pedagogi V.Ratke (1571-1635) tomonidan uning “Didaktika yoki ta'lim san'ati» deb nomlangan ma'ruzasi-da (1613) muayyan bir fanning nazariy va metodologik asoslarini tadqiq qi-luvchi ilmiy yo'nalish sifatida qo'llanilgan. Didaktikaning fundamental ilmiy asoslari chexiyalik olim Ya.A. Komenskiy tomonidan ishlab chiqilgan. U 1657 yilda chex tilida «Buyuk didaktika» asarini yozadi va didaktikani «hammani hamma narsaga o'rgatuvchi san'at» sifatida talqin etadi. Shu bois, Ya.A. Komenskiy didaktikasida “nimaga o'qitish?”, “nimani o'qitish?”, “qaer-da o'qitish?”, “qanday o'qitish?” kabi savollarga o'ziga xos tarzda javob be-rilgan.**

Hozirgi paytda fanlarning o'rganish ob'ekti va predmetini ajratib ko'rsatish qabul qilingan. O'rganish *ob'ekti* – voqelikning ma'lum bir fan o'rganadigan yoki tadqiq etadigan sohasi, *predmeti* – o'rganiladigan ob'ekt-ning muayyan bir xususiyati yoki



uni mazkur fan nuqtai nazaridan qarab chi-qish usuli. Shu nuqtai nazardan didaktikaning *ob'ekti* – ta'lim sohasi, ya'ni o'qituvchi va ta'lim oluvchining mushtarak faoliyati, *predmeti* – o'qi-tish (o'qituvchi faoliyati) va o'qish (ta'lim oluvchi faoliyati) jarayoni o'rta-sidagi o'zaro aloqadorlik, ularning omillari, shart-sharoitlari, natijalari hisoblanadi.

Didaktikaning *vazifalari* kimga, nimani, qachon, qaerda va qanday o'qitish yoki o'rgatish *muammolarini* hal etishdan iborat bo'lib, ularni umu-miy holda quyidagicha ifodalash mumkin:

- 1) ta'lim jarayoni va uni amalga oshirish shart-sharoitlarini asoslash va tavsiflash;
- 2) o'quv jarayonining tashkil etilishi va zamonaviy ta'lim jarayonlarini tadqiq etish;
- 4) yangi o'qitish (o'rgatish) va o'qish (o'rganish) tizimlarni yaratish;
- 5) innovatsion ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish.

Pedagogika nazariyasi va amaliyotida “didaktika” tushunchasi bilan birgalikda “xususiy didaktika” tushunchasi ham qo'llaniladi. **Xususiy di-daktika** - ayrim o'quv fanlari bo'yicha ta'lim metodikasi bo'lib, tegishli fanni o'qitish va bunda o'qish jarayonining o'ziga xos xususiy qonuniyatlarini o'rganadi, uning texnologik tizimini (majmuini) ishlab chiqadi.

**Zamonaviy didaktika** – ta'lim nazariyalari va texnologiyalari haqidagi fan bo'lib, har bir o'quv fani o'zining maqsadi, vazifalari, mazmuni va texnologiyalariga (metodlari, shakllari va vositalari majmuiga) ko'ra o'ziga xos ta'lim metodikasiga egaligi bilan ajralib turadi. Shu nuqtai nazar-dan, istalgan bir o'quv fani kabi **geografiya ta'limi metodikasi** ham **xususiy didaktika** sifatida namoyon bo'ladi. Demak, **geografiya ta'limi metodikasi – pedagogik fanlardan biri hisoblanadi.**

Har bir ta'lim metodikasining o'ziga xos o'rganish ob'ekti va predmeti mavjud bo'lib, ularni aniq farqlash uchun pedagogika va didaktikaning ob'ekti va predmetini to'g'ri idrok talab etiladi.

**Pedagogikaning ob'ekti** – ijtimoiy voqelikda inson hayoti va faoliyati tufayli vujudga kelgan *ma'rifat* sohasi, **predmeti** – inson hayoti davomida uning kamol topishini ta'minlaydigan *pedagogik jarayonlar* (ta'lim, mustaqil o'qish, tarbiya, o'zini-o'zi tarbiyalash, boshqacha aytganda, shaxs-ning jismoniy, aqliy-axloqiy va madaniy kamoloti jarayonlari) hisoblanadi. Demak, pedagogika fani *ma'rifatni*, ya'ni jamiyatning madaniy qadriyatlarini saqlash va boyitishga qobiliyatli barkamol shaxs – komil inson-ni shakllantirish va rivojlantirish maqsadini nazarda tutadi.

**Didaktika**, yuqorida ta'kidlaganimizdek, pedagogikaning bir bo'limi bo'lib, uning **ob'ekti** - ta'lim sohasi, ya'ni o'qituvchi va ta'lim oluvchi-ning mushtarak faoliyati, **predmeti** - o'qitish va o'qish jarayonlari (omillari, shart-sharoitlari, natijalari) hisoblanadi.



Mazkur ta'riflarga tayangan holda geografiya ta'limi metodikasining ob'ekti va predmetini quyidagicha ta'riflash mumkin: **geografiya ta'limi metodikasining ob'ekti** – shaxsni kamol toptirishga yo'naltirilgan yaxlit pedagogik jarayonni vujudga keltiruvchi *geografik ma'rifat*, uning barcha tarkibiy qismlari, tor ma'noda, *geografiya ta'limi*, ya'ni o'qitish va o'qish jarayonlari bo'lib, uning **predmeti** – geografiya asoslarini unga yaqin bog'langan (xaritashunoslik, geologiya, ekologiya, atrof-muhit muhofazasi, iqtisodiyot va sh.k.) fanlar elementlari bilan birgalikda o'rgatish va o'rganish jarayonlari hisoblanadi.

**Geografiya** – umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'limda-gi o'quv fani bo'lsa, **geografiya ta'limi**, yuqorida qayd etilganidek, ta'lim oluvchilarning geografik bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni o'zlashtirishga, ijodiy kuchi va ichki imkoniyatlarini rivojlantirishga, dunyo-qarashlik qadriyatlari va mustaqil o'qib bilim orttirish qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan *pedagogik jarayon* bo'lib, **geografiya ta'limi metodikasi** – oliy geografik ta'limning asosiy ixtisoslik fanlaridan biridir.

**Geografiya ta'limi metodikasi** pedagogik bilimlarning bir tarmo-g'i bo'lib, geografiyaning o'quv fani sifatidagi maqsadi va vazifalarini belgilaydi, maktab geografiyasi mazmunini yaxlit va uning alohida kurslari bo'yicha ishlab chiqadi, geografiya ta'limi jarayonini yaxlit o'rganadi, geografiya ta'limini tashkil etishning tashkiliy shakllarini tadqiq qiladi, geografiya bo'yicha o'quv vositalari (jihazlari) va ulardan foydalanish metodi-kasini ishlab chiqadi, geografiya ta'limi metodlari va usullarini aniqlay-di, o'quvchilarning geografik o'qishi va ularda geografik madaniyatni shakllantirishning oqilona yo'llarini belgilaydi, bo'lg'usi geografiya o'qituvchilarini maktab geografiyasining mazmuni, o'quvchilarning yosh xususiyatlari va pedagogik jarayonni zamonaviy jhozlanish tizimiga mos, ilmiy asoslangan va amalda tasdiqlangan ta'lim va tarbiya metodlari bilan ta'minlaydi.

Geografiya ta'limi metodikasi quyidagi **muammolarni** o'rganadi va qayd etilgan pedagogik savollarga javob izlaydi:

1) geografiya ta'limining maqsadlari, ya'ni “nima uchun geografiyani o'qitish (o'rgatish) va o'qish (o'rganish) kerak?”;

2) geografiya ta'limining mazmuni, ya'ni “geografiya bo'yicha nimani o'qitish (o'rgatish) va o'qish (o'rganish) kerak?”;

3) geografiya ta'limi metodlari va tashkiliy shakllari, ya'ni “geografiyani qanday qilib o'qitish (o'rgatish) va o'qish (o'rganish) kerak?”;

4) geografiya ta'limi vositalari, ya'ni “geografiyani nimalar yordami-da o'qitish (o'rgatish) va o'qish (o'rganish) kerak?”;

5) ta'lim oluvchilarda geografik ijodiy faoliyat va hissiy-qadriyat-li munosabatlar tajribasini shakllantirish va rag'batlantirish, ya'ni “qanday qilib ijodkor, mahsuldor ta'lim oluvchi shaxsini shakllantirish mumkin?” va sh.k.





An'anaga ko'ra, geografiya ta'limi metodikasida *geografiya ta'limi-ning umumiy metodikasi* hamda *geografiya ta'limining xususiy metodikasi* farqlanadi.

**Geografiya ta'limining umumiy metodikasi** geografiya ta'limini yaxlit, bir butun jarayon sifatida o'rganadi, bu jarayonning qonuniyatlarini isbot qiladi, geografiya ta'limining maqsadi va vazifalarini belgilaydi, mazmunini ishlab chiqadi, ta'lim metodlari, vositalari va shakllarini aniqlaydi.

**Geografiya ta'limining xususiy metodikasi** geografiya ta'limi-ning umumiy metodikasi aniqlagan qonuniyatlar va xulosalariga asoslanib, maktab geografiyasidagi alohida kurslar o'qitilishining o'ziga xos xususi-yatlarini, ayrim metodik masalalarni (masalan, bilim, ko'nikma yoki kompe-tensiyalarni shakllantirish yoxud iqlimni o'rganish metodikasi va sh.k.) o'r-ganadi.

**Geografiya ta'limi** yoki **geografik ta'lim** - ta'lim oluvchilarning geografik ilmiy bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni egallashga, geografik ijodiy qobiliyati, geografik dunyoqarashi va geografik e'tiqodi-ni rivojlantirishga, faol geografik o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va rag'batlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayondir.

Xususiy didaktika, ya'ni geografiya ta'limi metodikasining bosh tu-shunchasi "**geografiya ta'limi**" ("**geografik ta'lim**") bo'lib, uning maz-mun-mohiyati "geografik o'qitish", "geografik o'qish", "geografik ma'lumot", "geografik bilim", "geografik ko'nikma", "geografik malaka", "geografik kompetensiya", shuningdek "geografiya ta'limining maqsadi", "geografiya ta'limining mazmuni", "geografiya ta'limi metodlari", "geografiya ta'li-mi vositalari", "geografiya ta'limining tashkiliy shakllari", "geografiya ta'limi nazorati", "geografiya ta'limi natijalari" kabi bir qancha xususiy tushunchalarning o'zaro uzviy bog'liqligi va aloqadorligida ochib beriladi.

**Geografik o'qitish** – geografiya ta'limi jarayonining tarkibiy qism-laridan biri bo'lib, geografiya o'qituvchisining ta'lim oluvchilarning geo-grafik o'quv-bilish faoliyatini boshqarishi bilan bog'liq faoliyatini ifo-dalaydi.

**Geografik o'qish** – geografiya ta'limi jarayonining tarkibiy qismla-ridan biri bo'lib, ta'lim oluvchilarning geografik bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni egallash jarayoni bilan bog'liq faoliyatini ifodalay-di.

**Geografik ma'lumot** – ta'lim oluvchilarning geografik bilim, ko'-nikma, malaka va kompetensiyalarni, geografik tafakkur va faoliyat usulla-rini o'zlashtirishda erishgan geografik saviyasini (darajasini) ifodalay-di.

**Geografik bilim** – ta'lim oluvchilarning o'rganilgan geografik axbo-rotlarni (ma'lumotlarni) eslab qolishi va qayta tushuntirib berishi.

**Geografik ko'nikma** – ta'lim oluvchilarning o'rganilgan geografik bi-limlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olishi.

**Geografik malaka** - ta'lim oluvchilarning o'rganilgan geografik bi-lim va shakllangan geografik ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olishi va yangi geografik bilimlar hosil qilishi.





*Geografik kompetensiya* – ta'lim oluvchilarning mavjud geografik bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik amaliy faoliyatida qo'llay olish qobiliyati.

*Geografiya ta'limining maqsadi* – geografiya ta'limi jarayonini tash-kil etuvchi (uyushtiruvchi) va yo'naltiruvchi, uning mazmuni, metodlari, vosi-talari va shakllarini belgilovchi asoslar (ma'rifiy, tarbiyaviy, rivojlan-tiruvchi maqsadlar) va natijalarni (geografik madaniyat) ifodalaydi.

*Geografiya ta'limining mazmuni* – o'zlashtirilishi shaxs kamolotini ta'minlaydigan geografik bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar, geo-grafik ijodiy faoliyat tajribasi va atrofdagi olamga geografik hissiy-qadriyatli munosabatlar tizimining pedagogik adaptatsiya qilinishini, ya'ni moslanishini ifodalaydi. Boshqacha aytganda, geografiya ta'limining maz-muni to'rtta tarkibiy qismni o'z ichiga oladi:

1) *geografik bilimlar* – bilish faoliyati tajribasi;

2) *geografik ko'nikma va malakalar* – faoliyatning oldindan ma'lum bo'lgan usullarini o'zlashtirish tajribasi;

3) *geografik ijodiy faoliyat tajribasi* – muammoli, noma'lum vaziyatlarda qarorlar qabul qila olish qobiliyati;

4) *geografik muhitga hissiy-qadriyatli munosabatlar tajribasi* – geografik kompetentlik (makonda mo'ljal olish ko'nikmasi, geografiya “ti-li”ni bilish va hodisalarni makondagi ma'lum bir joyga bog'lay olish qo-biliyati) va geografik madaniyatga egalik.

*Geografiya ta'limining tashkiliy shakllari* – bir-biridan didaktik maqsadi, ta'lim oluvchilar tarkibi, mashg'ulotlar o'tkazilish joyi va davo-miyligi, geografiya o'qituvchisi va ta'lim oluvchilar faoliyatining mazmuni bilan farqlanadigan geografik o'quv mashg'ulotlarining turlarini ifoda-laydi.

*Geografiya ta'limi metodlari* – belgilangan geografik o'quv maqsad-lariga erishish uchun geografiya o'qituvchisi va ta'lim oluvchilar faoliyati-ning birgalikda tartibga solingan usullarini (yo'llarini) ifodalaydi.

*Geografiya ta'limi usuli* – geografik ta'lim metodining tarkibiy qismi bo'lib, ma'lum bir metodni amalga oshirishda bir marta qo'llaniladi-gan ayrim hatti-harakatni ifodalaydi (masalan, *geografik ta'lim metodi* – geografik adabiyot bilan ishlash, *geografik ta'lim usuli* – kichik guruh-larning asardagi ayrim mavzularni matnlashtirishi).

*Geografiya ta'limi vositalari* – geografik ta'lim, tarbiya va shaxs kamoloti maqsadlariga erishish uchun geografik ma'rifiy muhitda (jara-yonda) o'quv axborotini tashuvchi (bilim manbai) va o'qituvchi hamda ta'lim oluvchilar faoliyatining vositasi sifatida qo'llaniladigan tabiiy va an-tropogen geografik ob'ektlar, texnik jihozlarni ifodalaydi.



*Geografiya ta'limi nazorati* – geografiya ta'limi jarayonining maj-buriy tarkibiy qismi bo'lib, o'quv ishlarining natijalarini tekshiruvchi vosita; u qaytar aloqalarni ta'minlaydi va o'quv jarayonini tartibga solish (to'g'rilab turish) omili hisoblanadi.

*Geografiya ta'limi natijalari* – o'zlashtirilgan geografik bilim, ko'nikma, malakalar va egallangan kompetensiyalarni, shuningdek shakllangan geografik madaniyatni ifodalaydi.

Geografiya ta'limi metodikasi *pedagogika*, xususan, *didaktika* bilan eng yaqin, mustahkam bog'liq bo'lib, uning o'zi *xususiy didaktika*, ya'ni *o'quv fani didaktikasi* hisoblanadi. Ayrim o'quv fanlarini o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari bor: ba'zilar nazariy bilimlarni berishga, boshqalari – ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi va sh.k. Shu sababli maktabdagi ayrim o'quv fanlarini o'qitish jarayonida ta'lim va tarbiya umu-miy qonuniyatlarining namoyon bo'lish xususiyatlari *ta'lim metodikasi* yoki *xususiy didaktikada*, shu jumladan, geografiya ta'limi metodikasida qarang chiqiladi. Geografiya ta'limi metodikasi barcha o'quv fanlari metodikasining umumiy ilmiy asosi bo'lgan didaktikaga asoslanadi.

*Geografiya ta'limining zamonaviy metodikasi* yaxlit ta'lim tizi-miga xos bo'lgan quyidagi *mufassal* (universal) yo'nalishlari bilan tavsiflanmoqda:

1) *insonparvarlashtirish (gumanizatsiya)* – birinchi navbatda, insonlar hayoti va ularning ijtimoiy munosabatlarini hisobga oluvchi va umuminso-niy qadriyatlarini qaror toptiruvchi (joriy etuvchi) yangi dunyoqarash;

2) *ijtimoiylashtirish (sotsiologizatsiya)* – barcha fanlarda taraqqiyot-ning ijtimoiy jihatlariga e'tibor oshishidan iborat umumiy yo'nalish;

3) *ekologiyalashtirish (ekologizatsiya)* – odamni uning atrofidagi yashash muhiti bilan uzviy bog'liqlikda qarab chiqish;

4) *iqtisodiy lashtirish (ekonomizatsiya)* – bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan bog'liqlik;

5) *siyosatlashtirish (politizatsiya)* – siyosiy xaritada ro'y berayotgan jarayonlarga e'tiborning kuchayishi;

5) *majmuiy yondashuvlarni kuchaytirish asosida tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy geografiyani integratsiyalash* – umumiy, mintaqaviy-milliy va ahalliy geografik bilimlar bir-biri bilan chambarchas bog'langan va yaxlit holga keltirilgan umumlashgan (masalan, alohida hududshunoslik yoki o'lka-shunoslik) kurslarini yaratish.

Geografiya ta'limi metodikasi sohasidagi dolzarb muammolar yechimi va uning rivojlanish istiqbollari quyidagi yo'llar bilan ta'minlanishi mumkin:

1) har bir zamonaviy inson uchun milliy va xalqaro miqyosda e'tirof etilgan eng zarur geografik bilim, ko'nikma va malakalar majmuini ishlab chiqish;

2) geografiya ta'limining kompetensiyalarni shakllantirishga asoslangan yangi rejasini ishlab chiqish va joriy etish;



3) milliy hukumat va xalqaro tashkilotlarda (YuNESKO, Yevropa itti-foqi, Xalqaro geografiya ittifoqi va sh.k.) geografiya hamda geografiya ta'-limining manfaatlarini yuqoriga ko'tarish;

4) geografiya ta'limi bo'yicha ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va yoyish, shuningdek turli xil ta'lim muassasalarida geografiyani o'qitish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

5) turli tipdagi umumiy o'rta va o'rta maxsus hamda oliy ta'lim muassasalari uchun eng yaxshi geografiya darsligi, o'quv qo'llanmasi va o'quv-uslu-biy majmuasini aniqlash uchun O'zbekiston geografiya jamiyati tanlovini tashkil etish va shu orqali Xalqaro geografiya ittifoqi tanlovlarida ishti-rok etish;

6) yosh geograf olimlar uchun O'zbekiston geografiya jamiyatining yozgi maktablarini tashkillashtirish;

7) O'zbekiston geografiya jamiyatining an'anaviy konferensiyalarida yosh geograflarning maxsus kunini tashkil etish;

8) milliy va xalqaro geografik festivallar, olimpiadalar va shu kabi tadbirlarda ishtirok etish.

## **2-mavzu: Geografik madaniyat va geografik ma'rifat: tuzilmaviy- tarkibiy qismlari, mazmuni va o'zaro bog'liqligi**

### **Reja:**

1. Geografik madaniyat - geografik ma'rifat natijasi sifatida.
2. Geografik ma'rifat va uning tarkibiy qismlari.
3. Geografiya ta'limi – geografik ma'rifatning asosi sifatida.

### **1. Geografik madaniyat - geografik ma'rifat natijasi sifatida.**

Ma'lumki, **geografiya** (yunoncha «ge» – yer, «o» – bog'lovchi, «grafo» – tasvirlash, chizish) so'zi *Yer tasviri* degan ma'noni bildiradi. **Geografiya** – geografik qobiqning tuzilmasi, ish-harakati va evolyusiyasini, tabiiy va tabiiy-ijtimoiy geotizimlarning (shu jumladan, tarkibiy qismlarining) makonda o'zaro bog'lanishi va tarqalishini o'rganadigan tabiiy va ijtimoiy fanlar majmui bo'lib, bu fanning umumiy o'rganish ob'ekti **geografik qo-biq** hisoblanadi.

**Geografik qobiq** - Yerning litosferasi, gidrosferasi, atmosferasi va biosferasi o'zaro tutashdigan va bir-biriga ta'sir etadigan qobig'i, ya'ni Yerning majmuy tashqi qobig'i yoki sirtqi geosferalarining birlashishi bo'lib, geografiyadagi global (umumiy) va tizimli tushunchalardan biridir. Aniqroq qilib aytganda, *geografiq qobiq* litosferaning yuqori qismi (er po'sti), atmosferaning pastki qismi (troposfera, stratosfera) hamda butun gidrosfera, biosfera (ekosfera) va noosferani (antroposferani) o'z ichiga qamrab oladi.



Demak, **geografiya** - Yerning geografik qobig'i, uning tuzilmasi, tarki-biy qismlari va o'zgarish (rivojlanish) sur'atini yaxlit va muayyan hududlar bo'yicha o'rganadigan, o'zaro uzviy bog'langan bir necha geografik fanlar majmuidir. Geografik qobiqdagi *tabiiy majmular* (komplekslar) va ularning tarkibiy qismlarini (litosfera, gidrosfera, atmosfera va biosfera) **ta-biiy geografiya**, inson faoliyati hosilasi bo'lgan *ishlab chiqarish majmulari* (komplekslari) va ularning tarkibiy qismlarini, boshqacha aytganda, ja-miyat hayotining hududiy tashkil etilishini **ijtimoiy-iqtisodiy geogra-fiya** fanlari o'rganadi.

Ma'lumki, geografik tasavvur, tushuncha va tafakkur talabalarda geo-grafik dunyoqarashni shakllantiradi. Talabalar geografiya fanlarini o'rga-nish jarayonida dunyoning bir butunligi, yaxlitligi hamda geografik qobiq-ni (muhitni) tashkil qiluvchi barcha tarkibiy qismlar o'zaro bog'langan va shartlangan holda makonda va zamonda doimo o'zgarib turishi, to'xtovsiz ri-vojlanihi haqidagi yetakchi g'oyalarni o'zlashtirib oladilar.

Oliy ta'lim muassasalaridagi geografiya kurslari mustaqil o'quv fanlari bo'lib, ularning zimmasiga har tomonlama rivojlangan yetuk shaxs-ni kamol toptirishga, talabalar ongida dunyoqarash g'oyalarini, madaniy va etik tamoyillar va axloqiy xulq-atvorni shakllantirishga hissa qo'shish va-zifasi yuklatilgan. Tor ma'noda, mazkur o'quv fanlarini o'rganish talaba-larda umuminsoniy madaniyatning bir qismi sifatida geografik madaniyat-ni rivojlantirish va shakllantirishga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, **“madaniyat”** tushunchasi shaxs va jamiyat, ularning mohiyati va taraqqiyotiga bevosita aloqador bo'lgan ko'p qirrali, murakkab ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Shu sababli shaxs va jamiyat mada-niyati, uning rivojlanish qonunlari falsafa, arxeologiya, etnografiya, tarix, psixologiya, sotsiologiya, san'atshunoslik, axloqshunoslik, biologiya, geografiya, ekologiya va pedagogika kabi fanlar tizimida o'rganilib, tadqiq etib kelinmoqda.

Respublikamizda faylasuf va pedagog olimlar tomonidan madaniyat va uning shakllanishi muammolari bo'yicha jiddiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Mazkur tadqiqiy ishlarda madaniyatning mohiyati “moddiy va ma'naviy boyliklar majmui”, “inson va jamiyat faoliyatining barcha tur-lari, ularning natijalari majmui”, “individning shaxs sifatida shaklla-nish jarayoni”, “shaxsni kamolot sari eltuvchi tizim” va boshqa tarzlarda talqin etilgan.

Shaxs umumiy madaniyatining tarkibiy qismlari hamda ularning mohiyatini o'rganish masalasi hozirgi kunda ham mutaxassislar e'tiborini o'ziga tortib kelmoqda. Bu borada muayyan yutuqlarga ham erishilgan, chunonchi uning tarkibida siyosiy, axloqiy, estetik, jismoniy, huquqiy, iqtisodiy, ekologik va mehnat madaniyati farqlanishi, ularning o'ziga xos mazmun-mohiyatga ega ekanligi ilmiy asoslab berilgan.



Biz mazkur tushunchani o'rganish jarayonida shunday xulosaga keldikki, *madaniyat* – kishilik jamiyati yoki biror xalqning, shu jumladan o'zbek xal-qining ishlab chiqarishda, ijtimoiy va ma'naviy hayotda erishgan yutug'idir. Tor ma'noda, *madaniyat* - kishilar hayoti va faoliyatini tashkil etish turla-ri va shakllarida, shuningdek ular tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlarda o'z ifodasini topadigan jamiyat taraqqiyoti va inson ijodiy kuch-g'ayrati va qobiliyatining tarixan shartlangan darajasidir.

Ta'lim-tarbiya nuqtai nazaridan madaniyat talaba shaxsining qadriyat-li mo'ljallari, qiziqish va ehtiyojlari, his-tuyg'ulari va aql-idroki orqali ularning kelajakka intilishida namoyon bo'ladi. Talabalarda madaniylik fazilatini rivojlantirish va shakllantirish o'quv fanlari, shu jumladan, geografiya fanlari ta'sirida ham ro'y beradi.

Ta'kidlash lozimki, respublikamizda shu kunga qadar shaxs umumiy madaniyatining tarkibiy qismlaridan biri sifatida ***geografik madaniyat-ni shakllantirish***, bu jarayonning mazmun-mohiyati na umumpedagogik, na geografiya ta'limi metodikasi nuqtai nazaridan umuman asoslab berilma-gan.

Eng muhimi, geografik madaniyatni "***madaniyat geografiyasi***" bilan chalkashtirib yubormaslik kerak. Madaniyat geografiyasi turli mamlakatlar yoki hududlarda istiqomat qilayotgan ijtimoiy guruhlar, jamoalar va oila-larning turmush tarzi, milliy-madaniy an'analarini tabiat va xo'jalik yuritish nuqtai nazaridan o'rganadi. Bu yerda gap madaniyat geografiyasi haqi-da emas, balki talaba shaxsida geografik madaniyatni shakllantirish haqida so'z boradi.

***Geografik madaniyat*** mazmuni geografiya fanlari mazmunidan farq qilgan holda mohiyatiga ko'ra umuminsoniy, baynalmilal bo'lib, u yoki bu xalq yoxud millat madaniyatining bir qismini tashkil etadi. ***Geografik ma-daniyat***, keng ma'noda, tabiat bilan o'zaro munosabat madaniyatini, millat-lararo munosabatlar madaniyatini, etnik madaniyatni va hududiy mehnat ma-daniyatini o'z ichiga oladi hamda mahalliy tabiat xususiyatlari, tarixiy-geo-grafik sharoit va xalqning ko'p asrlik milliy an'analari bilan mustahkam bog'langan bo'ladi.

Respublikamizda jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida shaxs umumiy madaniyatida geografik omilning tutgan o'rni kun sayin kuchayib bormoqda. Geografik madaniyatni egallash talabaniing atrof-muhit bilan o'zaro shaxsiy muloqoti, ommaviy axborot vositalari va aniq maqsadga yo'naltirilgan geografiya ta'limi jarayonida amalga oshadi. Shunga ko'ra, geografiya ta'limining eng muhim vazifalaridan biri – talabalarda inso-niyat bittaligi, mamlakatlar va ularning aholisi turli-tumanligi haqidagi geografik tasavvurlarni hosil qilishdan iboratdir.

***“Geografik madaniyat”*** tushunchasining mazmun-mohiyati rossiyalik olim V.P.Maksakovskiy tomonidan keng o'rganilgan. Olim zamonaviy maktab geografiyasiga ta'rif berar ekan, ta'lim sohasidagi jahon islohotlari-ning rivojlanish





tendensiyasida madaniyatshunoslik konsepsiyasi asos qilib olinayotganligiga e'tibor qaratadi, ta'limga madaniyatshunoslik yonda-shuvining mohiyatini ochib beradi va geografiya bo'yicha zamonaviy ta'lim dasturlari asosiga geografik madaniyat haqidagi tasavvurlar qo'yilganligini ta'kidlaydi. Shuningdek, u o'z asarlarida geografik madaniyat tushunchasining muhim belgilarini sharhlar ekan, mazkur tushuncha mazmunida ikkita: *maxsus* (tor) va *ommaviy* (keng) yo'nalish mavjudligini e'tirof etadi.

V.P.Maksakovskiy fikricha, geografik madaniyat quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi (1-rasm):

- 1) dunyoning geografik manzarasi;
- 2) geografik tafakkur;
- 3) geografik bilish metodlari;
- 4) geografik til.

Ushbu tarkibiy qismlar maxsus va ommaviy geografik madaniyatga bir xilda taaluqli bo'lib, ularda turli hajmda ishlatiladi.

Geografiyani o'rganish jarayonida talabalar ongida ***dunyoning geogra-fik manzarasi*** mahalliy, mintaqaviy va global miqyosda shakllanadi. Dunyo-ning geografik manzarasini idrok etish shaxsning tabiat bilan o'zaro munosabatida, geografiya ta'limi jarayonida hamda ommaviy axborot vositalari ta'sirida amalga oshadi.

Oddiy qilib aytganda, geografik savodli va tafakkurli shaxs qattiq foydali qazilmalar kovlangan karerni rekultivatsiya qilish yoki qo'riq yerni maysazor yoxud ekin dalasiga aylantirish istiqbolini ko'ra biladi; shahar, korxonalar yoki xo'jalik biror tarmog'ining rivojlanish istiqollarini yoki suv ombori qurishi oqibatida yer osti suvlari va iqlim ko'rsatkichlarida yuz berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni baholay oladi; Quyosh radiatsiyasi bilan geografik kengliklar orasidagi o'zaro bog'lanishlar mohiyatini yoki Yer sayyorasining turli hududlaridagi iqlim ko'rsatkichlarining xilma-xilligi sabablarini anglay oladi; hududlar bilan uning tabiati, kishilari o'rtasidagi, tabiat bilan muayyan hududdagi kishilar xo'jalik faoliyati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va munosabatlar sabablarini tahlil qilib, istiqbol-da kutilayotgan holatlarni bashorat qila oladi.

Yoki boshqacha ifodalasak, *geografik madaniyatli odam* kundalik hayot-da ovqatlanish me'yorlarining miqdor ko'rsatkichlarini tahlil etib, me'yor-dan past darajada ovqatlanish yoki och qolish mumkinligini; o'z joyi yoki mintaqasidagi suv taqchilligi daryolar yoki kanallarning suvsizlikdan qu-rib qolishiga, oqibatda dehqonchilik inqirozi yoki hosildorlik pasayishiga sababchi bo'lishi yoki vohalarda yer osti suvlarining ko'tarilishi natijasida tuproqda tuz to'planishi mumkinligini; Amudaryo va Sirdaryo suvlarining xo'jalik ishlab chiqarishi va aholi ehtiyojlariga noo'rin sarflanishi bilan Orol dengizining qurishi o'rtasidagi yoki bug'li gazlar tufayli



Yer sayyorasi-ning o'rtacha harorati ko'tarilishi bilan Arktika muzliklarining erishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni baholay oladi.


Geografiya ta'limi mazmunida madaniyatshunoslik yo'nalishining ku-chayishi talaba shaxsida dunyoning geografik manzarasini bilish, geografik tafakkurli bo'lish, geografik bilish metodlari va mazkur fanning tilini egallash kabi fazilatlarni rivojlantirishga imkon beradi.

Har bir talaba shaxsida dunyoni har tomonlama makoniy his etish ko'nikmasini tarkib toptirish uchun *geografik bilimlar tizimi* bir butun bog'lam bo'lishi kerak. Faqat geografik madaniyatli shaxs tabiatning ulug'-vorligi va go'zalligini ma'naviy kuch va axloqiylik manbai sifatida ko'rish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Agar talabada berilayotgan yoki taklif etilayotgan geografik bilimlar-ni (axborotlarni) tahliliy o'zlashtirish va to'plagan shaxsiy tajribasidan foydalanishga imkon beradigan geografik tafakkurning tegishli darajasi bo'lmasa, geografiya ta'limining eng ilg'or metodlari yoki texnologiyalari bilan ham hech qanday natijaga erishib bo'lmaydi. Shu sababli talabalarda *geografik tafakkurning* tarkibiy unsurlari yetarli darajada rivojlangan bo'lishi talab etiladi.

Hozirgi davrda geografik madaniyatning mohiyatini tushunish kundan-kunga kengayib bormoqda. Geografik madaniyatning ahamiyati umuminsoniy madaniyat nuqtai nazaridan qadriyatlarni fahmlash, o'z-o'zini va dunyoni ang-lash, dunyoda tabiatdagi barcha tirik mavjudotlar bilan o'zaro uyg'unlikda o'z o'rnini topish vositasi ekanligi bilan keng tan olinmoqda.

Geografik madaniyatning mazmun-mohiyati haqida rossiyalik olim V.M.Kotlyakov ham muhim xulosalar chiqargan. U jamiyatning eng muhim vazifalaridan biri aholining turli guruhlariga hududiy-geografik axborot-larni tarqatish va ularda geografik madaniyatni rivojlantirish bo'lib qoldi, degan fikrlarni bildirgan.



1-rasm. **Geografik madaniyat va uning tarkibiy qismlari**  
(V.P.Maksakovskiy bo'yicha)

Geografiya talabalarning geografik madaniyatini rivojlantirish va shakllantirish bilan bir qatorda shaxsda ekologik madaniyatni ham rivojlantiradi. Talabalar geografiyani o'rganish jarayonida tabiatning holati, uni o'zgartiruvchi omillar hamda tabiatni asrash, undan to'g'ri foydalanishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar tizimi bilan ham tanishadilar.

Geografiya ta'limidagi *geoekologik bilimlar tizimi* talabalarda geo-grafik madaniyatni rivojlantirishda juda katta o'rin tutadi. Uning mazmu-ni "tabiat – jamiyat" tizimidagi o'zaro munosabatlarni aniqlashga yo'naltirilgan bo'lib, mazkur munosabatlarning asoslari quyidagilardan iborat-dir:

1) inson – bioijtimoiy mavjudot, u ham ekosferaning (tabiatning), ham jamiyatning tarkibiy qismi sifatida qarab chiqiladi;

2) Yer sayyorasi, shu jumladan, O'zbekistonning tabiiy sharoiti juda xilma-xil; ularning inson xo'jalik faoliyatiga ta'siri turli hududlarda turlicha namoyon bo'ladi;

3) tabiat, uning shart-sharoitlari va resurslarining ahamiyati, ular-ning xo'jalikni rivojlantirish va joylashtirishga ta'sir darajasi tari-xan o'zgarib turadi;

4) inson faoliyati tabiatga ta'sir ko'rsatadigan va uni o'zgartiradigan omilga tobora ko'p aylanmoqda.

Geografiyani o'rganish jarayonida talaba muayyan darajada *fan tilini* ham o'zlashtiradilar. Geografik tushunchalar mazmuniga ko'ra tabaqalashti-rilgan



umungeografik, kartografik, tabiiy geografik va ijtimoiy-iqti-sodiy geografik tushunchalarga bo'linadi. Ilmiy dalillar tilini o'rganish, ya'ni raqamlar, sanalar, geografik nomlar va terminlar tilini egallash ham geografik madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanadi. Geografik nomlar va terminlar geografik tilning asosini tashkil etadi va ularni muayyan dara-jada bilish geografik madaniyatning o'ziga xos ko'rsatkichidir.

Xaritagrafik savodxonlik, ya'ni geografik xaritalar tilini bilish ham geografik madaniyatlik belgisidir. Ta'kidlash lozimki, geografik xarita bugungi kunda xalqaro muloqot tiliga ham aylangan. Geografik savodxon talaba uchun xaritani bilish ona tili yoki matematikani bilishdek muhimdir. Bilimlarning xaritagrafik usuli nafaqat geograflar, balki boshqa soha mutaxassisleri tomonidan ham keng qo'llanmoqda. Xaritalar yordamida turli ma'lumotlar olish allaqachon umumiy madaniyatning muhim qismiga aylangan.

Demak, geografik madaniyatni rivojlantirish atrofdagi dunyoni il-miy bilishga asoslangan geografik omilli, uzoq muddatli va yaxlit jarayon-dir. Geografiya talabalarida dunyoning rang-barangligi va yaxlitligi haqida-gi bilimlarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy talaba uchun oddiy geografik bilimlarni egallash kundalik ehtiyojga aylangan, chunki geografiya insonning yashash muhiti haqida majmuiy bilim bera-di.

Rossiyalik olim I.V.Dushinaning ta'rifiga ko'ra, **geografik mada-niyat** – bu asosini atrofdagi geografik muhitga qadriyatli munosabatlar tashkil etadigan sub'ektiv va ob'ektiv tavsiflar majmui, pedagogik ta'sir ko'rsatish natijasidir. Geografik madaniyatni shaxsning geografik muhitni va o'z-o'zini qayta o'zgartirish usuli sifatida tushunish maqsadga muvofiq.

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili va kuzatishlar asosida shaxs geo-grafik madaniyatining quyidagi **belgilarini** alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) atrof-muhitni ilmiy idrok etishi;
- 2) geografiya fanlari tilini bilishi (tushunchalar, terminlar, prinsiplar, nazariyalar va sh.k.ni bilish);
- 3) atrofdagi geografik muhit holati va uning o'zgarishi xususiyatlarini bilishi;
- 4) yetuk geografik tahliliy tafakkur, sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlash ko'nikmasi;
- 5) makoniy tasavvurlarning kengligi, geografik bilimlarni xaritaga "joylashtirish" va xaritadan foydalanish ko'nikmasi;
- 6) geoekologik bilimdonlik, geoekologik ong, geografik muhit va uning tarkibiy qismlarini jamiyat mavjudligining negizi sifatida saqlash va yaxshilashga intilishi;
- 7) kundalik hayotda geografik bilim va ko'nikmalardan foydalanish ko'nikmasi;
- 8) o'z joyidagi mavjud geografik muammolarni bilishi va ularning eng maqbul yechimini topish qobiliyati;



9) geografik muhitning rivojlanish xususiyatlarini baholashi va ba-shorat qilishi, qisqa muddatli bashoratlar tuzish qobiliyati.

Demak, yuqorida ta'kidlangan holatlar "geografik madaniyat" zamona-viy geografiya ta'limining maqsadi va mazmunini belgilab beradigan *me-todologik asos* bo'lib xizmat qilishga yo'naltirilishi lozim, degan xulosa chiqarishga imkon beradi (2-rasm).

2-rasmning mazmunini tahlil qilish shundan dalolat beradiki, zamo-naviy geografiya ta'limining mazmunida jamiyatdagi ijtimoiy-geografik tajribasini o'zida aks ettiruvchi va ularni avloddan-avlodga uzatuvchi quyi-dagi *to'rtta* asosiy tarkibiy qism bo'lishi lozim:

1. **Geografik bilimlar** – talaba shaxsida geografik bilish faoliyati tajribasini hosil qiladi.

2. **Geografik ko'nikmalar** – talaba shaxsida geografik faoliyatning oldindan ma'lum bo'lgan usullarini egallash tajribasini vujudga keltira-di.

3. **Geografik ijodiy faoliyat tajribasi** - talaba shaxsida geogra-fik muammoli vaziyatlarda to'g'ri qarorlar qabul qilish ko'nikmasini tarkib toptiradi.

4. **Geografik muhitga hissiy-qadriyatli munosabatlar tajribasi** – talaba shaxsida atrofdagi borliqni geografik jihatdan shaxsiy baholash ko'nikmasini shakllantiradi.

Shunga muvofiq, geografiya madaniyat mazmunida talaba shaxsining atrofdagi geografik muhitga qadriyatli munosabatini shakllantirishga imkon beruvchi quyidagi to'rtta asosiy tarkibiy qism o'z aksini topishi lozim:

1. **Dunyoning geografik manzarasi.**

2. **Geografik tafakkur.**

3. **Geografik bilish metodlari.**

4. **Geografik til.**

Geografiya ta'limi va geografik madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'lanish-larga asoslanib, "**talaba geografik madaniyati**" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: talaba shaxsining tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy muhit bilan bog'liq bo'lgan geografik bilimlari, ko'nikmalari, ijodiy fao-liyati va hissiy-qadriyatli munosabatlari tajribasi majmuida namoyon bo'luvchi va uning geografik tafakkuri, geografik til va metodlarni egalla-shi, dunyoning geografik manzarasini tasavvur yetishi orqali atrofdagi geografik muhitga qadriyatli munosabati xususiyatlarini belgilovchi yaxlit, o'zgaruvchan, tuzilmaviy-saviyali fazilati.

Mazkur ta'rifdan kelib chiqqan holda shaxs geografik madaniyatining yangicha mohiyati va tuzilmaviy tarkibiy qismlarini tahlil qilamiz.

Tadqiqotchi S.Matsaidova ta'rifiga ko'ra, geografiya ta'limining asosiy jihati – o'quvchilar tomonidan geografik bilim va ko'nikmalarning o'zlashtirilish jarayoni hisoblanadi. Bu jarayon «**geografik bilish**» deb ham yuritiladi. Geografik bilish ham bir-biri bilan o'zaro bog'langan va bir-birini taqozo qiluvchi ikki jihatni o'z ichiga





oladi: o'quvchi faoliyati nuqtai nazaridan «**geografik uqish (o'zlashtirish)**» va o'qituvchi faoliyati nuqtai nazaridan «**geografik o'qitish (o'rgatish)**». Oqibatda, geografik bilish natijasida «**geografik bilim va ko'nikmali (savodli) talaba**» shaxsi shakllanadi.

Shuningdek, tadqiqotchi tomonidan geografik bilish jarayonining birinchi bosqichi «**hissiy geografik bilish**» bo'lib, u «**geografik sezish**», «**geografik idrok**» va «**geografik tasavvur**»dan, ikkinchi bosqichi esa «**aq-liy geografik bilish**» (geografik tafakkur) bo'lib, u «**geografik tushuncha**», «**geografik hukm**» va «**geografik xulosa chiqarish**»dan iborat, degan xulosa-lar chiqariladi.

Biz mazkur xulosalar va shaxsiy tahlillarimizga asoslanib, atrof-muhitdagi ob'ektlar va hodisalarni geografik bilish jarayoniga uchta omil ta'sir ko'rsatishini aniqladik:

1. Geografik sezish, idrok va tasavvur.
2. Ommaviy axborot vositalari.
3. Geografiya ta'limi.

Ma'lumki, falsafa va psixologiya fanlari nuqtai nazardan talaba bilimining manbai – *sezgi* hisoblanadi. Talabani atrof-dagi geografik muhit bilan bog'lovchi eng birinchi yo'l **geografik sezish** bo'lib, bevosita muloqot jarayonida geografik ob'ektlar yoki hodisalarning ayrim xossalari uning ongida aks etadi. Demak, talaba boshlang'ich geografik bilimlarni o'z sezgilaridan oladi. Keyinchalik mazkur sezish asosida talaba ongida tabiiy ob'ektlar yoki hodisalar butun holicha aks etadi, ya'ni ularning yaxlit man-zarasi, tasviri vujudga keladi. Bu **geografik idrok** deb aytiladi. Talaba-ning miyasida ro'y bergan bu qo'zg'alishlar, ya'ni sezish va idrok ma'lum muddatgacha o'z izini qoldiradi. Oldin idrok etilgan, lekin aynan shu onda idrok qilinmayotgan geografik ob'ektlar yoki hodisalarning o'quvchi ko'z oldiga kelgan manzarasi **geografik tasavvur** deyiladi.

Talabalarning geografik bilish jarayoniga **ommaviy axborot vositalari** (televidenie, radio, gezeta va jurnallar, elektron axborot vositalari) ham katta ta'sir ko'rsatadi. Taxminiy hisob-kitoblarga ko'ra, ommaviy axborot vositalarida yoritilayotgan kundalik materiallarning 50 foizdan orti-g'i “inson – tabiat – xo'jalik – atrof-muhit” aloqadorligining u yoki bu jihatlarini aks ettiradi.

Talabalarning geografik bilish jarayoniga eng kuchli ta'sir ko'rsatadigan asosiy omil – bu maqsadga yo'naltirilgan **geografiya ta'limi** jara-yoni hisoblanadi. Geografiya ta'limi yuqorida ta'kidlangan ikki omilning imkoniyatlarini o'zida jamlab, talaba shaxsida geografiya madaniyatning bar-cha tarkibiy qismlarini to'liq shakllantirishga psixologik-pedagogik va metodik jihatdan tegishli shart-sharoitlar yaratilishini ta'minlaydi.

Xo'sh, geografik sezish, idrok va tasavvur jarayonlari, ommaviy axborot vositalari hamda geografiya ta'limi vositasida shakllantiriladigan **talaba geografik**




*madaniyati* tarkibiy qismlarining mazmun-mohiyati ni-malarda namoyon bo'ladi? (3-rasm).

**I. Geografik tafakkur.** Pedagogika va geografiya ta'limi metodika-siga oid ayrim adabiyotlarda *geografik tafakkur* ko'pincha "*aqliy geogra-fik bilish jarayoni*" deb ham yuritiladi. Psixologiya fani nuqtai nazari-dan bu fikrga to'liq qo'shilish mumkin. Zero, geografik tafakkur har doim hissiy geografik bilishga asoslanib, undan "oziq" oladi. Ya'ni, talabaning hissiy geografik bilishi uning geografik tafakkuri tufayli ongli tusga kiradi. Boshqacha ifodalasak, geografik ob'ektlar yoki hodisalarning o'zaro munosabatlari, ularning ichki xususiyatlari hamda muhim va muhim bo'lma-gan jihatlarini aniqlash, ular o'rtasidagi ichki va tashqi bog'lanishlarni ochish faqat *mavhum geografik tafakkur* yordamida amalga oshadi. Mavhum geografik tafakkur dunyoni, geografik muhitni vositali aks ettirib, hamma vaqt geografik hissiyotga asoslanadi.


Demak, talaba geografik tafakkuri orqali o'zi sezmagan, biroq aslida mavjud bo'lgan geografik ob'ektlar yoki hodisalarning xossalarini yoki ak-sincha, ularning mushtarak xossalarini ifodalash orqali ular o'rtasidagi o'zaro munosabat va aloqalarni aniqlay oladi.

*Geografik tafakkur* – geografik ob'ektlar va hodisalarning dunyo-viy muhit bilan bog'liqligi va muvofiqligini hududiy, majmuaviy, tari-xiy, tasnifiy, ekologik va amaliy yondashuvlar asosida aniqlaydi va o'zida aks ettiradi.

Shunga muvofiq geografik tafakkur tarkibida uning quyidagi turlari farqlanadi:



2-rasm. Geografiya ta'limi, geografik madaniyat va atrofdagi geografik muhitga qadriyatli munosabat o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlar



3-rasm. Geografik madaniyatning tarkibiy qismlari va ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorliklar



1. **Hududiy geografik tafakkur** - geografik tafakkurning asosi sifa-tida deyarlik barcha geografiya kurslar mazmunida quyidagi darajalarda na-moyon bo'ladi:

- **sayyoraviy** (dunyoning geografik manzarasi, insoniyatning umumbasha-riy muammolari);

- **mintaqaviy** (Osiyoda Markaziy Osiyoning yirik mintaqa sifatida qarab chiqilishi, Orol va Orolbo'yi muammosi);

- **milliy** (O'zbekistonning tabiiy va ijtimoiy-geografik tavsifi);

- **mahalliy** (O'zbekistonda alohida hududlarning o'lkashunoslik asosi-da qarab chiqilishi).

2. **Majmuiy geografik tafakkur** - geografik ob'ektlar va hodisa-larni mohiyati bo'yicha ko'p omilli umumlashtirishdan iborat bo'lib, kichik va katta miqyosdagi umumlashtirishlar farqlanadi.

Yoqilg'i-energetika, mashinasozlik, agrosanoat majmualari, tabiiy-hu-dudiy va hududiy-ishlab chiqarish majmualari *kichik miqyosdagi* umumlash-tirishlarga misol bo'lsa, tabiat va jamiyat o'zaro aloqadorligi muammolari, majmuaviy mamlakatshunoslik, muayyan hududlarning xaritalarini tuzish *katta miqyosdagi* umumlashtirishlarga misol bo'ladi.

3. **Tarixiy geografik tafakkur** - geografik ob'ektlar va hodisalar-ning tarixiy jihatlarini aks ettiradi. Masalan, geografik kashfiyotlar tarixi; mamlakatlar va viloyatlar, tumanlar va shaharlar yoki aholi va xo'ja-likni tasvirlashdagi tarixiy-geografik tavsiflar; insoniyatning geogra-fik tarixi, ya'ni "bolaligi", "o'smirligi", "yoshligi" va "etukligi" bayoni va shu kabilar.

4. **Tasnifiy geografik tafakkur** - geografik ob'ektlar va hodisalar-ni umumiy alomatlariga qarab ilmiy asosda guruhlariga ajratishni aks ettiradi va asosan quyidagi uch yo'l bilan amalga oshadi:

*birinchisi*, muayyan "bilimlarni yaxlitlash", masalan, iqtisodiy rayon-larga ajratish, mamlakatlar yoki mintaqalarni guruhlash;

*ikkinchisi*, geografik ob'ektlar va hodisalarni guruhlash, masalan, landshaftlarning tasniflanishi, qishloq xo'jaligi yoki transport tizimini turlarga ajratib guruhlash;





*uchinchisi*, geografik ob'ektlar va hodisalarni tanlab o'rganish yoki muayyan tushuncha shakllanishi uchun ob'ektlar yoki hodisalarning o'ziga xos, boshqalardan ajralib turgan ayrim turlarini tanlab qarab chiqish.

**5. Ekologik geografik (geoekologik) tafakkur** – geografik ob'ektlar va hodisalarning ekologik jihatlarini aks ettiradi. Masalan, atrof-mu-hitning ifloslanishi, ekologik siyosat, sanoat, qishloq xo'jaligi yoki tran-sportning atrof-muhit bilan o'zaro bog'liqligi, atrof-muhit va aholi salo-matligi va h.k.

**6. Amaliy geografik tafakkur** - geografik ob'ektlar va hodisalar-ning real hayot bilan bog'liqligini, amaliy yechimlarini aks ettiradi. Masa-lan, tabiiy sharoit va resurslardan to'g'ri foydalanish, aholi hayot-faoliyati yoki ishlab chiqarishni hududiy jihatdan to'g'ri tashkil qilish, geografik bashoratlash va h.k.

Talabalarning geografik tafakkur faoliyati quyidagi fikrlash ja-rayonlarida amalga oshadi:

1. **Geografik tahlil** (butunni bo'laklarga fikran ajratish) – o'rgani-layotgan geografik ob'ekt yoki hodisani fikran tarkibiy qismlarga ajratish usuli. Masalan, tabiatni o'rganish jarayonida uni tarkibiy qismlarga: tog' jinslari, relef, yer usti va yer osti suvlari, tuproq, o'simlik, hayvonot dunyosi va havo massalariga ajratish. Butunni bo'laklarga ajratish jarayoni-da fikr murakkabdan oddiyga, umumiydan yakkaga, butundan bo'lakka qarab boriladi.

2. **Geografik sintez** (bo'laklarni butunga fikran to'plash) - bo'laklar-ga ajratilgan geografik ob'ekt yoki hodisani fikran to'plab, yaxlit holga keltirish usuli. Masalan, tog' jinslari, relef, yer usti va yer osti suvlari, tuproq, o'simlik, hayvonot dunyosi va havo massalariga ajratilgan tarkibiy qismlarni to'plab, yaxlit tabiatni o'rganish. Bo'laklarni butunga to'plash jarayonida fikr yakkadan umumiyga, qismdan butunga, aniqdan mavhumba qa-rab boriladi.

3. **Geografik taqqoslash** - geografik ob'ektlar yoki hodisalar o'rtasi-dagi o'xshashlik va tafovutni aniqlash usulidir. Taqqoslashda quyidagilar e'tiborga olinishi zarur:

-taqqoslanadigan geografik ob'ektlar yoki hodisalar bir-biri bilan o'zaro bog'langan bo'lishi kerak;

-taqqoslanadigan geografik ob'ektlar yoki hodisalar qanday belgisiga ko'ra qiyoslanishi oldindan ma'lum bo'lishi shart;



-hamma vaqt ikki yoki undan ortiq geografik ob'ekt yoki hodisani bir belgisi asosida bir xil nisbatda solishtirish kerak;

-taqqoslanadigan geografik ob'ektlar yoki hodisalar tasodifiy, mu-him bo'lmagan belgilariga qarab emas, aynan faqat muhim belgilari asosida qiyoslanishi lozim.

**4. Geografik umumlashtirish** - geografik ob'ektlar yoki hodisalar-ning o'xshash hamda muhim belgi va xususiyatlarini, bog'lanishlarini fikran muayyan tushunchaga birlashtirish jarayoni va natijasidir.

Umumlashtirish geografik ilmiy bilishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Unda ayrimlikdan umumiylikka (masalan, «relef» tu-shunchasidan «landshaft» tushunchasiga) o'tilib, umumiy tushuncha, hukm va nazariyalar hosil qilinadi (masalan, landschaft - geologik zamini, relefi, iqlimi, tuproqlari, o'simlik turkumlari, hayvonot dunyosi, gidrologik re-jimining bir xilligi bilan ajralib turadigan va tabiiy chegaralarga ega bo'lgan hudud; yomg'ir, qor, do'l, muz zarralari – yog'inlar va hakazo).

**5. Geografik mavhumlashtirish** - geografik ob'ektlar yoki hodisalar-ning yakka, ikkinchi darajali, muhim bo'lmagan belgilaridan uzoqlashish va muhim belgilarini topish usuli. Mavhumlashtirish natijasida geografik ob'ektlar yoki hodisalarning ichki tomonlari, mohiyati ochilib, geografik tushuncha shaklida ongda mustahkamlanadi.

Talabaning geografik ob'ektlar yoki hodisalarni mavhumlashtirish qobiliyati aynan uning fikrlash qobiliyati hisoblanadi. Talabani mavhum-lashtirishga o'rgatish geografiya ilmini egallash, uning qonuniyatlarini tushunishda juda muhim ahamiyatga ega.

**II. Geografik til.** Geografik ob'ektlar yoki hodisalarni o'rganish ja-rayonida talabalar tomonidan geografiya fanlarining ilmiy tilini bilish va o'zlashtirish talab etiladi. Zero, geografiyaning tushuncha-terminlar, il-miy dalillar, raqamlar, sanalar, geografik nomlar (atamalar), tasavvurlar va xaritaalar tili yordamida hamda geografik tafakkur vositasida geogra-fik ta'limotlar, nazariyalar, konsepsiyalar, ilmiy farazlar va metodlar-ning mohiyati ochib beriladi va shu asosda dunyoning geografik manzarasi anglanadi (3-rasm).

Demak, geografik ob'ektlar yoki hodisalarni bilish uchun avvalo ta-fakkur orqali ular haqidagi tushunchalarni vujudga keltirish talab etila-di, tushunchalar esa *tilda* o'z ifodasini topadi. **Geografik til** o'zining shu xususiyati bilan talabaga geografik bilimlar to'plashga, uni saqlashga, av-loddan-avlodga uzatishga, egallagan geografik bilimlaridan amalda foyda-lanishiga yordam beradi. Ayni paytda *geografik til* geografik tafakkurni takomillashtirish vositasi bo'lib xizmat qiladi va geografik tafakkur faqat *til* yordamida o'z ifodasini topadi.

Geografik tafakkurdagi fikr geografik til **terminlari** va **so'z bi-rikmalari** orqali ifodalanadi. Talaba o'z ongida faqat geografik til yordamida geografik ob'ekt va hodisalar mohiyatini, mavhum geografik tu-shunchalar va qonuniyatlarni aks ettiradi.



Geografik tafakkur jarayonida hamma vaqt aniq geografik bilish maqsadi qo'yiladiki, bu hol *geografik til geografik tafakkurning moddiy qobig'i* ekinligidan dalolat beradi.

Geografik til *ovozli-og'zaki* va *ovozsiz-yozma* shakllarda bo'lishi mumkin. Ovozsiy-yozma shakldagi geografik til ko'pincha «*geografik matn*» deb ham yuritiladi. Demak, geografik tilsiz (nutqsiz, matsiz) geografik fikr yuritish aslo mumkin emas. Geografik til (nutq, matn) va tafakkur bir-biri bilan o'zaro uzviy - "genetik" bog'langan va bir-birining namoyon bo'lishida muhim o'rin tutadi.

Talabaning geografik tafakkuri turli shakllarda amalga oshadi. Xu-susan, geografik sezish va idrok geografik tasavvurda namoyon bo'lganidek, geografik tafakkur ham «geografik tushuncha», «geografik hukm» va «geografik xulosa chiqarish» orqali mavjud bo'ladi. Bularning barchasi geografik ob'ektlar va hodisalarning mavhum geografik tafakkurda namoyon bo'lish shakllari hisoblanadi hamda faqat geografik tilda (nutq, matnda) o'z ifodasini topadi.

**III. Geografik bilish metodlari** talabalarni geografik ob'ektlar yoki hodisalarni tadqiq qilishga undaydigan yondashuvlar, shuningdek geografik tadqiqotlarning o'ziga xos usullari va metodikasidir. Geografik tadqiqotlarning maqsadi ko'zda tutilayotgan ilmiy bilish jarayonining nati-jasi va uning amaliyotga yoki geografiya fani rivojiga munosabati bo'ladi. Talabalar geografiya ta'limi jarayonida *ilmiy metodlar* bilan turli xil usullar yordamida amaliy tanishtiriladi. Geografiya ta'limi jarayonida talabalarga tanishtiriladigan ilmiy metodlarni foydalanishiga ko'ra an'anaviy va yangi metodlarga bo'lish mumkin (3-rasm).

*An'anaviy metodlarga* quyidagilar mansub:

1. **Geografik tavsiflash metodi** - geografik ob'ekt va hodisalarga tavsif berish. Masalan, "O'zbekistonning geografik o'rni", "Qashqadaryo viloyati reliefi", "Quyil Amudaryo iqlimi", "O'zbekiston daryolari", "Farg'ona vodiysi aholisi", "Yapon an'analari", "Meksikaning madaniy merosi", "Afrikaning yovvoyi tabiati", "Pekin" kabi aniq hududlar, ob'ekt va hodisalarni *reja asosida* tavsiflash.

Geografik tavsiflash tilini (nutqda, matnda) takomillashtirib bo'rish, ayniqsa uning his-tuyg'ularga boyligi, jo'shqinligini kuchaytirish mazkur metodning o'ziga xos jihatiidir.

2. **Xaritagrafik metod** – xaritalar ishtirok etadigan geografik tadqiqot metodi bo'lib, makoniy tasavvurlarni kengaytiradi, geografik bilimlarni xaritaga "joylashtirish" va ulardan foydalanish ko'nikmasini hosil qiladi.



Xaritalar ba'zan boshqa metodlar orqali olingan natijalarni namo-yish qilishga xizmat qilsa, ba'zan xaritaning o'zi dastlabki axborotlarni olish va yakuniy natijalar chiqarishga xizmat qiladi. Xaritagrafik metod geografiya fanining o'ziga xos "tili" (shartli belgilar tizimi, xaritagrafik tasvirlash usullari, muhimligi bo'yicha ajratish qoidalari) sifatida o'rganilayotgan ob'ektlarni aniq qayd etadigan va tasvirlaydigan metod bo'lib, hozirgi kunda muayyan geografik qonuniyatlarni ochib beradigan, geografik ob'ektlar yoki hodisalarni majmuaviy tavsiflaydigan qudratli texnik vositaga aylangan.

Mazkur metod geografik ob'ektlar va hodisalarni xaritalar yorda-mida o'rganish, tahlil qilish hamda xaritani o'qish, tushunish, uning bilan ishlash ko'nikmalarini vujudga keltiradi.

**3. Geografik qiyoslash metodi** – geografik tafakkurning asosini tashkil qilib, geografik ob'ekt va hodisalarni o'xshashligi va tafovuti bo'yicha, yaxlit holda va ayrim belgilari bo'yicha qiyoslashda o'z ifodasini topadi. Masalan, O'zbekistondagi past, o'rtacha va baland tog'larni qiyoslash, Amudaryo bilan Sirdaryoni qiyoslash, Orol dengizi bilan Kaspiy dengizini qiyoslash, Farg'ona vodiysi xo'jaligi bilan Quyi Amudaryo xo'jaligini qiyoslash va x.k.

Qiyoslash ko'pincha bir yoki bir necha belgilar bo'yicha oddiy yoki bir-muncha murakkab topshiriqlar tizimi shaklida amalga oshiriladi.

**4. Statistik metodlar** - geografik ob'ektlar va hodisalar mohiyatini ochishda turli xildagi raqamli ko'rsatkichlardan foydalanishga asoslanadi. Geografiya ta'limida geografik manzaralar va tavsiflarga katta aniqlik kiritish, ko'plab miqdoriy va sifatiy ko'rsatkichlarni aniqlash-tirish, xilma-xil ob'ektlar va hodisalarning miqyosini aniqlash, har xil qonuniyatlarni ochish, turli mazmundagi grafiklar, diagramma va jadvallar tayyorlash uchun raqamli ko'rsatkichlardan foydalanish talab etiladi.

Keyingi paytlarda geografiya ta'limi jarayonida statistik ko'rsatkichlarning (mutloq, nisbiy, koeffitsientlar ko'rinishidagi) barcha turlarini qo'llashga, geografik hodisa va jarayonlarni statistik o'rganish (kuzatish, guruhlash, ajratib ko'rsatish, tahlil qilish) turlari va bosqichlariga, statistik ma'lumotlar tuzishning turli shakllaridan (yakka raqamlar, jadval-lar, grafik tasvirlar) foydalanishga e'tibor kuchaymoqda.

**Yangi metodlarga** quyidagilar mansub:



1. **Matematik-geografik modellashtirish metodi** – xilma-xil geo-grafik tadqiqotlarda sun'iy yaratilgan ob'ektlar-modellardan (geografik xarita, globus, matematik formula, grafika, chizma, moslama va h.k.) foydalanish. Masalan, ekologik muammolarni yechishda tabiiy jarayonlarni model-lashtirish, geotizimlar modellari, tabiiy-hududiy va ishlab chiqarish-hududiy tizimlarning o'zaro munosabati modeli, urbanizatsiyaning salbiy ekologik va ijtimoiy oqibatlarini modeli va h.k.

2. **Aerokosmik metod** - geografik ob'ektlar va hodisalar mohiyatini ifodalashda kosmik suratlardan foydalanishga asoslanadi. Masalan, aero-kosmik suratlarni o'qish va ularda mo'ljash olish bilan bog'langan amaliy ishlar. Geografiya ta'limida mazkur metodning ahamiyati haqida ko'p gapiri-ladi, biroq amalda bu metodning mohiyati ochib berilmayapti.

Geografik bilish metodlari haqida gap ketganda talabalar geoaxbo-rotlar tizimi bilan mutlaqo tanish emasligini alohida ta'kidlash lozim. Hatto ko'pchilikka anchadan beri nomlari ma'lum bo'lgan geokimyoviy, geofi-zik kabi metodlardan ham amalda foydalanilmaydi.

**IV. Dunyoning geografik manzarasi** asosida zamonaviy geografiya sohasidagi tadqiqiy va amaliy ishlar jarayonida olingan va tekshirib ko'ril-gan ilmiy bilimlar yotadi va odamning tabiat va jamiyat, unga munosabati haqidagi tasavvurlarini aks ettiradi (3-rasm).

Geografiyaning tabiiy va ijtimoiy fanlar chegarasida o'ziga xos o'rin-da joylashganligi oqibatida *dunyoning geografik manzarasi* dunyoning ta-biiy-ilmiy va ijtimoiy-ilmiy manzaralari tarkibiga tashkil etuvchi omil sifatida kiradi.

Biz dunyoning geografik manzarasini geografik madaniyatning asosiy tushunchasi sifatida qarab chiqar ekanmiz, uning eng muhim tarkibiy qismi – ilmiy geografik bilimlarning bosqichma-bosqich bir-biriga bo'ysunishi haqida fikr yuritamiz.

Dunyoning zamonaviy geografik manzarasi haqida keng va rang-barang tasavvurlarni ifodalaydigan **geografik bilimlar** majmuining asosiy yo'nalishlarini quyidagicha belgilash mumkin:

1. Geografiyaning nazariy asoslari.
2. Geografik tadqiqot metodlari.
3. Geografik ob'ektlar va hodisalar.
4. Hududlarning geografik tavsifi.
5. Dunyoni geografik bilishning moddiy va ma'naviy madaniyatda aks etishi.

*Geografik bilimlar* umumiy tarzda geografik ob'ektlar va hodisalar-ning geografik til shaklida qayta ifodalanishi, aks etishi sifatida tav-siflanadi. Nazariy va empirik geografik bilimlar farqlanadi. *Nazariy bilimlar geografik ob'ektlar va*





hodisalarning xususiyatlari, ichki aloqa-lari va munosabatlarini aniqlovchi mohiyatni aks ettiradi. Nazariy bilim-lar ta'limotlar, nazariyalar, konsepsiyalar, ilmiy farazlar, qonunlar, qonuniyatlar, sabab-oqibat bog'lanishlari va tushunchalar ko'rinishida namoyon bo'ladi. *Empirik bilimlar* geografik ob'ektlar va hodisalarning tashqi xususiyatlarini ifodalaydi; ularga tasavvur va dalillar mansubdir.

Geografiya ta'limi mazmunida dunyoning geografik manzarasini shakllantiruvchi eng muhim *nazariy bilimlar* majmuini quyidagicha ifodalash mumkin:

## **I. Geografik qonunlar va qonuniyatlar:**

1. Geografik qobiqning yaxlitlik qonuniyati.
2. Geografik qobiqning bir maromda ishlash qonuniyati.
3. Geografik qobiqning zonalar bo'yicha taqsimlanganlik qonuniyati.

## **II. Geografik ta'limotlar:**

### **1. Umumilmiy ta'limotlar:**

1. Tabiatdan foydalanish haqidagi ta'limot.
2. Dunyo okenai haqidagi ta'limot.
3. Tuproqlar haqidagi ta'limot.
4. Biosfera haqidagi ta'limot.
5. Ekosfera haqidagi ta'limot.
6. Noosfera haqidagi ta'limot.
7. Evolyusiya ta'limoti.

### **2. Tabiiy geografik ta'limotlar:**

1. Geografik qobiq haqidagi ta'limot.
2. Geografik zonalar bo'yicha taqsimlanganlik haqidagi ta'limot.
3. Geografik landshaft haqidagi ta'limot.
4. Tabiiy-hududiy majmua haqidagi ta'limot.

### **3. Ijtimoiy-iqtisodiy geografik ta'limotlar:**

1. Iqtisodiy geografik o'rin haqidagi ta'limot.
2. Geografik (hududiy) mehnat taqsimoti haqidagi ta'limot.
3. Hududiy-ishlab chiqarish majmui haqidagi ta'limot.

### **4. Kartografik ta'limotlar:**

1. Karta haqidagi ta'limot.

### **5. Chegaradosh fanlar bilan bog'liq ta'limotlar:**

1. Tabiiy-o'choqli kasalliklar haqidagi ta'limot.
2. Geobiotsenoz haqidagi ta'limot.
3. Landshaft geokimyosi haqidagi ta'limot.

## **III. Geografik ilmiy nazariyalar:**

### **1. Umumilmiy nazariyalar:**

1. Prognoz qilish nazariyasi.
2. Barqaror taraqqiyot nazariyasi.



4. Geografik determinizm nazariyasi.

5. Rayon planirovkasi nazariyasi.

**2. Umumgeografik nazariyalar:**

1. Mintaqaviy rivojlanish nazariyasi.

2. Geografik baholash nazariyasi.

3. Tabiiy va texnogen xavf nazariyasi.

**3. Tabiiy geografik nazariyalar:**

1. Tabiiy geografik hududlarga bo'lish nazariyasi.

2. Litosfera plitalari nazariyasi.

**4. Iqtisodiy geografik nazariyalar:**

1. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish nazariyasi.

2. Iqtisodiy hududlashtirish nazariyasi.

3. Jahon xo'jaligi nazariyasi.

4. Xo'jalik va joylashishning hududiy tuzilmasi nazariyasi.

5. Urbanizatsiya nazariyasi.

**5. Chegaradosh fanlar bilan bog'liq nazariyalar:**

1. Demografik o'zgarish nazariyasi.

2. Etnogenez nazariyasi.

**IV. Geografik ilmiy konsepsiyalar:**

1. Geotexnik tizimlar konsepsiyasi.

2. Atrof-muhit monitoringi konsepsiyasi.

3. Geografik ekspertiza konsepsiyasi.

4. Qutblashgan landshaft konsepsiyasi.

5. Geotizimlarning barqarorligi va o'zgaruvchanligi konsepsiyasi.

6. Hududiy-rekratsion tizimlar konsepsiyasi.

7. "Ekologik talab" konsepsiyasi.

8. Geosiyosat konsepsiyasi.

9. Tarixiy-madaniy hududlar konsepsiyasi.

**V. Geografik ilmiy farazlar:**

1. Kosmogoniya ilmiy farazi.

2. "Materiklar dreyfi" ilmiy farazi.

3. "Bug'li gazlar ta'siri" ilmiy farazi.

**VI. Geografiya ta'limi mazmunidagi sidirg'a yo'nalishlar:**

1. Insonparvarlik – tabiatni insoniyatning vujudga kelish va yashash muhiti sifatida qarab chiqish.

2. Ijtimoiylik – tabiat va jamiyat hayotida shaxsning tutgan o'rnini ko'rsatish.

3. Ekologik – ekologik madaniyatni shakllantirish.

4. Iqtisodiy – iqtisodiy madaniyatni shakllantirish.



Mazkur geografik bilimlar majmuasi geografiya ta'limida miqyosli-darajaviy tarzda, ya'ni *mahalliy, mintaqaviy-milliy* va *sayyoraviy* ko'lam-larda o'rganiladi hamda tabiiy geografik va ijtimoiy-iqtisodiy geogra-fik muhit qonunlarini aks ettiruvchi hamda "tabiat-jamiyat" o'zaro aloqasi-ni ifodalovchi g'oyalarda o'z aksini topadi.

Dunyoning geografik manzarasi geografik bilimlar va ko'nikmalar-ning quyidagi ikkita katta guruhini o'z ichiga oladi:

- geografiyaning boshqa fanlar bilan birgalikda talabalarda ilmiy dunyoqarashni shakllantiradigan bilim va ko'nikmalar;

- geografiyaning o'ziga xos xususiyatlarini hosil qiladigan va uning talaba shaxsi umumiy madaniyatiga qo'shadigan hissasini belgilab beradigan bilimlar va ko'nikmalar.

Eng muhim **dunyoqarashlik g'oyalari** quyidagilardan iborat:

**1. Geografik qobiq taraqqiyotidagi asosiy qonunlarning namoyon bo'lishini aks ettiruvchi g'oyalar:**

- geografik qobiq – geosferalarning (litosfera, gidrosfera, atmo-sfera, biosfera) modda va energiya almashinuvida namoyon bo'ladigan o'zaro aloqador moddiy yaxlit tizimi;

- geografik qobiq o'z tuzilmasiga ko'ra xilma-xil va mintaqaviy-hudu-diy tuzilishga ega;

- geografik qobiq – ichki va tashqi jarayonlar ko'rinishlari oqibatida makonda va zamonda doimiy o'zgarib turuvchi, o'z-o'zidan rivojlanuvchi tizim.

**2. Aholi va xo'jalik joylashuvi va rivojlanishining dialektik qonunlarini aks ettiruvchi g'oyalar:**

- xo'jalik va aholining joylashish va rivojlanish jarayonlari o'zaro aloqador ekanligi;

- xo'jalik – paydo bo'lish va yo'qolish bilan tavsiflanadigan doimiy rivojlanishdagi tizim ekanligi.

**3. Tabiat va jamiyat o'zaro aloqasini ifodalovchi g'oyalar:**

- inson – tabiatning bir qismi va unga ta'sir ko'rsatuvchi omil;

- tabiiy shart-sharoitlar turli mintaqalar xo'jaligiga turlicha ta'sir ko'rsatadi;

- xo'jalikni joylashtirish va rivojlantirishda tabiatning tutgan o'rni tarixan o'zgaruvchan.

Biz yuqorida talaba shaxi geografik madaniyatining mohiyati va uning tuzilmaviy tarkibiy qismlari mazmuni bilan nazariy jihatdan tanishib chiqdik.



Tabiiyki, oliy ta'lim muassasalarida ta'limi jarayonida talabalar geografik madaniyatini shakllantirish holati qanday va bu borada yechimini kutayotgan qanaqa muammolar mavjud, degan savol tug'iladi. Quyida shu haqdi fikr yuritamiz

Ma'lumki, har qanday fan singari geografiya fanlari va geografiya ta'limi metodikasida ham yuz foiz tugal, o'zgaras «ilmiy til»ni yaratish mumkin emas. Ijtimoiy hayot va pedagogik faoliyat davomida mazkur fanlar mazmunan rivojlanib, uning tili - *tushuncha va terminologiya tizimi* o'zgarishga uchrab, boyib boradi.

Mustaqillik yillarida geografiya ta'limi metodikasi fanining mazmunan sifat o'zgarishlariga uchraganligi bunga yorqin misoldir. Biroq hanuzgacha mazkur fanda xususiy tushuncha va terminlarni tartibga keltirish borasida yagona yo'l-yo'riq ishlab chiqilmaganligi hamda ulardan geografiya ta'limi amaliyotida o'rinsiz foydalanib kelinayotganligini achinarli holdir.

Bugungi kunda geografiya ta'limi metodikasi fani shunday holatni boshdan kechirmoqda: ilmiy, ilmiy-ommabop nashrlar va hatto ayrim tadqi-qotlarda bitta metodik termin bilan bir necha metodik hodisalar (jarayon-lar), bitta metodik hodisa (jarayon) esa bir necha metodik terminlar bilan chalkash, ko'pincha asossiz talqin etilmoqda.

Geografiya ta'limi metodikasi tushuncha-terminologiya tizimidagi bunday chigallik va anglashmovchiliklarning kelib chiqishini milliy ta'lim metodikasining umumjahon ta'lim tizimi va didaktikasiga mutanosib holda tezlik bilan rivojlanishga intilishi, iste'molda bo'lgan asosiy metodik tushunchalarning yanada tabaqalashib yangi tushuncha va terminlar-ning paydo bo'lishi, oliy ta'lim sohasida mutaxassis kadrlarning ildam tayyorlanishi, shuningdek mazkur sohadagi malaka oshirish hamda qayta tayyorlash tizimi mazmunidagi sifat o'zgarishlari bilan bog'lash mumkin.

Ta'kidlash joizki, geografiya ta'limi metodikasi fani o'z mazmu-nidagi ob'ektlar, hodisalar va jarayonlarni terminlar va tushunchalar bi-lan to'liq taminlash masalasida amaliyotdan sezilarli orqada qolmoqda. Eng muhimi, asosiy fundamental ilmiy-metodik tushunchalarni ifodalovchi termin va iboralardagi chalkashliklar bo'lib, bu sohadagi me'yoridan ortiq mutaasiblik, zamonaviy ilg'or metodik yoki texnologik g'oyalarni to'liq anglamaslik (tushunmaslik) yoki ularga qo'shilmaslik chalkashliklarni kelti-rib chiqarayotgan eng asosiy omillar hisoblanadi. Prezidentimiz takid-laganlaridek, haligacha eski mafkuradan xalos bo'lmasdan yangicha fikrlashga o'rgana olmayapmiz.

Geografiya ta'limi metodikasi fanida terminlarga nisbatan aniq talablar qo'yilgan. Demak, tushunchalar mohiyatini ifodalovchi iste'moldagi terminlar, ularning yangicha talqini (yangi terminlar) mazkur talablarga muvofiq bo'lishi shart. Biroq biz ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili asosi-da shunday xulosaga keldikki, tushunchalarni belgilash va ifodalashda dastlabki holat sifatida terminlarni emas, balki aynan geografiya ta'limi metodikasining *mavzu bahsi* - ob'ekti, jihatlari, maqsadi, vazifalari,



me-todlari va texnologiyalari majmuasidan kelib chiqqan holda **bo'lajak pedagog shaxsida kasbiy mahorat asoslari bilan birgalikda geografik mada-niyatning shakllanish (o'sish va rivojlanish) sur'atini ifodalovchi ho-disa va jarayonlar** asos qilib olinishi kerak.

Oliy ta'lim muassasalaridagi geografiya ta'limi mazmuni hamda mavjud ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, aksariyat hol-larda geografiya ta'limi mazmunining tuzilishi, tarkibiy qismlari, aso-siy kategoriyalari yetarli darajada asoslanmaganligi, shuningdek, ularning mohiyati dekanlar, kafedra mudirlari, metodist-geograflar va geografiya fanlari o'qituvchilari tomonidan yetarlicha anglanmaganligi oqibatida bu borada muayyan metodik qiyinchiliklar vujudga kelgan.

Biz talaba shaxsida geografik madaniyatni shakllantirish holati va bu boradagi metodik muammolarni aniqlashga harakat qildik. Shu maqsadda:

birinchidan, talaba shaxsida geografik madaniyatning shakllanganlik darajasini geografiya fanlari bo'yicha Davlat ta'lim standartlariga muvo-fiq bitiruvchilar darajasida aniqladik;

ikkinchidan, geografiya o'qituvchilarining talabalarda geografik madaniyatni shakllantirishga tayyorgarlik darajasi hamda bu borada metodik ishlarning yo'lga qo'yilish holatini o'rgandik.

Talaba shaxsida geografik madaniyatning shakllanganlik darajasini aniqlash uchun uning quyidagi 4 ta mezonni ishlab chiqildi:

- 1. Dunyo geografik manzarasi haqidagi tasavvurining to'liqligi.**
- 2. Geografik tafakkurining kengligi.**
- 3. Geografik bilish metodlarini egallaganligi.**
- 4. Geografiya tilini bilishi.**

Shu asosda har bir mezon bo'yicha uning mazmunini ifodalaydigan o'ziga xos ko'rsatkichlar majmui aniqlandi. Jumladan:

1. **"Dunyo geografik manzarasi haqidagi tasavvurining to'liqligi"** mezon bo'yicha quyidagi ko'rsatkichlar:

- 1) dunyoning yaxlit manzarasi haqidagi tasavvuri;
- 2) Yer sayyorasi va unga kishilarning munosabati to'g'risidagi geogra-fik bilimlarning o'zgarishi haqidagi tasavvuri;
- 3) atrof-muhitning makondan tashkil topganligini tushunishi;
- 4) atrofdagi geografik muhitning vujudga kelishi va o'zgarishining o'ziga xos xususiyatlarini tushunishi;
- 5) geografik borliqni bilishi va unga munosabati;
- 6) hududlarning geoekologik xususiyatlarini bilishi;
- 7) hududlarning tarixiy-etnografik xususiyatlarini bilishi;
- 8) O'zbekistonning jahonda tutgan o'rnini bilishi;
- 9) Toshkent shahrining jahon va O'zbekistondagi ahamiyatini bilishi.





2. **“Geografik tasavvurining kengligi”** mezoni bo'yicha quyidagi ko'rsatkichlar:

- 1) tafakkurida umumbashariylik darajasining mavjudligi;
- 2) geografik muammolarni ajratib ko'rsatish va qarorlar qabul qilish ko'nikmasi;
- 3) sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlash layoqati;
- 4) geografik muhit rivojlanishining xususiyatlarini tahlil qilish layoqati;
- 5) go'zal va to'kin-sochin yashash muhitini tasavvur qilishi;
- 6) turli geografik vaziyatlarda qabul qiladigan qarorining yangiligi;
- 7) geografik muhitga antropogen ta'sirlardan vujudga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarni tahlil qilishi;
- 8) ona tabiatning ulug'vorligi va go'zalligini tushunishi.

3. **“Geografik bilish metodlarini egallaganligi”** mezoni bo'yicha quyidagi ko'rsatkichlar:

- 1) geografik ob'ekt va hodisalarni matnda ifodalashi;
- 2) kartalar yordamida geografik ob'ekt va hodisalarni tahlil qilishi;
- 3) kartani o'qishi, tushunishi va uning bilan ishlashi;
- 4) geografik ob'ekt va hodisalarning o'xshashligini aniqlashi;
- 5) geografik ob'ekt va hodisalarning tafovutini aniqlashi;
- 6) geografik ob'ekt va hodisalarga tavsif berishda raqamli ma'lu-motlardan foydalanishi;
- 7) geografik tadqiqiy ishlarda globus, matematik formula, jadval, chizma va asboblardan foydalanishi.

4. **“Geografiya tilini bilishi”** mezoni bo'yicha quyidagi ko'rsatkichlar:

- 1) geografik ta'limotlar, nazariyalar, konsepsiyalar va ilmiy faraz-larni bilishi;
- 2) geografik ta'limotlarni asoslashi;
- 3) u yoki bu ilmiy mazmuni ko'rsatishi;
- 4) aniq geografik ob'ektlar va hodisalarni tavsiflashi,
- 5) geografik tushuncha va terminlarni bilishi;
- 6) ilmiy dalillar, raqamlar va sanalarni bilishi;
- 7) u yoki bu hudud yoxud hodisani tavsiflashda miqdoriy ko'rsatkich-larni qo'llashi;
- 8) kartani o'qish ko'nikmasi;
- 9) geografik joy nomlarini bilishi va ulardan foydalanishi.



Mazkur *mezon-ko'rsatkichlar tizimi* orqali talabalarda geografik madaniyat shakllanganligining quyidagi 5 ta rivojlanish darajasini ajratib ko'rsatish mumkin:

**Birinchi daraja** – *juda past* – talabalarda dunyoning geografik man-zarasi haqidagi tasavvurlar to'liq mavjud emas va geografik tafakkur yetar-li shakllanmagan, ular geografik bilish metodlarini yomon egallagan va geografiya tilini asosli bilmaydi.

**Ikkinchi daraja** – *past* - talabalar dunyoning geografik manzarasini uzuq-yuluq, noto'liq tasavvur etadi, geografik tafakkuri past rivojlangan, aksariyat geografik bilish metodlari haqida to'liq tushunchaga ega emas, geografiya tilini yaxshi bilmaydi.

**Uchinchi daraja** – *o'rta* - talabalar dunyoning geografik manzarasini qoniqarli tasavvur etadi, geografik tafakkuri birmuncha rivojlangan, geo-grafik bilish metodlari haqida qoniqarli tushunchaga ega, geografiya tili, xususan karta haqida tasavvurga ega.

**To'rtinchi daraja** – *o'rtadan yuqori* - talabalar dunyoning geografik manzarasini yaxshi tasavvur etadi, geografik tafakkuri yetarlicha rivojlangan, geografik bilish metodlari haqida yaxshi tushunchaga ega, geografiya tilini yaxshi biladi.

**Beshinchi daraja** – *yuqori* - talabalar dunyoning geografik manzarasini juda yaxshi tasavvur etadi, geografik tafakkuri yuqori rivojlangan, geogra-fik bilish metodlari haqida to'liq tushunchaga ega, geografiya tilini juda yaxshi biladi.

### **3-mavzu: Didaktikada zamonaviy geografiya darsiga bo'lgan talablar va didaktik o'yinli texnologiyalarning geografiya fanlarini o'qitishdagi o'rni.**

#### **Reja:**

1. Zamonaviy geografiya darsiga bo'lgan talablar.
2. Ta'lim jarayonini tashkil qilishda o'qituvchi va o'quvchi faoliyati mazmuni.
3. Ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari va muammolari.

**Tayanch iboralar:** Ta'lim, tarbiya, muammo, faoliya, shakl, metod, vosita, jarayon.

#### **1.1. Zamonaviy geografiya darsiga bo'lgan talablar.**

Ushbu vazifalarni amalga oshirish har bir ta'lim muassasasining shu jumladan, pedagogika oliy o'quv yurtlarining bevosita vazifasi sanaladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo'llash uchun Geografiya o'qituvchilari maxsus metodik bilim va ko'nikmalarni egallashlari, pedagogik amaliyotda zarur bo'ladigan metodik tayyorgarlikka ega bo'lishlari lozim.



Pedagogik texnologiya atamasiga shu muammo bo'yicha izlangan har bir olim o'z nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda ta'rif bergan. Hali bu tushunchaga to'liq va yagona ta'rif qabul qilinmagan. Ushbu ta'riflarning ichida eng maqsadga muvofiq'i YuNESKO tomonidan berilgan ta'rif sanaladi.

Pedagogik texnologiya – o'qitish shakllarini optimallashtirish maqsadida o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonida inson salohiyati va texnik resurslarni qo'llash, ularning o'zaro ta'sirini aniqlashga imkon beradigan tizimli metodlar majmuasidir.

Bu yerda inson salohiyati deyilganda o'qituvchining pedagogik va o'quvchilarning bilish faoliyati, texnik resurslar deganda o'qitish metodlari va vositalari nazarda tutilmoqda.

Geografiyani o'qitishda o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va ta'lim samaradorligini oshirishga imkon beradigan texnologiyalarni guruhlashtirishda dastlab quyidagilarga asosiy e'tiborimizni qaratishimiz lozim:

1.O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va ta'lim samaradorligini oshirishga imkon beradigan texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlari.

2.O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va ta'lim samaradorligini oshirishga imkon beradigan texnologiyalarning turlari.

O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va o'qitish samaradorligini oshirish masalasi Geografiyani o'qitish metodikasi fanining asosiy muammolaridan biri sanaladi.

O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish deganda, o'quvchilarda yuqori darajadagi motiv, bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga bo'lgan ongli ehtiyoj, natijaning yuqoriligi va ijtimoiy normalarga mos hulqning paydo bo'lishi tushuniladi.

Mazkur tipdagi faollik har doim ham vujudga kelavermaydi, faqat o'qituvchining maqsadga muvofiq pedagogik ta'sir ko'rsatishi va qulay pedagogik-psixologik muhitni tashkil etish mahorati tufayligina vujudga keladi.

Geografiyani o'qitishda maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatish va qulay ijtimoiy-psixologik muhitni vujudga keltirishi o'qituvchi tomonidan qo'llanilgan pedagogik texnologiyalarga bog'liq bo'ladi.

O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va ta'lim samaradorligini oshirishga imkon beradigan texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi bilan birgalikda, ta'lim jarayonida ta'lim beruvchi, rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi, ijodiy faoliyatga yo'llovchi, kommunikativ, mantiqiy fikrlash, aqliy faoliyat usullarini shakllantirish, o'z faoliyatini tahlil qilish, kasbga yo'llash, mo'ljalni to'g'ri olishga o'rgatish, hamkorlikni vujudga keltirish kabi funksiyalarni bajaradi.

Biroq, pedagogik texnologiyalarning funksiyalarini taqqoslaganda bu funksiyalar bir xil darajada o'rin egallamasligi ma'lum bo'ldi.

Geografiya o'qituvchisi darsda o'rganiladigan mavzuning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari va pedagogik texnologiyalarning didaktik funksiyalarini

hisobga olgan holda qaysi texnologiyadan foydalanishini ilmiy-metodik asosda tanlagandagina ko'zlangan maqsadga va samaradorlikka erishadi.

Geografiya – ob'ekti juda ham turli maslalarga qaratilgan fan, unda tabiiy muhit va insoniyatning turli xolatlarini o'rganadi. Bundan tashqari ushbu fan keng miqyosda falsafiy maslalarga ham qaratilgan (pozitivlikdan posttizimlikgacha). Geograflar miqdoriy (statistika i matematik modellashtirish) i *sifat metodlaridan* (sub'ektiv, madaniy, so'rovlar, kuzatuv va boshqa vizualnye ma'lumotlar) yoki ularning kombinatsiyasidan foydalanadi. Bu metodlar turli loyixalarda, tadqiqotlarda ( ma'lumotlarga boy va natijalari aniq bo'lgan) va *intensiv loyixalarda* (bunda aniq bir yoki bir nechta geografik ob'ekt) qo'llaniladi. Bunda geograflar qo'llaniladigan metodologik yoki falsafiy yondoshuvga qaramasdan umumiy xulosalarni berishlari kerak. Geograflar o'rganadigan ob'ekt o'zining diapazonining kattaligi bilan farqlanadi. Tabiatning ko'p aspektlari, tabiiy, ekologik, iqtisodiy, siyosiy, madaniy jixatlari bilan geografiyaning o'rganish ob'ekti hisoblanadi. Bundan tashqari ushbu diapazon ko'lami kengayib bormoqda. A'naviy, geograflar dunyoni o'tmishda bugungi kunga qarab rivojlanib kelaetgan tizim deb hisoblaydilar. Hozirda esa bu ko'lam yanada kengayib bormoqda (Uolforda va Xeggetta, 1995; Gregori, 2000; Gregori 2009). Masalan, tabiiy va iqtisodiy geografiyadagi ekologik qarashlar, katta xajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash, yangi metodlarni qo'llash kabi. Bugungi kunda qadimgi duneni modellashtirish, kelajakni bashoratlash mexanizmlari mavjud. Tabiiy geografiya tobora ekologiyalashib, "Er tizimlari fanlari" bilan bog'lanib, atmosfera, biosfera va tabiatni muxofazasi deb yuritilmoqda

(Shaxter, 2005). Bugungi kunda yangi texnika yutuklari, masalan GIS, tadqiqot va ularning natijalarini olish imkoniyatlarini kengaytiradi, va giperkosmosdan foydalanishda yordam bermoqda. Shu bilan birga madaniy antropologiya, axolishunoslik va tibbiy geografiyada amaliy masalalar deyarli emperik xolatda o'rganiladi. Geografiyadagi yangi yo'nalishlar va ular bilan bog'liq tqdqqotlar metodlari birbiridan farq qilishi yoki tubdan yangi bo'lishi ham mumkin.



1980 yillargacha geografiya asosan tabiatni o'rganuvchi (resurslar yoki geologik) fan sifatida jamiyatda qaralar edi. Bu esa tabiat va jamiyat birligini ko'rsatar edi. Ayrimlar esa uni tabiatni muxofaza qilish va resurslar geografiyasi sifatida qabul qilar (Chalmers, 1990). Shu bilan birga madaniy qarashlar iqtisodiy geografiyada turli yo'nalishlar paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Ushbu masalalar Barnsom (2001) va Klifford (2009) tomonidan atroflicha o'rganilgan. Shunga qarab bugungi geografiyaning ko'lami kanchalik kengligi yaqqol namoyon bo'ladi. Kitobda zamoviy geografiyaning diapazoni, undagi metodlar va ko'rgazmalar keng va



atroflicha taxlil qilinadi hamda tadqiqotlar o'tkazishda katta yordam beradi.<sup>1</sup>

Ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'yilgan buyurtmalarni bajarish uchun avvalo ta'lim jarayonini differensiallashtirish va individuallashtirish, pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv-ni talab etadi.

Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish texnologiyasi o'zida falsafa, psixologiya va pedagogikaning inson-parvarlik g'oyalarini mujassamlashtiradi. Ushbu texnologiya diqqat mar-kazida o'z imkoniyatlarini maksimal darajada amaliyotga qo'llaydigan, ijodiy va ijtimoiy faol, turli hayotiy vaziyatlarni anglab tahlil qila-digan, mo'ljalni ongli ravishda mustaqil, to'g'ri oladigan shaxsni shakllantirish g'oyasi turadi.

Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish texnologiyasi orqali pedagogik jarayonda hamkorlik, g'amxo'rlikning vujudga kelishi, o'quvchilar shaxsini hurmat qilish va e'zozlash orqali shaxsning tahsil olishi, ijod qilish va o'z - o'zini rivojlantirishiga qulay ijtimoiy va psixologik muhit yaratiladi. Mazkur jarayonda o'quvchi o'z o'quv faoliyatining sub'ekti sanaladi va o'qituvchi bilan yagona ta'lim jarayonining ikkita sub'ekti hamkorlikda o'quv-tarbiyaviy vazifalarni hal etadi.

Pedagogning o'quvchi shaxsiga bo'lgan insonparvarlashtirilgan munosabati bolalarni sevish, ularning taqdiri uchun qayg'urishi, bolalarga bo'lgan ishonchning yuqoriligi, o'zaro hamkorlikning vujudga kelishi, muloqot madaniyatining yuqori darajada bo'lishi, o'quvchilarni to'g'ridan-to'g'ri majburlashdan voz kechish va aksincha ijobiy rag'batlantirishning ustunligi tufayli ta'lim jarayonidan ko'zlangan maqsadga erishish, bolalar faoliyatida uchraydigan kamchiliklarga chidamli bo'lish, ularni bartaraf etishning eng samarali yo'llarini qo'llashda namoyon bo'ladi.

## **1.2. Ta'lim jarayonini tashkil qilishda o'qituvchi va o'quvchi faoliyati mazmuni.**

Ta'lim jarayonini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari. Unda o'qituvchi va o'quvchi vazifalari. Ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari. Geografiya ta'limi muammolari.

O'zbekistonning mustaqillikka erishishi munosabati bilan geografiya ta'limida ham muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi. Maktab geografiyasining mazmuni va tuzilishida tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Ayrim o'quv fanlari o'quv fanlari maktab dasturidan olib tashlandi, ayrimlarining mazmuni o'zgartirildi, ayrim fanlar yangidan yaratilib, o'quv tizimiga joriy qilindi.

---

<sup>1</sup> Nicholas Clifford, Shaun French and Gill Valentine. Key Methods in Geography SAGE Publications Asia-Pacific Pte Ltd, 33 Pekin Street #02-, Far East Squar, Singapore, 2010. no. 26 p





O'zbekistonda «Kadrlar tayyorlashni milliy dastur»i, va «Ta'lim to'g'risidagi qonun»i qabul qilinishi munosabati bilan o'quv qo'llanmalari va darsliklarga bo'lgan talablar keskin o'zgardi. Barcha fanlarga bo'lganidik maktab geografiyasi fanida ham tubdan o'zgarishlar sodir bo'ldi. Geografiya predmetlarining dasturi va tuzilishi O'zbekiston maktab ta'limi tizimida sodir bo'lgan o'zgarishlarni xisobga olgan holda qaytadan ko'rib chiqildi.

Shu munosabat bilan geografiya o'qitish metodikasida ham muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi. Geografiya o'qitish metodikasida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash munosabati bilan o'qitish metodikasida ham qator o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Geografiya ta'limi ham boshqa fanlardagi singari pedagogika va didaktika bilan chambarchas bog'liq bo'lib zamonaviy o'zgarishlar va talablar natijasida takomillashib o'zgarib bormoqda. Profesor X.Vaxobov o'zining "Geografiya o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanmasida shunday fikrlar bildiradi: "Geografiya ta'limi deganda o'kuvchilarga tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy komplekslarning tuzilishi va asosiy qonuniyatlari haqida bilimlar beradigan geografiya fanlari tizimiga aytiladi. Geografiya ta'limi metodikasi esa maktablarda va kasb-xunar kollejlari hamda oliy ta'lim muassasalarida, tabiiy va iqtisodiy geografiya hamda boshqa maxsus geografiya fanlarini o'qitish jarayonini o'rganadigan va pedagogika fanlari tizimiga kiradigan fandır". Demak, geografiya bugungi kunda nafaqat geografik bilimlar majmuasi balki uni keng ommaga yetkazuvchi geografiya ta'limidan iboratdir.

### **1.3. Ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari va muammolari.**

Geografiya ta'limi metodikasi umumiy didaktika va tarbiya nazariyasi bilan chambarchas bog'langan. Didaktika fani ta'lim berish va tarbiya jarayonini umumiy qonuniyatlarini, ta'lim mazmunini tatqiq qiladigan nazariy fandır. Didaktika fani ta'lim berish va tarbiya jarayonini umumiy qonuniyatlarini, ta'lim mazmunini tatqiq qiladigan nazariy fandır. Didaktika fani aniq o'quv fanlarini o'qitish metodikasi bilan shug'ullanadi. Ayni vaqtda har bir o'kuv fani kabi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ularning ayrimlarini maqsadi nazariy bilim va ko'nikmalarni shakillantirish (geografiya, biologiya, ximiya), ayrimlari faqat, ko'nikmalarni (chet tillar), boshqalari esa borliqqa estetik munosabatda bo'lishini shakillantiradi (tasviriy san'at). Shuning uchun aloxida fanlarni o'qitish metodikasi bilan hususiy didaktika fanlari shug'ullanadi. Mazkur fanlar qatoriga «Geografiya o'qitish metodikasi» fani ham kiradi.

Geografiya o'qitish metodikasini nazariy va amaliy jixatlari mavjud. Geografiya o'qitish metodikasi fani quyidagi nazariy va amaliy metodologik muammolarni tatqiq qiladi:

a) geografiya o'qitish metodikasining predmeti, tadqiqot usullari, rivojlanish tarixi;

- b) geografiya o'qitish metodikasining maqsad va vazifalarini umuman va aloxida predmetlar bo'yicha aniqlash;
- v) ta'lim va tarbiyaning birligi;
- g) geografik madaniyatni shakllantirish.



mdou-borovtchok.narod.ru

Geografiya o'qitish metodikasi ikkita katta qismdan iborat. Umumiy va hususiy geografiya o'qitish metodikasi. Geografiya o'qitishning umumiy metodikasi nazariy va metodik masalalarni ishlab chiqadi, ya'ni predmetni o'zini tatqiqot usullarini o'rganadi, bunda asosiy e'tiborni o'qitish maqsadlarini ishlab chiqishga qaratiladi.

Geografiyani o'qitishda qanday savollarga e'tibor qaratilishi va qanday ma'lumotlar berilishi kerakligi tahlil qilinishi zarurati bor. Boshqacha qilib aytganda, Geografiya o'ziga xos o'rganish falsafasiga, uning o'rganish metodlari ham o'ziga xos, metodlar, usullar va tahlillar orasida turlicha mulohazalar va takliflar bo'lishi kerak. Bu esa o'qitish dizayniga, ya'ni ko'rgazmalilik darajasini xolatiga bog'liqdir.<sup>2</sup>

Geografiya fanlarining o'qitilishida turli usullar, vositalar qo'llaniladi va ularning zamonaviy imkoniyatlari yanadi ortib bormoqda. Tadqiqotlar vizual ma'lumotlarga, filmlar, televizion dasturlarga, ikklamchi manbalarga va arxiv va fond materiallariga asoslanishi mumkin. Shu bilan birga ular GIS va distansion zondlash, eksperiment va elektron pochtdan olinadigan ma'lumotlar ham bo'lishi mumkin.).

Tadqiqotlarning dizayn jarayonida har bir metodni alohida ko'rib chivsh muhim emas. Ularni aralash holda qo'llash maqsaga muvofiqdir. Ushbu metod *triangulation* deb tanilgan. Tushuncha turli jarayon va munoabatlarni ko'rib chiqishda va ularga to'g'ri joy tanlash bilan bog'liq. Shunday qilib tadqiqotchilar turli metodlardan foydalanishi va turli informatsiyalarni qo'llab paydo bo'ladigan question savollarni minimal darajaga olib kelishi mumkin. Ularmiqdoriy va sifatiy bulishi mumkin. (Sporton, 1999). Turli metodlar loyixaga unikal natijalar olib kelishi yeki ularning qaytarilmasligiga kafotlatdir.

<sup>2</sup> Nicholas Clifford, Shaun French and Gill Valentine. Key Methods in Geography SAGE Publications Asia-Pacific Pte Ltd, 33 Pekin Street #02-, Far East Squar, Singapore, 2010. no. 30 p.

<sup>3</sup> Nicholas Clifford, Shaun French and Gill Valentine. Key Methods in Geography SAGE Publications Asia-Pacific Pte Ltd, 33 Pekin Street #02-, Far East Squar, Singapore, 2010. no. 32 p.



Aniqlangan o'quv-tarbiyaviy maqsadlar asosida geografiya ta'limini mazmuni ishlab chiqiladi. Umumiy metodika ikki qismga bo'linadi:

- tabiiy geografiyani o'qitish metodikasi;
- iqtisodiy va ijtimoiy geografiyani o'qitish metodikasi,
- maxsus geografik fanlarni o'qitish metodikasi.

Zamonaviy geografiya darslariga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

-geografiya faninining ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantirish imkoniyatlarini ochib berish;

-geografik fanlarning mazmunini zamon talablariga mos ravishda yanada takomillashtirish;

-GIT (geografik informatsion tizimlar) dars jarayonida qo'llash;

-o'qitish materiallarini qo'llashni o'timal sharoitlarini asoslash;

-o'qitish vositalaridan unumli foydalanish;

-geografiya darslarini tuzilishi, o'lchamlari va turlarini yanada takomillashtirish;

-geografiya o'qitishni yangi pedagogik va va axborot texnologiyalarini qo'llash;

-geografik ekskursiyalar, tatqiqotlar o'tkazish texnologiyasini yanada takomillashtirish;

5. Geografiya fanlar tizimi qanday qismlarga ajratiladi?

**2-amaliy mashg'ulot:** Geografiya fanlar tizimini qismlarga ajratgan holda klaster to'zing.



**3-amaliy mashg'ulot:** Jadvalda berilgan ma'lumotlar asosida to'g'ri javob juflligini aniqlang.

No	Savollar	Yakka javob	To'g'ri javob	Sizning harakatingiz
1.	Fan maqsad va vazifalarni			Siyosiy va harbiy, tibbiy, rekreatsiya va turizm, injenerlik, geografik bashorat, meliorativ va xizmat ko'rsatish geografiyalari
2.	Tabiiy fanlar tizimi			Tog' jinslari, suvlar, havo, tirik modda
3.	Texnika fanlari tizimi			odamzodning mavjudligidir
4.	Ijtimoiy fanlar tizimi			geodeziya va kartografiya, mashinasozlik
5.	Tabiiy fanlar oldida turgan asosiy vazifalardan biri			Geografik qobiq
6.	Umumiy Yer bilimining o'rganish ob'ekti			matematika, fizika, ximiya, geografiya, kimyo, biologiya va geologiya
7.	Maxsus geografiya fanlar tizimi			Tarix, falsafa
8.	Geografik qobiqning tarkibiy qismlari			Geografik qobiq tabiatini bir butun holda o'rganish
9.	Geografik qobiqning hozirgi bosqichidagi			ob'ektiv borliqni boshqarishni usullari va yo'llarini ishlab chiqish. Borliq haqidagi bilimlarni



	eng muhim xususiyati			ishlab chiqish va ularni nazariy jihatdan tartibga solishdir.
10.	Tabiiy geografiyaning asosiy maqsadi			fanlararo ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni ishlab chiqishdir.

**4-amaliy mashg'ulot: Tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy geografik fanlarga qisqacha tavsif bering.**

<b>№</b>	<b>Fanlar nomi</b>	<b>Fanlarga qisqacha tavsif</b>
1	Geologiya	
2	Geomorfologiya	
3.	Gidrologiya	
4.	...	...
5.	...	...
6.		
7.		
8.		
9.		
10.		

**2. Iqtisodiy-ijtimoiy geografik fanlarga qisqacha tavsif bering.**

<b>№</b>	<b>Fanlar nomi</b>	<b>Fanlarga qisqacha tavsif</b>
1.	Iqtisodiy geografiya	
2.	Aholi geografiyasi	
3.	...	...
...	...	...
9.		
10.		

**Nazorat savollari:**

1. Fan nima?
2. Fanlar tizimi qanday qismlarga ajratiladi?
3. Fan nima uchun tizimga ajratilyapti?
4. Geografiya fanlar tizimi qanday qismlarga ajratiladi?



5. Nima uchun fanlar tizimi shartli ravishda qismlarga ajratiladi?
6. Tabiiy geografiya fanlar tizimiga qaysi fanlar kiritiladi?

***Foydalanilgan adabiyotlar:***


1. Ata-Mirzaev O.B. O sovremennoy sisteme geograficheskix nauk. «Amaliy geografiya» fanining dolzarb nazariy va amaliy masalalariqlim – T.: 2008.
2. Baratov P. Umumiy tabiiy geografiya. –T.: 2010.
3. Zokirov Sh.S, Toshev X. Landshaftshunoslik. – T.: 2013
4. N.Castre, A.Rogers, D.Sherman. Questioning Geography: Fundamental Debates. USA 2005.

**4- amaliy mashg'ulot: Geografiyani o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyasi**

**REJA:**

- 1.Muammoli ta'lim texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlari.
- 2.Muammoli metodlar
- 3.Muammoli darslarga qo'yiladigan didaktik talablar.
- 4.Geografiyani o'qitishda muammoli darslardan foydalanish yo'llari.

***1-amaliy topshiriq: Muammoli ta'lim texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlariga klasterni to'diring.***



**2-amaliy topshiriq: Muammoli ta'lim texnologiyasining klasterini tuzing.**

**3-amaliy topshiriq: Talablarga muammoli metodlardan foydalanib muammoli vaziyatlarni vujudga keltirib, talabalarning muammoni hal etish, murakkab savollarga javob topish jarayonida alohida ob'ekt, hodisa va qonunlarni tahlil qilish ko'nikmalari va bilimlarni faollashtirishga asoslangan faol bilish faoliyatini taqozo etadigan dars ishlanmasi yaratish (har bir tinglovchi o'zi mustaqil mavzu tanlagan holda).**

**4-amaliy topshiriq: Muammolarni hal etishda o'qitishning mantiqiy metodlari guruhiga mansub induktiv, deduktiv, tahlil, bosh g'oyani ajratish, qiyoslash, umumlashtirish metodlaridan foydalanib talabalarni geografiya fanlaridan baholash usullarini tuzish.**

**Nazorat qilish uchun savollar:**

1. Muammoli ta'lim texnologiyalari qanday o'ziga xos xususiyatlariga ega?
2. Muammoli ta'limning muvaffaqiyatli qo'llanilishi qanday omillarga bog'liq?
3. Reproductiv metodlar guruhiga qaysi metodlar kiradi?






- 4. Muammoli vaziyatlarning qanday turlari mavjud?
- 5. O'qitish jarayonining qaysi bosqichlarida muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish mumkin?

**5- amaliy mashg'ulot: Geografiya fanlarini o'qitishda talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish.**

**1-amaliy topshiriq:** Geografiya fanlarini o'qitishda talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

- 1. ....
- 2. ....
- 3. ....

**2-amaliy mashg'ulot:** Oliy o'quv yurti geografiya ta'limida mustaqil ishlarni tashkil etish vositalarini quyidagi sxemaning davom ettiring.





**3-amliy topshiriq:** Mustaqil ishlarni tashkil etish vositalarining geografiya fanlarini o'qitish jarayonida qo'llanilishini izohlang.

<b>№</b>	<b>Mustaqil ishlarni tashkil etish vositalari</b>	<b>Izoh bering</b>
1.	Darslil bilan ishlash	
2.	Geografik kartalar bilan ishlash	
3.	Kontur kartalar bilan ishlash	
4.	Ta'limning texnika vositalari bilan ishlash	
5.	Vaqtli matbuot materiallari bilan ishlash	
6.	Kompyuter bilan ishlash	
7.	Tarqatma didaktik materiallar bilan ishlash	
8.	Qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash	
9.	Statistik ma'lumotlar bilan ishlash	
10.	Ko'rgazmali (illyustratsiya) qurollar bilan ishlash.	
11.	Ko'rgazmali (illyustratsiya) qurollar bilan ishlash.	


**Nazorat uchun savollar:**

1. Geografiya fanlarini o'qitishda mustaqil ta'lim qanday tashkil qilinadi
2. Geografiya fanlaridan masalalar yechish jarayonini tushuntirib bering.
3. Geografiya fanlaridan o'quv va test topshiriqlarini tayyorlang

**6-amaliy mashg'ulot: Geografiya fanlarini o'qitishda talabalarning bilimlarini ob'ektiv baholash mexanizmlarini, reyting tizimida qo'llashga qaratilgan didaktik vositalar: standart va nostandart o'quv va test topshiriqlari majmuasini ishlab chiqish.**

**1-amali topshiriq:** Geografiya fanlarini o'qitish jarayonida standart va nostandart test topshiriqlarining o'rni va ro'li haqida mustaqil bayon tayyorlash.

**2-amaliy mashg'ulot:** Standart va nostandart test topshiriqlariga yelpigich texnologiyasi orqali i taqqoslang.



**3-amaliy mashg'ulot:** Nostandart testlar mazmuni va mohiyatiga ko'ra 3 ta guruhlariga ajratiladi: 1.Integrativ testlar; 2. Adaptiv testlar; 3.Mezonli-mo'ljal olish testlari. Ushbu test guruhlariga izox bering va 5 tadan testlar tuzing.

**4-amaliy mashg'ulot: Quyida berilgan topshiriqlar bo'yicha topshiriqlarni bajaring.**

1. Test topshirig'ining tarkibi, mazmuni va samaradorligiga qo'yiladigan talablarni o'rganing.

2. Test topshiriqlarining qiyinlik darajasiga ko'ra o'zingiz o'qiydigan kurs bo'yicha reproduktiv, produktiv, qisman-izlanishli va ijodiy darajadagi test topshiriqlarini tuzing.

3. Test topshiriqlarining mazmuni va sifatiga DTM tomonidan qo'yiladigan talablarni o'rganib chiqing.

4. O'zingiz o'qiydigan kurs bo'yicha tuzgan reproduktiv, produktiv, qisman-izlanishli va ijodiy darajadagi test topshiriqlarini DTM tomonidan qo'yiladigan talablarga moslashtiring.



5. Quyida berilayotgan nostandart test topshiriqlarini tahlil qiling va ularning turlari, talabalarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini baholash jarayonidagi o'rnini aniqlang.

### **TOPSHIRIQLAR**

1. Tinglovchilar geografiya fanidan 10ta ochiq testlar ishlab chiqish.
2. Tinglovchilar geografiya fanidan nostandar testlar ishlab chiqish.
3. My test dasturidan foydalanib testlar ishlab chiqing.

### **Nazorat savollari:**


1. Test nima?
2. Testlar qanday hollarda qo'llaniladi?
3. Testlar yordamida talabalarni qanday bilimlari nazorat qilinadi?
4. Nostandart testlar deganda nimani tushinasiz?
5. Kartografik testlar qanday tuziladi.
6. GIS test nima?

### **7-Amaliy mashg'ulot: Geografiyani o'qitish jarayonida didaktik o'yinli darslardan foydalanish yo'llari**

#### **Reja:**

1. Geografiya darslarida talabalarning bilish va o'yin faoliyatini uyg'unlashtirish. O'yin faoliyatini tashkil etish bosqichlari.
2. Didaktik o'yinlarning mazmuni va mohiyati.
3. Didaktik o'yinli darslarga qo'yiladigan talablar.
4. Geografiyani o'qitishda foydalaniladigan, didaktik o'yinli darslarning turlari.

**1-amaliy topshiriq: Geografiyani o'qitish jarayonida qo'llaniladigan didaktik o'yinlar klasterini to'ldiring.**



**2-amaliy topshiriq:** Geografiya fanlarini o'qitishda qo'llaniladigan didaktik o'yinlarga izoh bering.

№	Didaktik o'yinlar	Didaktik o'yinlarga izox bering
1	Syujetli – rolli o'yini	
2	Ijodiy o'yin	
3.	Auksion o'yini	
4.	Konferensiya	
5.	Matbuot Konferensiyasi o'yini	
6.	Ishbilarmonlar o'yini	

**3-amaliy topshiriq:** Geografiya fanlarini o'qitishda qo'llaniladigan didaktik o'yinlarga berilgan izoxlarni mosligi bo'yicha o'z o'rniga qo'ying.






**DIDAKTIK O'YINLI DARSLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.**

<b>Didaktik o'yinli darslar</b>	<b>Mavzu mazmuni qanday bo'lganda mazkur darsdan foydalaniladi</b>	<b>Darslarning didaktik funksiyalari</b>	<b>O'quvchining faoliyati</b>
Syujetli – rolli	Fanning turli sohalariga oid bilimlar mujassamlashgan va qo'lga kiritilgan yutuqlarni yoritish, fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirish imkoniyati bo'lganda	Qo'shimcha va mahalliy materiallar bilan tanishtirish, ilmiy, ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan mustaqil ishlash, yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash, kasbga yo'llash	“olimlar” maqomini olib muayyan mavzularda izlanish olib boradi.
Ijodiy o'yin	Fanning turli sohalarida qo'lga kiritilgan yutuqlarni yoritish, fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirish, tabiatdagi va kundalik hayotdagi muammolarni hal etish imkoniyati bo'lganda	Kundalik hayotdagi ijtimoiy munosabatlarni, tabiat ob'ektlari va tabiiy hodisalar o'rtasidagi aloqalar va bog'lanishlarni adabiy-badiiy tarzda yoritish	Muayyan rollarni bajarish orqali bilim, ko'nikmalarni egallash
Auksion	Fanning turli sohalarini qamrab olgan, o'quvchilarning avval o'zlashtirgan bilimlaridan foydalanish lozim bo'lganda	Qo'shimcha va mahalliy materiallar bilan tanishtirish, darslik, ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan mustaqil ishlash.	“olim” va “muxbir”lar maqomini olib mavzuni o'zlashtiradi.
Konferensiya	Avval o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyati bo'lganda	Muammoli vaziyatlarni avval o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarni ijodiy qo'llash orqali hal etish.	Ijodiy izlanish orqali yangi mavzuni o'zlashtiradi
Matbuot Konferensiyasi	Turli ob'ektlarga tavsif berish, ularni taqqoslash imkoniyati bo'lganda	Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar asosida o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, kasbga yo'llash.	Auksionda ishtirok etish orqali yangi mavzuni o'zlashtiradi



**4-amaliy topshiriq:** Didaktik o'yinli darslar orqali qanday funksiyalar amalga oshiriladi



**Nazorat uchun savollar:**

1. Didaktik-o'yin texnologiyasi qanday umumiy xususiyatlarga ega?
2. Geografiya darslarida o'quvchilarning bilish faoliyatini o'yin faoliyati bilan uyg'unlashtirish, o'yin faoliyatini tashkil etishning qanday bosqichlari mavjud?
3. Didaktik-o'yinli darslarga ta'rif bering.
4. O'yin faoliyati inson hayotida qanday funksiyalarni bajaradi?
5. O'yin va o'yin faoliyati tarkibiga nimalar kiradi?
6. Didaktik-o'yinli darslarga qanday didaktik talablar qo'yiladi?
7. Didaktik-o'yinli darslarni tashkil etish uchun o'qituvchi qanday tayyorgarlik ko'rishi zarur deb hisoblaysiz?

**8-Amaliy mashg'ulot: Geografiyani o'qitishda modulli darslardan foydalanish yo'llari**

**Reja:**

1. Modulli ta'lim texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlari.
2. Didaktik maqsadlar majmuasi, xususiy didaktik maqsadlarni aniqlash yo'llari. O'qituvchining tayyorgarligi.
3. Modul dasturining turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari.
4. Modulli darsning an'anaviy darslardan farqi.

Modul dasturining didaktik maqsadini aniqlashda o'qituvchi Geografiyani o'qitishning didaktik maqsadlar majmuasi (DMM), ya'ni Geografiyani o'qitishdan ko'zda tutilgan maqsadni, mavzuning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari asosida, darsda foydalaniladigan modul dasturining didaktik maqsadi (MDM) ni, mavzu ajratilgan modullardan kelib chiqadigan xususiy didaktik maqsadni (XDM)ni aniq tasavvur qilishi zarur. DMM - Didaktik maqsadlar majmuasi Geografiya



o'quv fani yoki bobni o'rganishda ko'zda tutilgan maqsad bo'lsa, MDM – modul dasturining didaktik maqsadi - bu bir dars davomida erishilishi lozim bo'lgan maksad, XDM - xususiy didaktik maqsad bu - modul dasturidan o'rin olgan modullarni o'rganishdan ko'zlangan maqsadlar deb tushunmoq kerak.


**1-amaliy topshiriq: Modul dasturining didaktik maqsadini aniqlashda quyidagi chizma bo'yicha har bir tinglovchi o'z fanidan maqsadlar majmuasi tuzish.**

DDM								
MDM			MDM			MDM		
XDM	XDM	XDM	XDM	XDM	XDM	XDM	XDM	XDM

**2-amaliy topshiriq: Modul dasturining turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlariga izox bering.**

№	Modul dasturining turlari	Ularning o'ziga xos xususiyatlariga izox bering
1.		
2.		
3.		
4.		
5.		
6.		
7.		
8.		

**3-amaliy mashg'ulot: Modulli darsning an'anaviy darslardan farqini klasterda ta'rif bering.**



**4-amaliy mashg'ulot: Modul dasturining turlari va ularning mohiyati didaktik maqsadlarni amalga oshirish imkoniyatlarini mutanosibligini (+,-) ishoralari bilan taqqoslang.**

Didaktik maqsadlar	Talabalarning individual ishlashiga mo'ljallangan modul dasturi	Ikki o'quvchi hamkorlikda ishlaydigan modul dasturi	Kichik guruhlarda hamkorlikda ishlaydigan modul dasturi
O'quvchilarning o'zlashtirgan bilim saviyasini aniqlash va orttirish.	+	+	+
Mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish			
O'quv topshiriqlarini bajarish sur'atini orttirish.			



O'zaro hamkorlik, yordamni vujudga keltirish.			
O'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirish.			
O'zaro nazoratni amalga oshirish			
O'zaro muloqotni vujudga keltirish.			
O'quv bahsi va munozarani vujudga keltirish.			
Ijodiy ishlash va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini tarkib toptirish.			

**Nazorat qilish uchun savollar:**

1. Modulli ta'lim texnologiyalarining o'ziga xos xususiyatlari
2. Modul dasturida o'zida nimalarni mujassamlashtiradi?
3. Geografiyani o'qitishda modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish uchun o'qituvchining amalga oshirishi lozim ?
4. O'qituvchi modul dasturining didaktik maqsadini aniqlash uchun nimalarga e'tiborni qaratishi zarur?
5. Modul dasturining qanday turlari mavjud?
6. Modulli darsning borishi bilan tanishing. Siz yana nimalarni tavsiya etgan bo'lardingiz?





## V. KEYSLAR BANKI

### Keys №1

**O'quv predmeti:** «Aholi geografiyasi va demografiyasi».

**Mavzu:** «Dunyo xalqlari klassifikatsiyasi. Aholining milliy-etnik tarkibi».

**Ta'limiy maqsad:** Xalqlar, dunyo aholisining milliy tarkibi, ularning geografik tarqalishi va ularning guruhlanishi to'g'risida talabalarga chuqurroq bilim berish.

Talabalar ushbu keysni muvaffaqiyatli hal etish uchun etnik birliklar, ularning shakllari, o'ziga xos jihatlari borasidagi *bilimlarga ega* bo'lish-lari lozim.

**Rejalashtiriladigan o'quv natijalari:**

- mavzuga oid ma'lumotlarni tahlil etish va baholash qobiliyatini rivojlantirish;
- topshiriqni bajarish jarayonida aholining milliy tarkibi to'g'risida umumiy tushunchalar, ilmiy qarashlar bilan tanishish va ularni tahlil qilish bo'yicha malakalarini orttirish;
- mustaqil tarzda qaror qabul qilish malakalarini egallash.

**Keys topshiriq bayoni:**

### Jahon aholisining etnik xususiyatlari

Yer sharida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishning turli bosqichlarida turgan ko'plab etnoslar tarqalgan. Etnoslar bir qator umumiy belgilari (tili va yashaydigan hududining umumiyliigi, madaniyati va maishiy hayotidagi yaqinliklar, tarixidagi o'xshashliklar, ba'zan bitta davlatga mansubligi) mavjud bo'lgan kishilar guruhidan shakllanadi.

Fanda qabul qilingan etnoslarning uch bosqichli tasnifiga muvofiq, ularning eng qadimiy tipiga ibtidoiy jamoa tuzumiga mansub bo'lgan qabilalar va qabila guruhlarini kiradi. Quldorlik va feodal formasiyalari bilan yangi etnos tipi - elatlar bog'liq. Iqtisodiy aloqalarning kuchayishi tufayli yuqori darajada rivojlanishgan etnos tipi-millat shakllandi.

Turli mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishidagi notengliklar oqibatida hozirgi paytda sayyoramizda etnoslarning yuqorida qayd etilgan barcha tiplari uchraydi. Biroq, ko'pincha u yoki bu xalqni qanday etnik tipga mansubligini aniqlash qiyin kechadi. Chunki ularning ko'pchiligida millatni elatdan, elatni qabila yoki qabilalar guruhidan ajratib turadigan belgilari yaqqol aks etmagan. Bu narsa avvalo ko'pgina etnoslarning rivojlanish jarayoni hozir ham davom etayotganligi bilan bog'liq. Ko'plab kishilar guruhida milliy ong - u yoki bu xalqqa mansublik juda tez, ba'zan bir avlod umri davomida o'zgaradi.

Tarixiy jihatdan etnoslarning eng qadimiy tipi - qabila. Har bir qabila bir qancha urug'lardan-qon-qarindoshlik rishtalari bilan bog'langan kishilar guruhidan tarkib topgan. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida qabiladagi kishilar orasida ijtimoiy



tabaqalashuv mavjud bo'lmagan. Hozirda ba'zi bir (eng qoloq va kam sonli) etnik guruhlarda, birinchi navbatda ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi xalqlar orasida qabilaviy xususiyatlar saqlanib qolgan.

Ibtidoiy jamoa tuzumining parchalanish jarayonida ko'pgina qabilalar manfaatlarining umumiyliги ularni muayyan Ittifoqlarga birlashishga olib keldi (masalan, Shimoliy Amerikadagi irokezlar ligasi, Meksikada uchta astek qabilalar uyushmasi, Janubiy Afrikada zulus qabilalari Ittifoqi va h.k.). Bunday ittifoqlarning shakllanishi qabilalar orasida xo'jalik va madaniy aloqalarning kuchayishiga, bu esa o'z navbatida qabila-larning asta-sekin qo'shib ketishiga olib keldi hamda ilgarigi qon-qarindoshlik aloqalari o'rnini hududiy aloqalar egallay boshladi. Shu yo'l bilan yangi etnos tipi-kishilarning tili, hududi, iqtisodiyoti va madaniyati o'xshash bo'lgan kishilar guruhi-elat shakllandi.

Dastlab quldorlik davrida qadimgi Misr, qadimgi Ellen va boshqa shu kabi elatlar shakllandi. Yevropada elatning shakllanish jarayoni asosan feodalizm davriga kelib tugallandi (qadimgi rus, polyak, nemis va h.k.). Odatda kelib chiqishi va tili yaqin bo'lgan qabilalar o'zaro birlashganlar (qadimgi rus-polyan, drevlyan, vyatich va boshqa sharqiy slavyan qabilalari, polyak-pomoryan, vislyan, ma'zovshan va boshqa slavyan qabilalari, nemis-saks, aleman va boshqa german qabilalari) yoki birining ikkinchisiga bosqin uyushtirishi natijasida turli tilda so'zlashadigan qabilalar qo'shib ketganlar (shimoliy fransuz va provansal elatlari-gall qabilalari, rim kolonistlari, german qabilalari, franklar, vestgotlar va burgundlar va h.k.).

Elatlarning qo'shilishi jarayonida hamda ularning ayrim qismlari orasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarning kuchayishi natijasida ulardan birining tili (odatda ko'p sonli va nisbatan rivojlangani) umumiy tilga aylanadi, boshqa qabila tillarining ahamiyati pasayib, sheva darajasiga tushadi yoki butunlay yo'qolib ketadi; muayyan hududiy, madaniy va xo'jalik birligi shakllanadi. Biroq, bunday birlik hali ancha (ayniqsa, iqtisodiy jihatdan) beqaror va bo'sh edi. Iqtisodiy va madaniy aloqalarning kuchayishi bilan elatlar asta-sekin millatlarga aylana bordi. Elatlar uchun xos belgilar yangi sifat darajasiga ko'tariladi: millat barqaror hududiy, iqtisodiy va madaniy birlik bilan, umumiy til bilan ajralib turadi; va nihoyat, qayd etilgan xususiyatlar natijasida milliy harakterning umumiy jihatlari hamda milliy ong shakllanadi.

Odatda millat-nomi saqlanib qolgan elatning etnik rivojlanish mahsulidir. Biroq, davlat chegaralaridagi o'zgarishlar tufayli ayrim elatlar negizida bir qancha etnik birliklar yuzaga kelgan (masalan, portugallar va galisiyaliklar, nemislar va avstriyaliklar va h.k.). Qadimgi rus elati rus, ukrain va belorus elatlarining umumiy ildizi bo'lib xizmat qildi. Keyinchalik ularning har biri alohida millatga aylandilar. Shunday holatlar uchraydiki, bitta millatning shakllanishida bir qancha elatlar ishtirok etadi (masalan, indoneziya millati yavaliklar, sundlar, madurlar va boshqa elatlardan, filippinlar-tagallar, visayyalar, iloklar va boshqalardan shakllangan).



Ko'pgina mayda elatlar millatga aylanmasligi mumkin. Ular kamsonli bo'lganliklari tufayli ayrim zamonaviy yo'nalishlarni mahalliy kadrlar bilan ta'minlay olmasdan, taraqqiyotdan orqada qoldilar. Vaqt o'tgach, bunday elatlar boshqa ancha rivojlangan elat yoki millat bilan aloqaga kirishadilar, ularning madaniyati va tilini o'zlashtiradilar va asta-sekin ular bilan qo'shib ketadilar.

#### **Vazifalar.**

1. Etnoslar va ularning turlari bo'yicha ma'lumotlarni o'rganish.
2. Mavzu bo'yicha turli axborot bera oluvchi manbaalarni topish va ular orqali o'zlariga kerakli ma'lumotlarni to'plash.
3. O'zbek millatining geografik tarqalishi bo'yicha ma'lumotlar to-pish va ularni tahlil qilish.

#### **Topshiriqni bajarish uchun ko'rsatmalar:**

- olingan ma'lumotlardan foydalanib, ular yordamida aholisi son, ilmiy-texnikaviy ma'lumotlari 100 mln.dan oshgan etnik birliklar tarqalgan hududlar aniqlanib, zaruriy ma'lumotlar o'zlashtirilsin;
- guruhda "O'zbek millatining geografik tarqalishi" mavzusidagi bahs-munozarada qatnashib, fikr muloxazalar almashinsin.

**O'quv predmeti:** "Siyosiy geografiya".

**Mavzu:** «O'zbekistonning geosiyosiy salohiyati va tashqi iqtisodiy aloqalari».

**Ta'limiy maqsad:** O'zbekistonning jahon siyosiy kartasida tutgan o'rnini to'g'risida talabalarga chuqurroq bilim berish.

Talabalar ushbu keysni muvaffaqiyatli hal etishlari uchun O'zbekistonning geosiyosiy o'rin xususiyatlari, hamda ulardan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini aniqlash borasidagi *bilimlarga ega* bo'lishlari lozim.

#### **Rejalashtiriladigan o'quv natijalari:**

- mavzuga oid ma'lumotlarni tahlil etish va baholash qobiliyatini rivojlantirish;
- mustaqil tarzda qaror qabul qilish malakalarini egallash.

#### **Keys topshiriq bayoni:**

O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi yuksak mavqei va ahamiyati sub'ektiv baholar bilan belgilanmaydi, balki strategik xususiyatga ega bo'lgan ob'ektiv omillarga asoslanadi.

Birinchidan, O'zbekiston-mintaqadagi eng ko'p aholi yashaydigan davlat. Bu yerda Markaziy Osiyoning qolgan boshqa davlatlaridan biroz kam bo'lgan aholi istiqomat qiladi. Bu holat mintaqada O'zbekistonning demografik ulushi ancha katta ekanligini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, O'zbekiston, Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlaridan farqli o'laroq, jahon miqyosidagi yoki mintaqaviy yirik davlatlarning birontasi bilan ham



bevosita chegaradosh emas. Geosiyosiy nuqtai nazardan bu, shubhasiz, muhim ustunlikdir. Boshqa tomondan, O'zbekiston mintaqa-ning besh mamlakati bilan umumiy chegaraga ega bo'lgan yagona davlat hisoblanadi.

Uchinchidan, Markaziy Osiyoda qachonlardir mavjud bo'lgan va davlat-chilik, fan va madaniyatning rivojlanishida sezilarli iz qoldirgan barcha asosiy davlat to'zilmalarining poytaxtlari hozirgi O'zbekiston hududida joylashgan. Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon va Toshkent madaniyatlarining sivilizatsion ta'sirio'tmishda mamlakat hududidan tashqarida ham juda kuchli bo'lgan.

Nima deb o'ylaysiz, O'zbekistonning markaziy geosiyosiy o'рни uning rivojlanishida qanday qulayliklarni yaratib berishi mumkin?

**Topshiriqni bajarish uchun ko'rsatmalar:**

- geosiyosiy o'ringning ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlash;
- geosiyosiy o'rin xususichtlaridan foydalanib tashqi iqtisodiy alo-qalarini mustahkamlash bo'yicha takliflar ishlab chiqarish.

**Keys № 2.** Materiklar va okeanlarning kelib chiqishi ko'p olimlar tomonidan turlicha talqin etiladi. O'ylab ko'ringchi, materiklarni kelib chiqishi va hozirgi holatiga kelishi haqida qanday qarashlar mavjud? Vege-nerning plitalarni suzib yurishi haqidagi gipotezasi qay darajada isboti-ni topmoqda?

**Keysning maqsadi:** Yevrosiyo materigi haqida umumiy ma'lumot berish hamda Yevropa qit'asining paydo bo'lishi, rivojlanish tarixi, reliefi, geologik tuzilishi va foydali qazilmalarining tarqalishini o'rganish.

**Savollar:**

1. Muammo nimadan iborat?
2. Mazkur muammoni yechishda hukumat qanday ishlar olib bormoqda?
3. Siz bu muammoga qanday yechimlar taklif qilasiz?

**Tinglovchilar uchun ko'rsatmalar:**

1. Keys mohiyatini yetarlicha anglab oling.
2. Muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang.
3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajrating.
4. Ana shu omillar asosida yechimni asoslashga uring.

Yer shari axolisining yarmidan ortig'i yashaydigan va planetamizdagi eng katta quruqlik massivi bo'lmish Yevrosiyo materigini to'rt okean Shimoliy Muz okeani, Atlantika okeani, Tinch okeani va Xind okeani o'rab olgan bo'lib, u ekvator bilan 77° shim. kenglik orasida joylashgan. Materikning chekka nuqtalari - Chelyuskin burni (77° 43 sh.k.). Piay burni (1°16 sh.k.). Roka burni (9°34 g.u.) va Dejnyov burnidir (169° 40 g'.u.). U shimoldan janub-ga 8 ming km ga, g'arbdan sharqqa 16 ming km ga cho'zilgan. Yevrosiyoga kiriti-ladigan ba'zi orollar bu materikdan ancha olisda



joylashgan. Shpisbergen, Frans Iosif Yeri va Severnaya Zemlya orollari  $80^{\circ}$  sh.k. dan shimolga kirib borgan. Malayya arxipelagidagi orollar esa janubiy yarim sharda  $11^{\circ}$  sh.k. gacha tushib kelgan. Atlantika okeanidagi Azor orollari  $28^{\circ}$  g'.u. dadir. Orollarning umumiy maydoni 2,75 mln. km<sup>2</sup>, Yevrosiyoning maydoni orollar bilan birga -53,4 mln. km.kv. Materikning juda kattaligi uning tabiiy sharoiti juda murakkab va xilma-xil ekanligiga sabab bo'lgan. Yevrosiyoning g'arbiy qismi, ya'ni Yevropa qit'asi eng tor bo'lib, uni dengizlar juda parchalab yuborgan: maydonining 1/3 qismi orollar va yarim orollarga to'g'ri keladi hamda dengizdan eng uzoqdagi joyi atigi 600 km keladi. Materik sharqqa tomon kengaya boradi. Osiyo qismida orollar va yarim orollarga materik jami maydonining 1/4 qismi to'g'ri keladi.

G'arbdan sharqqa tomon materik yer yuzasining xarakteri ham o'zgara boradi. Yevropaning parchalangan reliefi Sharqdan Sharqiy Yevropa, G'arbiy Sibir va Turon tekisliklarining hamda O'rta Sibir platosining keng saxni bilan almashinadi.

Yevrosiyoni g'arb va janubi-g'arbdan Atlantika okeani va uning dengizlari o'rab turadi. Bu okeanning Yevrosiyoga bevosita tutashib turuvchi shimoli-sharqiy qismi O'rta Atlantika tizmasidan sharqda G'arbiy Yevropa suv osti soyligidan iborat; uning eng chuqur joyi 6000 m dan ortadi.

Materik sayozligidan shimolda Shimoliy Muz okeani bir qancha chuqur suv osti soylıklariga bo'linib ketgan: bu soylıklarni bir-biridan ajratib turgan suv osti tizmalarida bir gruppа materik orollari-Shpisbergen, Frans-Iosif Yeri va boshqalar joylashgan. Ba'zi orollar  $80^{\circ}$  sh.k. dan shimoldadir. Shimoliy Muz okeanini Tinch okeanidan suv osti balandliklari ajratib turadi, bu balandliklar ustida chuqurligi 50 m gacha bo'lgan Bering bug'uzi joylashgan.

Yevrosiyoning sharqiy qirg'oqlarini Tinch okean suvlari yuvib turadi, bu okean butun Dunyo okeanining yarmini tashkil etadi. Tinch okeanining g'arbiy qirg'oqlari nixoyatda o'yilib ketganligi va orollarning juda ko'pligi bilan ajralib turadi. Deyarli meridional yo'nalgan qator orollar va yarim orollar bir-biriga tutash chekka dengizlar sistemasini okeandan ajratib turadi, chunonchi, Kamchatka yarim oroli va Kuril orollari Oxota dengizini, Yapon orollari va Koreya yarim oroli Yapon dengizini ochiq okeandan ajratib turadi. Materik, Koreya yarim oroli va Ryukyu orollari o'rtasida materik sayozligida Sariq dengiz bilan Sharqiy Xitoy dengizi joylashgan: Xindixitoy, Filippin va Zond orollari Janubiy Xitoy dengizini chegaralab turadi. Tinch okeanining chekka qismi materik yer po'stidan iborat geosinklinal strukturaga ega, markaziy qismi esa chuqurligi 5000 m dan ortiq joylari bo'lgan okean tipidagi cho'kmalardan iborat. Kuril-Kamchatka cho'kmasining chuqurligi 10542 m, Yer sharidagi eng chuqur Mariana cho'kimasining chuqurligi 11022 m Filippin cho'kmasi - 10265 metr. Orollardagi tog'larning balandligi 2-3 ming m va undan ortiq. Orollar yoyi orasida joylashgan suvosti tektonik soylıklarining chuqurligi 2-6 ming m (Yapon dengizi - 4036 m, Janubiy Xitoy dengizi 4400 m, Filippin soyligi - 6363 m).





Osiyoning janubiy qirg'oqlarini yuvib turuvchi Xind okeanining katta qismi okean yer po'sti tipidagi qadimgi suv osti cho'kmasidan iborat. Okeanning g'arbiy qismi Afrika, Arabiston yarim oroli, Madagaskar oroli Xindiston yarim orolini bir-biriga tutashtirib turgan qadimiy quruqlikning cho'kishidan hosil bo'lgan. Sharqda Zond orollarining janubiy soxillari yaqinidan eng chuqur joyi 7430 m bo'lgan bukilmalar polosasi o'tadi. Okeanning katta qismida 3000-5000 m li chuqurliklar ustun turadi. Yevrosiyo qirg'oqlari yaqinidagi eng katta suv osti soyligi Arabiston soyligidir.

**Keys № 3.** O'ylab ko'ringchi, Yevropa iqlimi bilan daryolarining sersuvligi orasida qanday farq va umumiylik mavjud.

### **Tinglovchilar uchun ko'rsatmalar:**

1. Keys mohiyatini yetarlicha anglab oling.
2. Muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang.
3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajrating.
4. Ana shu omillar asosida yechimni asoslashga uring.

Yevropa iqlimi shakllanishida bevosita uning geografik o'rni, orografik tuzilishi juda katta ahamiyatga ega. Jumladan uni Atlantika okeani xavzasida joylashganligi okeandagi Iliq oqimning mavjud ekanligi hamda xududning shimoliy-sharqiy tomon kengayib borishi xudud iqlimini o'ziga xos tarzda shakllanishiga sabab bo'ladi. Xudud iqlimini shakllanishida radiatsiyaning umumiy miqdori va radiatsiya balansini ahamiyati judaatta. Xududda radiatsiya balansi va radiatsiya miqdori janubdan shimolga tomon kengayib boradi. Sitsiliya va Bolqonda yillik radiatsiya miqdori 160, Parij kengligida 100 kkal.sm ga teng. Radiatsiya balansi ham Yevropaning janubida 80, Parij kengligida 40, Shimoliy Skandinaviyada 30 kkal.sm ga teng. Butun Yevropa yozda radiatsiya balansi musbat, qishda esa faqatgina O'rta dengiz buyidagina radiatsiya musbat bo'lib, qolgan rayonlarda manfiy yoki O ga yaqindir. Yevropa ustida asosiy tipdagi havo massalari xukmronlik qiladi. O'rta kengliklar havo massalari, Arktika va tropik havo masalari mavjud. Xudud iqlimini shakllanishida Atlantika okeani ustida tarkib topadigan o'rta kengliklar havo massalari ta'siri juda yuqoridir. Mo'tadil kengliklardagi dengiz havosi hamda kontinental havosi o'rtasidagi farq juda katta bo'lib quruqlik havosi uncha katta rol o'ynamaydi. Arktika havosi esa asosan shimoliy xududlarga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Atmosfera sirkulyatsiyasi atmosfera bosimini xudud bo'yicha taqsimlanishiga bog'liq. Jumladan Arktika va subtropiklarda yuqori bosim mintaqalari va ularning oralig'ida past bosim mintaqalarining mavjudligi, xududga kirib keladigan havo massalarini asosan shu yuqori bosimli mintaqalardan kelishiga sabab bo'ladi. Xududga Markaziy Osiyo va Azor orollari yaqinidagi Azor maksimumlarini ta'siri kuchlidir. Atmosfera sirkulyatsiyalari





mavsumiy xarakterga ega bo'lib mavsumlar bo'yicha almashinib turadi. Sharqqa borgan sari havo massalarining o'zgarishi natijasida g'arbiy havo oqimining haroratsi kamaya boradi va bu yerlarda dengiz iqlimi tipi bir muncha o'z xususiyatini yo'qotadi.

Termik sharoitning xudud bo'ylab notekis bo'lishi qishda qor qoplami uzoq vaqt turmasligiga sabab bo'ladi qor Fennoskandiyaning shimolida 6-7 oy, janubida va Germaniya-Polsha tekisligining sharqida 1-2 oy, Dunay bo'yi tekisliklarida 3-4 hafta qolgan xududlarda undan ham kam muddat saqlanib turadi.

Atlantika sohilida ayniqsa yog'in kam yog'ib sharqqa tomon kamayib boradi.

Bunga sabab siklon faoliyatining kamayib dengiz havosini quruqlik havosi bilan almashinishidir. Qish fasli havo haroratsi Madridda -12, Pimla - 4,, Londonda -13, Berlinda -26, Murmanskda - 38 ko'rsatkichga ega, Yozda esa Madridda +44, Pimla +39, Londonda +34, Berlinda +38, Murman-skda +33 ko'rsatkichga ega.

Yog'in mikdorini geografik taqsimlanishida xududga qirib keluvchi Islandiya minimumi va g'arbiy yo'nalishidagi shamollar oqimi katta ta'sir ko'rsatadi. Xududning namlik koeffitsienti bir muncha yuqori ekanligi xududa yog'in mikdorini ham materikni ichki qismiga nisbatan bir muncha ko'p bo'lishiga sabab bo'ladi. Xududni katta qismida 9 000 mm yog'in yog'adi.

Yevropa arktika, subarktika, mo'tadil va subtropik iqlim mintaqalarida joylashgan.

Arktika va subarktika mintaqalari. Bu mintaqalarda Yevropaning Shpisbergen, Islandiya, Yan-Mayen, Medvejy orollari joylashgan. Arkti-ka mintaqasida yil davomida Arktika havosi xukmron. Subarktikada qishda arktika yozda mo'tadil havo massalari almashinib turadi.

Mo'tadil mintaqa. Bu mintaqada yil bo'yi o'rta kengliklar havo massalari xukmronlik qiladi. G'arbdan siklonlar kelib turadi. Mintaqaning shimoliy qismida yoz salqin janubida esa issiq. Okean ta'siriga ko'ra dengiz va quruqlik iqlim tiplari ajratiladi. Mintaqaning janubiy qismida Yevropa Atlantika sohilining dengiz iqlimi; Yevropa Atlantika sohilining dengiz iqlimidan sharqiy Yevropaning qurilik iqlimiga o'tuvchi iqlim Dunay bo'yi tekisliklarining kontinental iqlimi; o'rta balandlikdagi tog'lar iqlimi; baland tog'lar iqlimi tiplari mavjud.

Subtropik mintaqa. Bu mintaqada yozda tropik, qishda mo'tadil mintaqa havosi hukmronlik qiladi. Janubiy Yevropaning katta qismi Venesiya-Padan pasttekisligi Pireneya va Bolqon yarim orollarining shimolidan tashqari shu mintaqada joylashgan. G'arbiy Yevropa qismida O'rta dengiz tipi xarakterli. Bu mintaqada ham dengiz va qurilik tiplari ajratiladi.



## VI. GLOSSARIY

Termin	O'zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
<b>Agrar islohat</b>	Qishloq xo'jaligida davlat tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar	<b>Agricultural policy</b> - the socio-economic transformation in the agricultural sector by the State.
<b>Azimut</b>	Kuzatuv nuqtasida meridian va vertikal yuza o'rtasidagi burchak	<b>Azimuth</b> - angle between the plane of the meridian observation point and vertical plochkostyu passing through this point and the observed object
<b>Aysberg</b>	Muzlikdan sinib tushgan suzuvchi yirik muz parchasi	<b>Iceberg</b> - floating block of ice broke away from the glacier
<b>Akkumulyatsiya</b>	Er yuzasi yoki dengiz tubida tog' jinslari oqizqlarining to'planishi	<b>Accumulation</b> - accumulation, deposition of sediments or rocks on the Earth's surface or on the bottom of the sea
<b>Anklav</b>	Davlat yoki uning bir qismining boshqa davlat xududi bilan o'rab olinganligi	<b>Enclave</b> - a country or a part thereof, with all sides surrounded by the territory of another State
<b>Artezian basseyn</b>	Suv o'tkazmaydigan qatlamlar orasida yig'ilgan, bosimga ega bo'lgan yer osti suvlari	<b>Artesian Basin</b> - pressure underground water concluded between waterproof layers
<b>Atmosfera</b>	Sayyoramizning xavo qobig'i	<b>Atmosphere</b> - air ground shell
<b>Atom elektrostansiyasi</b>	Atom energiyasini elektr energiyaga aylantiradigan stansiya	<b>Nuclear power station</b> - power which nuclear energy is converted into electrical energy
<b>Tabiiy resurs</b>	tabiatda mavjud bo'lgan turli ko'rinishdagi resurslar bo'lib, ular mamlakatlar iqtisodiyotini shakllantirish va kishilik jamiyati rivoji uchun muhim ahamiyatga ega	<b>Natural resources</b> - components and properties of nature necessary for a person to obtain material and other benefits. Natural resources are natural (natural) origin
<b>Resurslar bilan ta'minlanish</b>	tabiiy resurslar miqdori va ulardan foydalanish miqyosi orasidagi tafovut. Ma'lum turdagi resurslarning necha yilga yetish holati	<b>Resource supply index</b> - the ratio between the amount of diluted stock of resources



	hamda aholi jon boshiga miqdori asosida aniqlanadi	
<b>Sanoat</b>	Iqtisodiyotning jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlari taraqqiyoti darajasiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan yetakchi tarmog'i	<b>Industry</b> - the largest and most technically advanced material manufacturing industry. creating tools and other means of production, as well as most of the commodities
<b>Undiruvchi sanoat</b>	Mineral resurslarni izlash va qazib olish bilan shug'ullanuvchi tarmoqlar majmui bo'lib, shu bilan birga majmua tarkibiga ularni birlamchi qayta ishlash hamda yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish tarmoqlari ham kiradi.	<b>Extractive industry</b> - complex industries engaged in extraction and enrichment of minerals at oil and gas enterprises, mines, quarries, mines, mining enterprises and other similar companies.
<b>Qishloq xo'jaligi</b>	Moddiy ishlab chiqarishning muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, biologik resurslardan foydalangan holda mahsulot yaratadi	<b>Agriculture</b> - a branch of material production using biological processes for the creation of plant and animal products.
<b>Intensiv yo'l</b>	Ma'lum yer maydoniga katta miqdordagi mablag' yo'naltirilishi asosida qo'shimcha texnik vositalar jalb etish, yer tarkibini yaxshilash maqsadida melliorativ va irrigatsion tadbirlar o'tkazish	<b>Intensive way</b> - the application of new technologies in the cultivation of the land and the development of new, more productive varieties.
<b>Transport</b>	iqtisodiyotning muhim tarmog'i bo'lib, xalq xo'jaligi va aholining yuklarga ehtiyojlarini o'z vaqtida muttasil ta'minlab turadi.	<b>Transport</b> - one of the main sectors of the economy. Is engaged in the movement of people, goods (products), information, energy from place to place, from one region (country) to another region (country).



<b>Siyosiy karta</b>	davlatlarning joylashgan o'ri, chegaralari va poytaxtlarini ko'rsatib beruvchi karta	<b>The political map of the world -</b> a geographical map showing the countries of the world, their form of government and polity.
----------------------	--	--



## VII. FOYDALANILAGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

### II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli [Farmoni](#).
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli [Farmoni](#).
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli [Farmoni](#).





15. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi "O'qituvchi va murabbiylar–yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir". Xalq so'zi gazetasi 2020 yil 1 oktyabr, №207 (7709).

17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabr "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-sonli Qarori.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevral "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4623-sonli qarori.

### Sh. Maxsus adabiyotlar

19. Avazov Sh., Saydamatov F., Allaberganov X. "Biosfera (ekosfera) va odam (jamiyat) tizimida geoekologiya va geoekologik o'lkashunoslik. Monografiya. Toshkent: INNOVATSIYA-ZIYO", 2019.

20. Akimova T.A. Ekologiya: Chelovek – Ekonomika – Biota – Sreda: ucheb. dlya vuzov / T.A. Akimova, V.V. Xaskin. – M.: «YUNITI-DANA», 2001.

21. Alekseyev V.P. Geograficheskie ochagi formirovaniya chelovecheskix ras. – M.: «Мысль», 1985.

22. Budilova Ye.V. i dr. Prirodnye i antropogennye ekosistemy: problemy i resheniya. – M.: «BIBLIO-GLOBUS», 2017.

23. Biryukov N.P. Evolyusiya. Proisхождение Vselennoy, jizni na zemle, populyatsionno-geneticheskie osnovy evolyusii jivyx organizmov, makroevolyusiya: ucheb. posob. – Kaliningrad: KGU, 1999.

24. Будыко М. И. Evolyusiya biosferы. – L.: «Gidrometeoizdat», 1984.

25. Verzilin N.N. Geograficheskaya obolochka: ponyatie i model evolyu-sii / Vestnik Sankt-Peterburgskogo universiteta. Ser 7. Выр. 3.- S.37-48.

26. Vernadskiy V.I. Biosfera i noosfera. – Moskva: «Ayriz-Press», 2003.

27. Vernadskiy V.I. Jivoe veshchestvo.– M.: «Nauka», 1978.

28. Vliyanie cheloveka na landshaft / Pod red. F.N. Milkova, K.N. Dyakonova. – M. «Мысль», 1977.

29. Geoekologiya i prirodopolzovanie. Ponyatiyno-terminologicheskiy slovar / Avtorы sostaviteli Kozin V.V., Petrovskiy V.A. – Smolensk: «Oykumena», 2005.

30. Gorshkov V.G. Fizicheskie i biologicheskie osnovy ustoychivosti jizni / Otv. red. K.S. Losev. – M.: VINITI, 1995.

31. Deryagina M.A. Evolyusionnaya antropologiya: biologicheskie i kulturnye aspekty: ucheb. posobie / M.A. Deryagina. – M.: Izd-vo URAO, 2003.



32. Jirkov I.A. Jizn na dne. Bio-geografiya i bio-ekologiya bentosa. – M.: T-vo nauchnyx izdaniy KMK, 2010.

33. Zalogin B.S. Mirovoy okean / B.S. Zalogin, K.S. Kuzminskaya: ucheb. posobie dlya stud. vyssh. ped. ucheb. zavedeniy. – M.: Izd-kiy sentr «Akademiya», 2001.

#### IV. Internet saytlar

19. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

20. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi

21. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi

22. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portali Ziyonet

23. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi